



SHAXLOXON KARIMOVA

# BOLALAR ADABIYOTI NAZARIYASI

DARSLIK



“Pages print” nashriyoti  
Toshkent – 2025

**UO'K: 821(100).09-93(075.8)**

**KBK: 83.8ya73**

**K 25**

**Karimova Sh.G'.**

Bolalar adabiyoti nazariyasi [Matn]: darslik / Sh.G.Karimova. – Toshkent: “Pages Print” nashriyoti, 2025. – 160 b.

***Mas'ul muharrir:***

**Nosirova M.** – *Oriental universiteti “Sharq tillari” kafedrası professori, filologiya fanlari nomzodi*

***Taqrizchilar:***

**Erkinova N.** – *Oriental universiteti “O'zbek va Sharq tillari” kafedrası dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD*

**Mirsaidova N.** – *Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

“Bolalar adabiyoti nazariyasi” fani 70110401 – “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang’ich ta’lim)” mutaxassisligi magistrлари uchun bolalar adabiyot nazariyasi, hozirgi adabiy jarayon haqida ma’lumot berish va boshlang’ich ta’limda uchraydigan adabiy janrlarni bilish va farqlay olishlarini o’rgatish maqsadlarini ko’zda tutadi. Shuningdek, badiiy asarda shakl va mazmun, avtobiografik va biografik asarlarning kompozitsiyasi va tili, adabiy jarayon va badiiy tafakkurdagi evrilishlar, bolalar she’riyati, nasri, dramaturgiyasining axloqiy-ma’rifiy-estetik xususiyatlari, ijodiy-uslubiy izlanishlar haqida ma’lumotlar qamrab olingan. Bunday asarlarda bolalar ruhiyatining yangicha idrok etish xususiyatlari, folklorizm va yumordan foydalanish mahorati haqidagi tushunchalar yoritib berilgan.

*Mazkur darslik Oriental universiteti ilmiy va o’quv uslubiy kengashining 2025-yil 8-maydagi 7-sonli yig’ilish qarori bilan nashr qilish uchun tavsiya etilgan.*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 9-iyuldagi 258-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan.*

**ISBN 978-9910-8039-9-4**

© Sh.G.Karimova, 2025.

© “Pages Print” nashriyoti, 2025.



### KIRISH

Istiqlol yillarida ayniqsa, bolalar adabiyotini rivojlantirish, kelajak bunyodkori hisoblanuvchi yosh avlod tafakkurini oshirish jarayonining asosi sifatida qaraldi. adabiyotiga e'tibor insoniyat ma'naviy kamolotiga munosabat sifatida jamiyat rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lib, har bir milliy adabiyotda o'ziga xos jihatlari bilan alohida ajralib turadi. Ayniqsa, bugungi kunda bolalar adabiyotiga badiiy-estetik hodisa sifatida yondashish, ijodkor badiiy mahoratini ochish, bolalar va kattalar o'rtasida kechadigan munosabatlarning badiiy talqini masalalari jahon bolalar adabiyoti namoyandalarining milliy bolalar adabiyotlarini yuksaltirishdagi o'rni, turli xalqlar adiblari ijodining mavzu ko'lami, badiiy talqindagi o'ziga xoslik va mushtarakliklarini o'rganish dolzarblik kasb etmoqda.

Bolalar adabiyoti nazariyasi haqida qisqacha ma'lumot berish orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga "O'qish" kitobida uchraydigan adabiy janrlarni bilish va farqlay olishni shakllantirishdan iborat. Adabiyot nazariyasining eng muhim bo'limlari, qoidalar, tasnif va tushunchalar qamrab olingan. Shu bois, talabalarda adabiy asar haqida tushuncha, epik, lirik, dramatik tur janrlarining badiiy va kompozitsion xususiyatlari, she'riy nutq, she'riy vaznlar, ritm, qofiya, band, asar mavzusi va g'oyasi, adabiy asar tahlili, tasviriy ifodalar, jonlantirish, mubolag'a haqidagi **ko'nikma** va **malakalarini** hosil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jihatdan mazkur darslik o'quv jarayonining sifati va magistrilar tomonidan puxta o'zlashtirilishiga ma'lum ma'noda yordam beradi.



“Bolalar adabiyoti nazariyasi” fani bolalar adabiyot nazariyasi haqida qisqacha ma’lumot berish orqali 70110401 – “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang’ich ta’lim)” mutaxassiligi magistrilariga O’qish kitobida uchraydigan adabiy janrlarni bilish va turlarga ajratish, ularni farqlay olishlari, bolalar adabiyoti yo’nalishida ilmiy tadqiqot ustida ishlashlarida ilmiy-nazariy manbalardan biri sifatida xizmat qilish maqsadini ko’zlaydi. Shunga adabiyot nazariyasining eng muhim bo’limlari, qoidalar, tasnif va tushunchalar qamrab olingan.

Jumladan, adabiy asar haqida tushuncha, epik, lirik, dramatik tur janrlarining badiiy va kompozitsion xususiyatlari, she’riy nutq, she’riy vaznlar, ritm, qofiya, band, asar mavzusi va g’oyasi, adabiy asar tahlili, tasviriy ifodalar, jonlantirish, mubolag’a haqidagi tushunchalarni qamrab olgan.

Mazkur darslik amaldagi o’quv rejalarga muvofiq va Fan dasturi asosida yaratilgan. Bizga yaxshi ma’lumki, “Bolalar adabiyoti nazariyasi” fani haqida tasavvurga ega bo’lish uchun ifodali o’qish, bolalar kitobxonligi, didaktik adabiyot, bolalar adabiyoti kabi fanlardan xabardor bo’lish tavsiya etiladi. Shuningdek, badiiy adabiyot adabiy tilni yangiliklar bilan boyitish uchun juda katta ahamiyatga egadir, zotan fanni o’qishda ona tili fanlari bilan ham chambarchas bog’liq, ayni paytda talabalarni til muammolarini hal qilishda badiiy adabiyotga tayanishga o’rgatish kerak.

- adabiy asarlarni ifodali o’qish va uqish, mazmun-mohiyatini to’g’ri anglash ko’nikma va malakalarini hosil qildirish;
- talabani badiiy ijod namunalarini to’g’ri tahlil qilishga o’rgatish;
- talabalarda estetik emotsionallik, ma’naviyat va ma’rifiylik, komillik, vatanparvarlik tuyg’ularini shakllantirish;
- adabiy asarda mavzu va g’oya, inson tasviri, syujet va kompozitsiya, adabiy asar tili;
- badiiy asar turlarining o’ziga xos xususiyatlari va ularni badiiy o’qish malakalari oshirish;



- epos, epik tur va uning janrlari; lirika, lirik tur va uning janrlari; drama, dramatik tur va uning janrlari; she'riy nutq, she'riy nutq lirik turning shakli sifatida; she'riy vaznlar, barmoq vazni haqida ma'lumot;
- ritm, band, qofiya; badiiy o'qish asoslari haqida tushunchaga ega bo'lishi;
- har bir adabiy turning o'ziga xos kompozitsion, mavzu va g'oyaviy jihatlarini tushunib, badiiy matn, she'r va badiiy asar tahliliga yondashish.
- adabiy asarlarda qo'llanadigan tasviriy, badiiy detallar, qahramonlar, obraz, peyzaj, motiv, monolog, dialog, remarka, replika kabilarni tahlil qila olishi, badiiy o'qish vositalaridan unumli va o'rinli foydalana olishi;
- badiiy matndagi tasviriy ifodalarni, uning janri va mavzusini, asosiy qahramonlarini badiiy-janriy, kompozitsion tuzilishi jihatdan to'liq tahlil qilish;
- mavjud adabiy asarlarning g'oyasini va janrini aniqlay olish hamda ijodkor badiiy mahoratini to'liq tushuntira olish;
- she'riy asarlarni vazni va mazmuniga qarab badiiy va ifodali o'qiy olishi, barcha adabiy turdagi asarlarni badiiy o'qishda tilshunoslik, notiqlik san'ati imkoniyatlaridan to'g'ri va o'rinli foydalana olishi kerak.



## 1-MAVZU: BOLALAR ADABIYOTIDA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

### Reja:

1. *Bolalar adabiyotining janr va shakily jihatdan yangilanishi: ehtiyoj va omillar*
2. *Badiiy tafakkur yangilanishining asosiy manbalari.*
3. *Bolalar adabiyotida poetik tafakkur ifodasi.*

**Tayanch tushunchalar:** *tendensiya, janr, tur, tafakkur, poetika, zamonaviylik, an'ana, vorisiylik, mezon, badiiy-estetik, g'oya, adabiyotshunoslik, umumadabiyot.*

Bolalar adabiyotida zamonaviylik tendensiyalari so'nggi paytda o'zgarishlar va yangilanishlar bilan boyidi. Bu tendensiyalar turli ijtimoiy, madaniy va texnologik omillar bilan bog'liq. Zamonaviy bolalar adabiyoti bolalar olamini tasvirlashda o'ziga xos va o'zgaruvchanlikni ko'rsatmoqda. Texnologiyaning rivojlanishi, ijtimoiy ongni rivojlantirish, yangi janr va uslublarning paydo bo'lishi va hissiy holatlar o'zgarishi bolalar adabiyotini yanada mazmunli qiladi. Bular bolalarga to'g'ri yo'lni ko'rsatish, ularga yangi bilimlar berish va ularning hayotga bo'lgan qarashlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Jahon adabiyotshunosligida bolalar adabiyotining yuzaga kelishi, tarkib topish, turlar va janrlar bo'yicha o'ziga xosliklarini o'rganish, yosh avlod ma'naviy kamoloti va millat kelajagini belgilashda, uning badiiy-estetik, axloqiy-ma'rifiy-ma'naviy va ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatini tadqiq etishda muhim o'rin tutadi. Zero, bolalar adabiyotiga e'tibor bashariyat ma'naviy kamolotiga



munosabat sifatida jamiyat rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lib, har bir milliy adabiyotda o'ziga xos belgilari bilan alohida ajralib turadi.

Ayniqsa, bugungi kunda bolalar adabiyotiga badiiy-estetik hodisa sifatida yondashish, ijodkor badiiy mahoratini ochish, bolalar va kattalar o'rtasida kechadigan aloqa munosabatlarning badiiy talqini masalalari jahon bolalar adabiyoti namoyandalarining milliy adabiyotlarini rivojlantirishdagi o'rni, turli xalqlar adiblari ijodining mavzu ko'lami, badiiy talqindagi o'ziga xoslik va mushtarakliklarini o'rganish dolzarblik kasb etmoqda. Istiqlol davri o'zbek bolalar adabiyotidagi yangilanish bosqichlari, jarayonlari, yetakchi taraqqiyot tamoyillari va badiiy tafakkur hamda ijodiy uslubdagi poetik izlanishlar yoshlarning badiiy-estetik didini tarbiyalash nuqtai nazaridan ham muhim.

Istiqlol yillarida, ayniqsa, bolalar adabiyotini rivojlantirish, kelajak bunyodkori hisoblanuvchi yosh avlod tafakkurini o'stirish jarayonining asosi sifatida qaraldi. Yangilangan poetik tafakkur asosida o'zbek bolalar she'riyati va nasrining eng sara namunalari jamlanib, ikki jildli "O'zbek bolalar adabiyoti antologiyasi" nashr qilingani o'ziga xos hodisa bo'ldi.

Adabiyotshunos olim **R.Barakayev** fikri bilan aytganda antologiya qamrab olingan davr, saralangan asarlar badiiyati nuqtai nazaridan ham, mavzular rang-barangligi jihatidan ham, o'zbek bolalar adabiyoti she'riyati va nasrini bugungi yosh kitobxonlarga tanishtirishi va bolalar adabiyotimizning bir asrdan ortiqroq vaqt mobaynidagi qiyofasini ko'rsatishga xizmat qilishi bilan ham yosh kitobxonlarga munosib tuhfa bo'ldi. Umuman, o'zbek bolalar she'riyatining janr va mazmun, badiiy olami, qahramonlar ruhiyati kabilar o'zbek bolalar she'riyati va nasrida, qisman dramaturgiyada o'zini ko'rsatdi, deyish mumkin.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq bolalar adabiyotining ijtimoiy-estetik vazifasi, mustabid sho'ro tuzumi davrida yaratilgan yuksak badiiy asarlarning yangicha talqinlari, shu bilan birga



ijodkorlarning erk va ozodlik ruhiyati bilan sug'orilgan betakror she'r va hikoyalari tadqiqiga oid qator qo'llanma va darsliklar, risolalar e'lon qilina boshladi. Bu jihatdan O.Safarovning G.G'ulom ijodiga bag'ishlangan "Zamonlar tongining charoqlarisiz" (2007), Q.Muhammadiy she'riyati haqidagi "She'rim - ochil dasturxon" adabiy portreti (2010), E.Malik badiiy olamini aks ettiruvchi "Bolalik boqiylik timsoli yoxud "muxbirlikning olis yo'llari" (B.Jamilova bilan hammualliflikda, 2011); shuningdek, Elbek, H.Olimjon, Oybek, S.Jo'ra, Sh.Sa'dulla, T.G'oyipov, S.Barnoyev kabi bolalar adabiyoti salafarining badiiy olami tahlil va tadqiq etilgan "Bolalikning oydin osmoni" (2009) maqolalar to'plami fikrimizni asoslaydi.

To'plamdan o'rin olgan maqolalarning ilmiy ahamiyati haqida **D.O'rayeva** shunday yozadi: "Badiiy va ilmiy asarlar yosh avlodni yuksak axloqli, ma'naviy barkamol, intellektual salohiyatli qilib tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan qaralsa, bolalar adabiyotining zukko tadqiqotchisi O.Safarov tomonidan yaratilgan bu saylanma alohida e'tiborni tortadi. Undagi materiallar bolalar ijodkorlarining mahorat sirlarini, ular ijodida bolalik olamining qay darajada badiiy tahlil va talqin qilinganligiga xos xususiyatlarni, shuningdek, bolalar adabiyotining tabiatini, mundarijasini, taraqqiyot omillari va yo'nalishlarini yanada chuqurroq bilib olishga yordam beradi".

Darhaqiqat, xuddi shunday fikrni A.Rasulov, R, Barakayev, B.Ashurov tadqiqotlari, yoki T.Adashboyev, S.Barnoyev, A.Obidjon va boshqa bir qator ijodkorlarga bag'ishlangan jamoa to'plamlari haqida ham aytish mumkin. Ularda o'zbek bolalar adabiyoti masalalari haqida aytilgan dolzarb fikrlar ham yangilanayotgan tafakkur namunasidir. Shu kabi manbalarda bolalar adabiyotining sifat jihatdan yangilanishi ijtimoiy taraqqiyot, ijod ahli uchun yaratilgan imkoniyatlar, millat estetik tafakkurida odam va olamni anglash borasida yuzaga kelgan yangilanishlar bilan uzviy bog'liqligi e'tirof etildi. Zero, bolalar adabiyotimizdagi



badiiy yuksalish va yangilanishlarning asoslari mohiyat e'tibori bilan ijtimoiy hayot, jamiyat kishilari ongidagi o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Binobarin, ijod erkinligi xalq og'zaki ijodi, mumtoz adabiyot, jahon adabiyotini va tarixiy-madaniy qadriyatlarimizni o'z mohiyati negizida emin-erkin o'rganish, undan oziqlanishga zamin yaratdi. Xususan, o'yin qo'shiqlari, marosim qo'shiqlar, tez aytish, topishmoq kabi kichik folklor janrlarini o'rganish va targ'ib etishga e'tibor kuchaytirildi. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Gulxaniy singari ulug' mutafakkirlarning ma'naviy jihatdan asarlari teran mazmun-mohiyati, poetik ifoda ko'lami bilan talqin etila boshladi, darslik va majmualardan joy oldi. Adabiy-axloqiy-ma'rifiy nashrlar va vaqtli matbuotda Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Elbek singari XX asr jadid adabiyoti namoyandalarining bolalarga bag'ishlangan ma'rifatparvarlik ruhidagi she'rlari hamda jahon adabiyoti durdonalaridan qilingan tarjimalarga ko'proq o'rin ajratildi.

Rostdan ham mustaqillik davri bolalar adabiyotining mazmun va mohiyatidagi tub burilish yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunda yosh qahramonlar xarakteri tahlili masalasiga alohida e'tibor qaratilishi, shakl va mazmun jihatdan-da yangi tamoyillar kasb eta borgani yarq ko'rina boshladi. Milliy bolalar matbuoti ham mavzu material, g'oyaviy-badiiy jihatdan o'sib, bolalar ijodkorligi namunalari ko'proq ommalashtirilayotgani ta'kidga loyiq. Shu bilan birga yangi asr bolajonlarining qiziqishlari, ruhiy, ma'naviy olami, ularning ijtimoiy hayotga munosabati masalalari aks etgan asarlar tahlili orqali o'quvchilarda axloqiy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy tarbiyani shakllantirishga ahamiyat berilayotgani diqqatga sazovor.

Binobarin, istiqloq davri o'zbek bolalar adabiyotida jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq mavzu talqinlari ustuvorligi (S.Barnoyev, E.Malikov, T.Malik asarlarida); kichkintoylar va bolalar fe'l-atvoridagi xarakter xususiyatlarning sarguzasht ifodasi, hajviy-



yumoristik, fantastik (X.To'xtaboyev, A.Obidjon ijodida); bolalar va o'smirlarning murakkab ruhiyat olami (psixologizm) teran aks etgan asarlar, qolaversa, tabiat va jamiyat muammolari falsafiy talqin etilayotgan badiiy ijod namunalari (M.A'zam, T.Adashboyev, A.Obidjon, N.Fozilov, asarlari) ko'zga tashlanadi.

Bunda asrimiz boshlaridayoq bolalar asarlarining g'oyaviy-badiiy, axloqiy-ma'rifiy, falsafiy va psixologik jihatdan monografik tahliliga oid salmoqli tadqiqotlar, risola hamda adabiy-tanqidiy maqolalarning vujudga kela boshlagani muhim hodisa bo'ldi. Adabiyotshunos olimlar o'zbek bolalar adabiyoti tarixi va nazariyasi muammolarini yangicha tafakkur, istiqloq mafkurasi nuqtayi nazaridan o'rganish joizligini asoslab berdilar.

Istiqloq davri yangi bolalar adabiyotining maydonga kelishiga 80-yillarning ikkinchi yarmi katta ta'sir ko'rsatgani bejiz emas. Ayni shu davrda bolalar adabiyotimiz tom ma'nodagi haqiqatga tik boqadigan adabiyotga aylandi, yosh avlodni erksevarlik tuyg'ulari ruhida tarbiyalashda ilk qadamlarini qo'ydi. Bu ishga badiiy so'z qudrati bilan ulush qo'shib kelayotgan iste'dodli yozuvchilarning yangi avlodi yetishib chiqqanligi e'tirofqa sazovor. Ya'ni, nafaqat Anvar Obidjon, T.Adashboyev, Miraziz A'zam, R.Tolipov, S.Barnoyev singari professional adib va shoirlarning o'ziga xostalqin hamda yo'nalishdagi ijod namunalari balki Q.O'tayev, H.Imonberdiyev, K.Turdiyeva, Abdurahmon Akbar, Dilshod Rajab, Rustam Nazar, Vali Ahmadjon, S.Inoyatov, Qo'zi Ismoil, Zafar Isomiddin, Erpo'lat Baxt singari ijodkorlarning bolalar adabiyotiga "yangi havo" olib kirishlari bilan e'tibor qozondi.

O'zbek bolalar she'riyatida bo'y ko'rsata boshlagan o'zgarish va yangilanishlar olimlarning shu tariqa munosabatlari, bahs-munozaralari asosida ijtimoiy-estetik tafakkurga aylana borgan. Ayni shu jarayonni nazarda tutib adabiyotshunos **Q.Qahramonov** shunday yozadi: "Bu davrga kelib bolalar adabiyotiga faqat axloqiy-ma'rifiy-tashviqiy tushuncha sifatida emas, balki badiiy-



estetik hodisa, deb qarash yetakchilik qila boshladi. Natijada bu davrda bolalar adabiyoti namunalarida badiiy mukammallikka erishish, obrazlilik alohida ahamiyat kasb etadi. Ularda lirizm, fikrchanlik, majoziylik kabi xususiyatlar yetakchi tamoyillarga aylana boshladi”.

Har qanday davrda ham bolalar she’riyati o’zining soddaligi, mavzularning rang-barangligi, ta’sirchanligi, ifodaning tushunarligi, tasvirning jozibadorligi bilan kattalar adabiyotidan farqlanib turadi. Vatan, millat, tabiat, maktab, hayvonot olami, narsa-buyumlar, o’quv qurollari bilan bog’liq mavzular ko’pchilik bolalar shoirlari ijodida yetakchilik qiladi. O’tgan asrning saksoninchi yillarida bolalar adabiyotiga dadil kirib kelgan H.Imomberdiyev, Z.Isomiddinov, S.Inoyatov, Rustam Nazar, Dilshod Rajab, Vali Bobomurod, K.Turdiyeva, M.Qodirov, Orif To’xtash, Qo’zi Ismoil, Erpo’lat Baxt, N.Ostonov kabi ijodkorlar esa mustaqillik sharofati tufayli erkin ijodiy muhit imkoniyatlaridan samarali foydalanib, sertuyg’u, mushohadaga boy asarlar yarata boshladilar. Ular ijodida yangicha yondashuvlarga asoslangan shakliy rang-baranglikdan tashqari, bolani favqulodda o’ylantirib, hayot haqida, ijtimoiy munosabatlar borasida fikrlashga majbur etadigan teran mazmun singdirilganini ham ko’rish mumkin.

O’zbek bolalar adabiyotida fantastik asarlarni o’qitishda ta’lim texnologiyalarining muvaffaqiyatli loyihalanishi va kutilayotgan natijaning o’qituvchi tomonidan kafolatlanishi, asarda ko’tarilayotgan masalaning tub mohiyatini anglab yetish, ularni to’g’ri belgilash, tanlash va samarali qo’llay olishga bog’liqdir. Mashg’ulotlar jarayonida “ta’limning innovatsion metodlaridan o’rni bilan foydalanish adabiy ta’lim samaradorligi garovidir”. Fantastika yo’nalishida yaratilgan har qanday asarni o’qitish jarayonida zamonaviy ta’lim o’quvchilar uchun qiziqarli hamda yangiliklarga boy bo’lsagina kutilayotgan natijaga osonlik bilan erishish mumkin.



**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Bolalar adabiyotining shaklan va mazmunan yangilanishi ehtiyojmi, zarurat?
2. O'zbek bolalar adabiyotidagi badiiy tafakkur evrilishi deganda nimani tushunasiz?
3. An'anaviy va zamonaviy bolalar adabiyotini qanday talqin etasiz?
4. Istiqlol arafasi va mustaqillik yillarida adabiy jarayonda qanday o'zgarishlar ko'zga tashlandi?
5. Bolalar adabiyotida yangilanish qaysi adabiy turda ko'proq ko'zga tashlanadi?
6. Istiqlol arafasi va mustaqillik yillarida adabiy jarayonda qanday o'zgarishlar ko'zga tashlandi?
7. Bolalar adabiyotida yangilanish qaysi adabiy turda ko'proq ko'zga tashlanadi?

**Foydalaniladigan adabiyotlar:**

1. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. – Bolalar adabiyoti. Darslik / T.: "Sharofat-fayz", 2022. - 320 b.
2. Jamilova B. O'zbek bolalar adabiyoti. O'quv qo'llanma. T.: Innovatsiya-Ziyo. 2021. - 222 b.
3. Jamilova B. Bolalar adabiyotida poetik tafakkurning yangilanishi. T., 2022.
5. To'xtayeva N. Istiqlol davri o'zbek bolalar she'riyatining yetakchi xususiyatlari. Diss.avtoref. T., 2019.



## 2-MAVZU: KITOBXONLIK MADANIYATI VA KITOBXON

### Reja:

1. *Kitobxonlik tushunchasi va kitobxonlik madaniyati*
2. *Yosh kitobxonlarni kitobga qiziqtirish usullari*
3. *Kitob mutolaasi va kitobxonga tavsiyalar.*

**Tayanch tushunchalar:** *kitobxon, fazilat, intellektual, ko'nikma, ta'lim, mutolaa, adabiy bilim, badiiy asar, pedagogika, mutola madaniyati, mazmun, asar, qadriyatlar, mazmun, tarbiya.*

Inson badiiy tafakkurining ortishi, bilim doirasining kengayishi, olam va voqealar haqidagi tasavvurlarining oshishi, insonning tinmay mutolaa qilishiga, o'z ustida tinmay izlanishiga bog'liq. Kitobxonlik madaniyatini yoshlikdan shakllantirib, kitob o'qishga muhabbatini ziyoda qilib borish kerak. Kitobning inson hayotidagi o'rni beqiyosdir. Yoshlikdan bolada kitobga mehr tuyg'usini uyg'otish, bolaning ma'naviy oziqlanishiga, kamol topishiga yordam beradi. Ma'naviy barkamol, sog'lom fikrli bolani kamol toptirishda boshlang'ich ta'limning o'rni kattadir. Bolada kitobga mehr uyg'otish, avvalo, oiladan boshlanadi. Ota-ona kitob mutolaa qilsa, farzandda ham asta-sekin kitob o'qish ko'nikmalari shakllanadi. Bolaga yoshlikdan qiziqarli ertaklar, hikoyalarni mutolaa qilib berish kerak. Maktabga endigina qadam qo'ygan bola kitobning qanchalik qimmatbaho boylik ekanligini anglab yetishi zarur. Boshlang'ich sinflarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda o'qish darslari alohida o'rin tutadi. Bizning rivojlanib borayotgan mamlakatimizda ham kitobxonlikka katta



e'tibor qaratilgan. Kitob, avvalo, hayotiy makyab, ma'naviyat manbaidir. U yoshlarni hayot bilan tanishtiradi, hayotni sevish, yashash mohiyatini anglash hislarini tarbiyalaydi. Kitob o'qish orqali bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyati, badiiy idroki, mutolaa madaniyati, Vatan va xalq taqdiri uchun javobgarlik tuyg'usi tarbiyalanadi.

"Ayni paytda, - deydi Shavkat Miromonovich, - axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do'st bo'lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ'ib qilishga alohida e'tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi". ("XXI asr", 2016, 20-oktabr)

Bizning yurtimizda ilm olish, kitob yozish, ijod qilish har doim ham millatning mavjudligi va u nimaga qodir ekanligini ko'rsatuvchi muqaddas tushunchalar hisoblanadi. Arastu hakimdan Abu Ali Ibn Sinoga, Aflotundan-Abu Rayhon Beruniygacha, Jaloliddin Rumiyan - Alisher Navoiygacha, Amir Temurdan - Muhammadsharif Gulxaniygacha yuzlab, minglab mutafakkirlarning shakllanishi, dunyoga tanilishi, vaqtlar o'tsada ahamiyati yo'qolmaydigan tadqiqot kashfiyotlari faqat va faqat kitob orqali yuz berdi. Ularning bugungi avlod tomonidan ko'proq o'rganilishi, ular ilmiy-ma'rifiy bisotiga tez-tez murojaat qilishning sababi ham mutafakkirlarimiz tomonidan yaratilgan kitoblar tufaylidir.

Sharqda axloq-odob borasida buyuk asarlar yaratilgan asrlarning birida kitob haqidagi quyidagi firklariga bir nazar tashlaylik: "Ey aziz! Kishi uchun kitobdan azizroq va yoqimliroq suhbatdosh yo'qdir. Kitob fashat, balog'atda, latofatda tengi yo'q, munofiqlikdan holi hamrohdir. Yolg'izlikda va g'amli ayyomlarda munis ulfatdir. Unda na nifoq boru, na gina. U shunday hamdamki,



so'zlarida yolg'on va yanglish bo'lmaydi. Suhbatidan esa kishiga malollik yetmaydi. U o'z do'stining dilini og'ritmaydi. Yuragini esa siqmaydi. U shunday rafiqdirki, kishi orqasidan g'iybat qilib yurmaydi. Uning suhbatidan senga shunday fayzli foydalar yetadiki, bunday foydani odamlardan topa olmaisan. Aksincha, aksar odamlar suhbatidan kishiga zarar yetadi. Kitobdek do'st ichida barcha ilmu hilm mujassamdirki, u kishilarni o'tmishdan va kelajakdan ogoh qilib turadi. Shuning uchun ham "Kitob aql qal'asidir", deganlar. (Mashriq zamin. Hikmat bo'stoni. -Toshkent, 1997. 39-bet)

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti **Sh.Mirziyoyev** o'z farmoyishida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish kerakligiga alohida urg'u bergan. Ho'sh, kitobxonlik madaniyati deganda nimani tushunamiz? Bular, fikrimizga quyidagilardan iborat:

- o'zining kasbiy-mutaxassislik hamda badiiy-ma'naviy barkamolligini oshirish uchun kitobni tanlay olish va o'zi uchun zarurini o'qish;
- kitob ustida ishlash malakasini obdon o'rganib olish va unga chuqur amal qila bilish; kitobni mustaqil o'qiy bilish;
- o'qigan kitobning asosiy mazmunini talqin qila bilish, uning fusunkor olamiga kira bilish;
- o'qiganlaridan hayotiy xulosalar chiqarish;
- kitobning kerakli, zarur joylarini yon daftarchaga ko'chirib olish, notanish bo'lgan so'zlarni esda saqlab qolishga intilish;
- muntazam ravishda o'qish ko'nikmasiga ega bo'lish;
- kitob bilan muomalada eng qadrdon do'stingga munosabatda bo'lganday e'tibor bilan qarash; kitobni yaroqsiz holiga keltirmaslik uchun undan to'g'ri foydalana bilish;
- kitobni shoshilmasdan, o'ylab, diqqat-e'tibor bilan o'qish malakasiga ega bo'lish, kutubxona kartotekalari bilan ishlay bilishni o'rganish;



- o'qigan kitobni do'stlar bilan do'stlashish, yaxshi kitobni ularga tavsiya qilib, uni boshqalar ham o'qib chiqishiga erishish;
- har bir yaxshi kitobni ilm xazinasining kaliti deb bilib, uning boqiy umrini ta'minlash.

Sohibqiron **Amir Temur** ta'biri bilan aytganda, "Kitob (bitig) barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni yaratuvchi murabbiydir". Shu ma'noda, shaklidan qat'iy nazar, barcha kitoblar milliy o'zligimiz hamda umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib etishga xizmat qilishi ayni muddao. O'z navbatida, el-yurtimizga azaliy xos bo'lgan odamiylik, insonni qadrlash, mehr-oqibat, bag'rikenglik kabi oliyanob qadriyatlar, xalqparvarlik va vatanparvarlik, insonparvarlik, kabi yuksak tamoyillar zamondoshlarimiz qo'lga yetib borayotgan kitoblarning ahamiyati, o'rni hamda qadrini yo'qotmaydigan bosh mavzulari bo'lib qolaverishiga ishonchimiz komil. Kitob - inson umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi, har qanday vaziyatda ham hamroh bo'luvchi sodiq do'st, saodat manbai.

Insonning ruhiy-ma'naviy kamolotini ta'minlashda kitobchalik kuchli qudratga esa vosita yo'qdir. Shu boisdan, azalazaldan ma'rifat peshvolari, ahli donishlar butun insoniyatni kitob o'qishga, undan ilmu odob sirlarini o'rganishga chorlab kelishgan. Tarbiyaning barcha mezon va unsurlari, avvalo, oilada shakllantirilganidek, kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashda ham oilaning o'rni nihoyatda kattadir. Qush inida ko'rganini qiladi, degan naqlga tayansak, bu mohiyat yanada dolzarb bosqichga ko'tariladi.

Mutolaa madaniyatining ham o'ziga xos me'yor va talablari mavjud. Shularni e'tiborga olgan holda, oilaviy kitobxonlik madaniyatiga ega bo'lish uchun quyidagi tavsiyalarni e'tiborga olish nazarda tutiladi:



- ✓ kitob mutolaasida hamisha farzandlarga o‘rnak bo‘lish;
- ✓ kitob tanlash madaniyatiga ega bo‘lish;
- ✓ -muayyan vaqtlarda oila davrasida navbatma-navbat kitob o‘qib berishni yo‘lga qo‘yish;
- ✓ xotirani kuchaytirish ahamiyatiga ega bo‘lgani boisidan farzandlarning she‘r yodlashiga alohida ahamiyat qaratish, bir oyda kamida 2 ta she‘r yodlatishga erishish;
- ✓ har bir farzandning yosh va xarakter xususiyatini, ruhiy-ma‘naviy dunyosini nazarda tutgan holda kitob taqdim qilish; - kichik yoshdagi bolalarga ko‘proq rang-barang suratlarga yo‘g‘rilgan, katta-katta harflarda yozilgan, uning beg‘ubor xayoloti chegaralarini aks ettira olgan asarlarni tanlash;
- ✓ o‘rta yoshli kitobxon farzand uchun esa unga tengdosh qahramonlar taqdiri aks etgan, hayotiy, xayoliy-fantastik voqealar tasvirlangan, ko‘ngil kechinmalari jonlantirilgan asarlarni tavsiya qilish;

Yuqoridagi mulohazalardan ko‘rinadiki, ma‘naviy barkamol kitobxon avlod tarbiyasida oila muhim va mustahkam poydevor. Shu bois jamiyatda kitobxonlikni rivojlantirish, mutolaa madaniyatini takomillashtirish borasidagi har qanday faoliyatda oila bilan hamohang, hamfikir ish yuritish ko‘zlangan maqsadlarga erishishga munosib zamin yaratadi. **Kitobxon** — kitoblarni sevib o‘qiydigan, bilim olishni, fikrlashni va ma‘naviy rivojlanishni o‘zining asosiy maqsadi deb biladigan shaxsdir. Kitobxon bo‘lish nafaqat o‘qish bilan cheklanib qolmaydi, balki o‘qilgan kitoblar orqali o‘zining shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladigan, ularni tahlil qiladigan va o‘z hayotiga tatbiq qiladigan shaxsni anglatadi.

Kitobxonlik madaniyati ruhshunoslik va pedagogika zimmasidagi vazifalarni birlashtirgan holda bolalar ko‘nglini badiiy tadqiq qiladi, bolalikni badiiyat ko‘zgisida butun bo‘yi-basti bilan ko‘rsatadi, aniqlash, bolalar ruhiy olamining takomillashuvini



va ijtimoiy-axloqiy jihatdan shakllanishini badiiy tadqiq qilib ko'rsatadi, shu asosda fan va san'at o'zaro tutashgan va singishgan badiiyat hosilasiga aylanadi. Natijada bolalar adabiyoti pedagogika va ruhshunoslikning o'ziga xos badiiy- axloqiy xrestomatiyasiga aylanadi.

Bolalar adabiyotining ana shu xususiyati yozuvchi oldiga o'z o'quvchisining yosh xususiyatlarini, ruhiyatini, saviyasini va qiziqishlarini nazarda tutgan holda ijod etish vazifasini ko'ndalang qilib qo'yadi. Bu esa, o'z navbatida, balalarga atab yoziladigan asarlarning qaysi yoshdagi bolaga mo'ljallanganligini – adresliligini aniq belgilab olishni taqozo etadi.

Yozuvchi o'z asarini kimga atab yozayotganini oldindan bilishi kerak, - deb yozgan edi **M.Gorkiy**, shunday qilinmagan taqdirda uning kitobi o'quvchisiz qoladi. Bolalar yozuvchilari o'quvchilarning yoshiga katta e'tibor berishlari kerak. Agarda shunday qilinmaganda, u kitob «adressesiz» bo'lib, kattalarga ham, bolalarga ham keraksiz bo'lib qoladi.»

Bu talabni bajarishda pedagogika va ruhshunoslik fanlari bolalar yozuvchilari uchun jiddiy dastur bo'la oladi, chunki bu fanlar bolalar va ularning ruhiy olami, tarbiyasi bilan shug'ullanadi. Shu mantiqqa muvofiq bolalarni yosh xususiyatlariga ko'ra uch guruhga bo'lish an'anaga aylanganki, bu ularga mo'ljallab badiiy asarlar yozishda ham rost keladi:

1. Maktabgacha tarbiya bosqichi: tug'ilgandan to 6-7 yoshgacha;
2. Kichik yoshdagi o'quvchilik davri: 6-7 yoshdan 11-12 yoshgacha yoki muchalni to'ldirguncha;
3. O'smirlik davri yoki o'rta va katta yoshdagi o'quvchilik bosqichi: 12-13 yoshdan 17- 18 yoshgacha.

Bolalar adabiyotining yoshga nisbatan mo'ljallanganligi qotib qolgan hodisa ham emas, u zamon va insonlar o'zgarishi bilan didaktik mohiyat kasb eta boradi. Binobarin, bolalar kitobining adresliligi doimo harakatda bo'ladi: aytaylik, ijtimoiy-estetik



taraqqiyot chuqurlasha borishi bilan bolalarning yosh xususiyatlari ham o'zgaradi, davr o'zgarishi bilan avlodlar o'zgaradi, insoniyat mutassil to'lishib, yasharib borarkan, uning qiziqishlarida ham bu zuhur topadi.

Natijada qachonlardir kattalar ma'naviy mulki sanalgan ertaklar va topishmoqlar endilikda, asosan, bolalar ma'naviy ehtiyojlari qondirgichiga aylangani kabi yozma adabiyotda ham aslida kattalarda mo'ljallanib yaratilgan Ubayd Zokoniyning «Mushuk ila sichqon qissasi», shuningdek Sayido Nasafiyning «Kim zo'r» kabi asarlari, A.S.Pushkinning qator she'riy adabiy ertaklari bolalar o'qishi doirasiga kirib borgani tabiiydir.

**Boshlang'ich sinf** o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishdagi vazifalarning asosiy qismi o'qish darsida amalga oshiriladi. Bolalar o'qish darslarida to'g'ri, tez, ongli o'qishga o'rgatiladi. Endi, badiiy asar o'qitish bosqichlariga to'xtalib o'taylik.

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilari yoshiga mos keladigan ibratli hikoya yoki ertak tanlab olinadi. O'quvchilar bilan birgalikda badiiy asar to'g'ri, tez va ongli o'ib chiqiladi.

2. Asarning g'oyaviy asosi, mazmuni o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi.

3. Badiiy asar o'quvchilarning hayotiy tajribasi bilan umumlashtiriladi va xulosa chiqariladi.

4. Sinfda o'qish o'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantiradi.

Bolalar bu kabi jarayonda o'qish bilan birgalikda kitobdan to'g'ri foydalanish kerakligini ham o'rganib boradilar. O'qituvchi bolalarga kitobni toza, ozoda tutish kerakligini, kitobni o'tirgan holatda yorug' xonalarda o'qish kerakligini ham tushuntirib boriladi. Bundan tashqari bolalarda kitobxonlikni tarkib toptirish uchun Bolalarda mustaqil kitob mutolaa qilish ko'nikmasini shakllantirish kerak. Sinfda o'qituvchi birorta badiiy kitobni belgilangan muddat ichida o'quvchilar o'qishi kerakligini aytib o'tadi.



Kitobni o'qib tugatgan o'quvchini rag'batlantirishi aytib o'tiladi. Bunda bola kitobni uyda o'zi mustaqil ravishda o'qiydi, fikrlash doirasi kengayib boradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga mustaqil uyda o'qishlari uchun kitob tanlayotganda, albatta, bolaning yoshini va qiziqishlarini hisobga olgan holda kitob tanlash kerak. Bola o'ziga yoqqan asarni butun vujudi biulan o'qiydi, nafaqat o'qiydi, balki o'qigan badiiy asari haqida mustaqil fikr ham yurita boshlaydi.

Bolalar kitob mutolaasini tugatgach, asar haqida savollar berish, bolaning asar haqidagi fikrlarini tinglash bolada kitobga bo'lgan mehrni yanada o'stiradi. Masalan, bola asarni o'qib tugatgach, quyidagi savollarni berish tavsiya etiladi:

1. Asarda nima haqida ekan? 2. Asardagi qaysi qahramonlar sizga yoqdi? Nima uchun? 3. Qaysilari yoqmadi? Nima uchun? 4. Asardan qanday xulosa chiqarsak bo'lar ekan? Kabi savollar bolaning fikrlashini o'stiradi hamda nutqining o'sishiga yordam beradi.

O'quvchilarda o'qish madaniyatini boshlang'ich sinfdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirib borish kerak. **S.N.Plotnikov** o'spirin yoshidagi bolalarda o'qish madaniyatini rivojlantirish uchun quyidagi mezonlarni belgilaydi:

- bolalarda kitobga qadriyatli munosabatni yaratish jarayoni;
- qiziqqan kitobini izlab topish va tanlash qobiliyati;
- o'qiganlariga hissiy munosabatda bo'lish qobiliyati;
- badiiy matnni estetik jihatdan his qilish imkoniyatlari;
- o'qigan asarlaridan qimmatli va ma'noli ma'lumotlarni topish;
- o'quvchilarda o'qish ehtiyojlarini shakllantirish

**Safo Matchon** fikricha, "kitobxonlik – o'qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki u tushunib o'qish, ya'ni maqsadli o'qishdir". Atoqli yozuvchi **X.To'xtaboev** kitobxonlik haqida shunday deydi: "Kitobxonlik kitobni targ'ib qilishgina emas,



balki kitob o'qishni, o'qiladigan kitobni tanlay olishni, mag'zini chaqishni, ya'ni kitob yordamida o'zini anglashni o'rgatish hamdir" Olimlarning fikriga tayanib aytadigan bo'lsak, kitobxonlik madaniyati – bu:

- o'quvchining kitob bilan madaniy aloqasini rivojlantirishning ma'lum bir darajasi;
- o'qilgan kitoblar mazmunini to'liq tushunish;
- yoshiga hos bo'lgan adabiy bilimlarning mavjudligi.

Kitobxonlik kompetentligi – intellektual qobiliyat va shaxsiy fazilatlar asosida shakllangan, o'quvchi va katta yoshli insonning umumiy shaxsiy sifati. Kitobxonlikning shu kabi o'ziga xos fazilatlar mavjud bo'lib, o'quvchilarda bu sifatlarni shakllantirish, yoshiga mos adabiyotlarni tanlab o'qitish juda muhimdir.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. *Kitobxonlik madaniyati deganda nimani tushunasiz?*
2. *Badiiy asarlar yosh avlod tarbiyasiga qanday ta'sir ko'rsatadi?*
3. *Kitob o'qish orqali insonda qanday ijobiy fazilatlarni shakllantirish mumkin?*
4. *Internet va texnologiyalar asrida kitobxonlikka vaqt ajratish qanchalar muhim deb o'ylaysiz?*
5. *Badiiy adabiyotlarning mavzu va muammolarini zamonaviy hayot bilan qanday bog'lash mumkin?*
6. *O'qish madaniyatini rivojlantirish uchun qanday mezonlarga amal qilishimiz zarur.*

### **Foydalaniladigan adabiyotlar:**

1. *Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. – Bolalar adabiyoti. Darslik / T.: "Sharofat-fayz", 2022. - 320 b.*
2. *Jamilova B. O'zbek bolalar adabiyoti. O'quv qo'llanma. T.: Innovatsiya-Ziyo. 2021. - 222 b.*
3. *Jamilova B. Bolalar adabiyotida poetik tafakkurning yangilanishi. T., 2022.*
4. *Sh.Karimova. Bolalar adabiyoti. Toshkent, "Pagesprint" nashriyoti, 2024.*



### 3-MAVZU: BADIY ASARDA MAZMUN VA SHAKL

#### Reja:

1. Bolalarga bag'ishlangan badiiy asarlarda shakl
2. Asarlarda mazmun-mundarija
3. Bolalar adabiyotida shakl va mazmun-mundarija masalasi

**Tayanch tushunchalar:** *shakl, mazmun, adabiy asar, g'oya, ijodkor, mavzu, abstraksiya, badiiy mazmun, syujet, kompozitsiya, ijod.*

Shakl va mazmun bir-birini to'ldiradi. Shakl mazmunni qanday qilib taqdim etishni, ifodalashni belgilaydi, mazmun esa shaklni aniqlaydi va unga chuqurlik kiritadi. Adabiyotda mazmun va shakl tushunchalari XVIII-XIX asr boshlaridagina bir-biridan farqlana boshladi. Lekin badiiy adabiyotga xos mazmun va shaklning o'ziga xos birligi bu ikki tomonni bir-biridan ajratgan holda o'rganib bo'lmasligini ko'rsatadi. Chunki adabiy asarning mazmuni, mohiyati uning shakli orqaligina yuzaga chiqadi. Voqelikda mavjud narsalarning bari o'zining tashqi ko'rinishi (shakli) va shu shakl orqali anglashilayotgan mohiyatiga (mazmun) ega. Shu bois ham "shakl" va "mazmun" kategoriyalari umumfalsafiy xarakterga ega bo'lib, ular voqelikni (narsani) idrok qilishda muhim ahamiyatga molik ilmiy abstraksiyalar sanaladi.

Masalan, qarshimizda stul turgan bo'lsa, biz uning shaklini ko'rib "stul", ya'ni, "o'tirish uchun mo'ljallangan moslama" deb aytamiz. Stulga xos bo'lgan tashqi ko'rinish uning shakli bo'lsa, mazmuni shu shakl ifodalayotgan "o'tirish uchun mo'ljallangan moslama" ekanligidir.



Ko'ramizki, shakl mazmunni ifodalaydi, mazmun muayyan shakldagina reallashadi, mavjud bo'la oladi.

**Gegel** fikricha, mazmun shaklsiz emas, shakl esa ayni vaqtning o'zida mazmunda mavjud bo'lib, unga nisbatan tashqi narsadir". Shundan kelib chiqib faylasuf shaklning mazmunga, mazmunning esa shaklga olib turishi haqida so'z yuritadi. Adabiy asar tarkibini tasniflashda biz mazmunning shaklni belgilovchilik xususiyati va badiiy ijod jarayoni algoritmini asos qilib olamiz. Shu asoslardan kelib chiqilsa, bizningcha, quyidagicha tasniflash to'g'ri bo'ladi: problema, tema, tendensiya, g'oya - **mazmun unsurlari**; til, ritm, obrazlar sistemasi, syujet, konflikt, kompozitsiya - **shakl unsurlari**.

Badiiy asar mazmunining salmoqdorligi, **I.Sultonga** ko'ra, "unda inson uchun, million-milion kishilar uchun muhim bo'lgan g'oyalarning mavjudligi" bilan belgilanadi. Darhaqiqat, chinakam badiiy asarda, uning katta yo kichikligidan qat'i nazar, bashariy qimmatga molik mazmun yotadi. Buning uchun ko'p narsa talab qilinmaydi: ijodkor chinakamiga his qilolgan voqeanigina yozishi, chinakam his etmoq uchun esa el ichida to'laqonli yashamog'i kerak. Shugina shart bajarilsa, yozganlari atrofida uchun, demakki, bani bashar uchun qimmat kasb etaveradi.

Boshqa har qanday narsa singari, badiiy asar ham shakl va mazmunning yaxlit birligidir. Shuning uchun "badiiy shakl", "badiiy mazmun" degan tushunchalarning atigi ilmiy abstraksiyalar ekanligini unutmasligimiz kerak. Ya'ni biz yaxlit butunlik - badiiy asarni atroficha tahlil qilish, bu ishni osonlashtirish maqsadidagina shu xil shartli bo'lishga yo'l qo'yamiz. Aslida esa, yuqorida ham aytdik, shakl mazmunsiz, mazmun esa shaklsiz mavjud emasdir. Zero, badiiy shakl badiiy mazmunning biz qabul qilayotgan mavjudligi bo'lsa, mazmun o'sha shaklning ichki ma'nosi, mag'zidir.

Badiiy asarda shakl va mazmun o'zaro dialektik aloqada bo'lib, ular bir-birini taqozo qiladi, bir-biriga ta'sir qiladi, bir-



biriga o'tadi. Badiiy shakl bilan badiiy mazmun munosabatida ham mazmun yuqoriroq mavqega ega bo'lib, u shaklni hosil qilishda juda faoldir. San'atkor ijodiy niyatidan kelib chiqqan holda bo'lg'usi asarning shaklini belgilaydi, yana ham aniqrog'i, bo'lg'usi asarning mazmuni uning shaklini belgilaydi. Masalan, jamiyatning joriy holatini badiiy idrok etish, u haqdagi hukmini badiiy konsepsiya tarzida shakllantirish va ifodalash maqsadini ko'zlagan ijodkor roman shaklini tanlaydi. Chunki ayni shu shakl ijodiy niyatda ko'zda tutilgan mazmunga har jihatdan muvofiq keladi va o'sha niyatning ijrosi uchun imkon beradi.

Shakl va mazmunning bir-biriga o'tishini bir asar doirsida ham ko'rish mumkin. Bunda endi badiiy asaming "sistema" ekani, har qanday sistema quyi va yuqori darajadagi strukturaviy bo'laklardan sathlardan iborat ekanligidan kelib chiqaraiz. Deylik, asarning istalgan parchasini o'qiganimizda bizga "eshitiladigan" nutqning moddiy tomoni (ritm, intonatsiya, vazn, qofiya) shu nutqiy bo'lak mazmuniga nisbatan shakl bo'ladi. Ayni choqda, nutq mazmuni kengayib borib ko'z oldimizda voqealarni namoyon etadi, ya'ni u endi syujetga nisbatan shakldir. O'z navbatida, syujet xarakter va sharoitni namoyon etish shakli bo'lsa, xarakter va sharoit asarning yaxlit badiiy konsepsiyasini ifodalash shaklidir.

Ko'ryapmizki, har bir yuqori sath o'zidan oldingi sathga nisbatan mazmun, quyidagisi esa o'zidan keyingisiga nisbatan shakl o'laroq namoyon bo'lar ekan. Shakl konservativroq hodisa bo'lganidan, o'zgarishga u qadar moyil emas, muayyan bir ko'rinishida uzoq yashovchanlik xususiyatiga ega. Mazmun esa o'zgaruvchanlikka moyil hodisa bo'ib, har bir badiiy asar mazmunan o'zicha originaldir. Sababi, o'sha asarni yaratgan ijodkor - individ, u dunyoni o'zicha ko'radi va baholaydi. Shunga ko'ra, hatto oshkor taqlidiy ruhdagi asar ham mazmunan original (originallik bu o'rinda ijobiy baho - o'ziga xoslik ma'nosida emas, balki boshqalarga aynan o'xshamaydigan degan ma'noda



tushuniladi) sanaladi. Masalan, hikoya badiiy adabiyotda o'zining asosiy shakliy xususiyatlarini saqlagan holda uzoq o'tmishdan beri yashab keladi.

E'tibor berilsa, mumtoz adabiyotimizdagi hikoyatlar bilan zamonaviy hikoya o'rtasida mushtarak nuqtalar borligini ko'rish qiyin emas, ya'ni o'tgan vaqt ichida sodir bo'lgan shakliy o'zgarishlar tublik emas. Holbuki, xuddi shu vaqt davomida ayni shu shakl doirasida minglab yozuvchilar ifodalagan turfa badiiy mazmunlarning son-sanog'iga yetib bo'lmaydi. Albatta, har bir hikoyaning shaklida ham muayyan o'ziga xosliklar kuzatiladi, biroq hikoyaga xos asosiy shakliy belgilar saqlanib qolaveradi.

Badiiy asar qimmatini belgilashda mazmun va shaklning uyg'un muvofiqligi eng muhim mezonlardan sanaladi. Badiiyat go'zal shaklda ifodalangan aktual, umuminsoniy qadriyatlarga mos mazmunni taqozo etadi. Adabiyotshunos badiiy asarni tahlil qilarkan, uning diqqat markazida shakl yoki mazmun turishi mumkin. Lekin asosan shaklga e'tibor qaratgani holda ham, adabiyotshunos uning mazmun tomonlarini nazardan soqit qilolmaydi; asaming mazmun jihatini tekshirayotgan olim ham o'sha mazmunning muayyan shaklda ifodalanayotganini unutmashligi shart qilinadi.

Modomiki, badiiy asarda shakl va mazmun uyg'un birikar ekan, shaklni badiiyat, mazmunni g'oyaviylik (bunda ham, albatta, shartlilik bor) hodisasi sifatida tushunib, har ikkisiga birdek e'tibor berish zarur, bu — adabiyotshunoslikning “oltin qoida”si sanaladi.

Badiiy asar mazmuniga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri ijodkor dunyoqarashidir. Inson voqelikni, unda yuz berayotgan hodisalarni o'zining dunyoqarashi bilan bog'liq holda ko'radi. Shunga ko'ra, biz “real voqelik” deb atayotgan narsa turli individlar ongida turlicha akslanadi va turlicha baholanadi, demakki, “haqiqat” tushunchasi nisbiydir. Bir davrda yashagan bir necha



ijodkorning bir xil mavzudagi asarida tamoman farqli g'oyalarning ilgari surilishi, voqelik ularda turlicha baholanishi mumkin va tabiiydir.

Ijodkor muayyan bir davr kishisi, u zamonasining muammolaridan forig' bo'lolmaydi, atrofida yuz berayotgan hodisalarga o'zining g'oyaviy hissiy munosabatini bildiradi - asarida ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarni oldinga suradi, asari bilan zamonasiga muayyan ta'sir o'tkazish maqsadini ko'zlaydi. Biroq mazmunning aktual qatlami uni aktual etgan ijtimoiy-tarixiy asoslarga yo'qolishi barobari yo'qolib boradi — endi asarning boshqa qatlamlari aktuallasadi. Shu bois ham konkret badiiy asarning turli davr o'quvchilari tomonidan turlicha tushunilishi mumkin bo'ladi. Zero, har bir davr asar mazmunining o'zi uchun ahamiyatli qatlamni aktuallashtiradi.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. *Shakl va mazmun nima va ular o'rtasidagi bog'liqlik nimadan iborat?*
2. *Badiiy asarda shakl va mazmunning muvofiqligi qanday ahamiyatga ega?*
3. *Badiiy asar mazmuni qanday tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi?*
4. *Shaklning mazmunga ta'siri haqida qanday misollar keltirish mumkin?*
5. *Shakl va mazmunning tarixiy va madaniy sharoitlar bilan bog'liqligi qanday namoyon bo'ladi?*

#### **Foydalaniladigan adabiyotlar:**

1. *Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. – Bolalar adabiyoti. Darslik / T.: "Sharofat-fayz", 2022. - 320 b.*
2. *Jamilova B. O'zbek bolalar adabiyoti. O'quv qo'llanma. T.: Innovatsiya-Ziyo. 2021. - 222 b.*
3. *Jamilova B. Bolalar adabiyotida poetik tafakkurning yangilanishi. T., 2022.*



4. *To'xtayeva N. Istiqlol davri o'zbek bolalar she'riyatining yetakchi xususiyatlari. Diss.avtoref. T., 2019.*
5. *Иброҳимова З. Кичкинтойлар адабиётининг хусусиятлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 120 б.; шу муаллиф. Қўвноқликка яширинган изтироблар. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2005. – 36 б.;*
6. *Bashorat Jamilova. Bolalar adabiyotida zamonaviylik. O'quv qo'llanma. Buxoro 2023 "Bukhara hamd print" nashriyoti uo'k 813.415.21*



## 4-MAVZU: O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA AVTOBIOGRAFIK VA BIOGRAFIK ASARLARNING KOMPOZITSIYASI VA TILI.

### **Reja:**

1. Bolalar adabiyotida avtobiografik asarlar
2. O'zbek bolalar adabiyotida biografik asarlar
3. Kompozitsiya va syujet va uning elementlari

**Tayanch tushunchalar:** *asar, kompozitsiya, qissa, syujet, yozuvchi, badiiy obraz, kechinma, personaj, adabiyot, biografik qissa, adabiy janr.*

Avtobiografik asar – (yun. Autos-o‘zim, bios–hayot, grafo–yozaman)–muallifning o‘z hayoti haqida izchil hikoya qilishiga asoslangan adabiy janr. Avtobiografik asar muallifi o‘z hayotini qaytadan yashab ko‘radi, uni bir butun sifatida idrok etishga intiladi. Avtobiografik asar aksar hollarda mualliflarning ijodiy yetuklik pallalarida, umrlari nihoyasida yoziladi. (mas. Oybekning “Bolalik” qissasi.) u memuar, kundalik va sayohatnomalarga o‘xshab ketsa-da, ulardan tubdan farq qiladi.

Jahon va rus adabiyotida ham muallif hayoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan voqealar, ijodkor yashagan davr, u voyaga yetgan muhit, oila a‘zolari va do‘stlarining realistik xarakteri kabilar avtobiografik qissalarning bosh xususiyati sifatida e‘tirof qilinadi. Rus adabiyotida ulug‘ adiblarning o‘z bolaligi haqidagi avtobiografik qissalar XIX asming ikkinchi yarmi, XX asr boslaridayoq alohida janr sifatida vujudga kelgan. Jumladan, L.N.Tolstoy, A.M.Gorkiy, I.A.Bunin, A.N.Tolstoy, A.Gaydar, K.Chukovskiy, S.Marshak, V.Katayev, V.Rasputin, V.Astafev kabi



adiblarning “bolalik”lari, eng avvalo, o‘z xalqlarining yosh avlodi, zamondosh kitobxonlari, qolaversa, dunyo bolalar kitobxonligida ham alohida ahamiyat kasb etadi. o‘zbek bolalar adabiyotida ham avtobiografik xarakterdagi sarguzasht qissalar dastlab, o‘tgan asming 30-yillaridan G‘afur G‘ulomning “Shum bola”si orqali boshlangan bo‘lsa, so‘ngra 60-yillardan Oybek, Abdulla Qahhor, Hakim Nazir ijodida namoyon bo‘ldi.

Oybekning “Bolalik” asari - “Xotiralarim” (1963), A.Qahhorning “o‘tmishdan ertaklar”i - “Sarguzasht qissa” (1979), H.Nazimning “Oq fотиha yoki bolalik sarguzashtlarim” - “Xotira-qissa” (1995) tarzida 114 nashr etilgan bo‘lsa-da, ular mohiyatan bir hodisa — adiblarning o‘z bolalik xotiralari asosidagi hikoyalardir.

Ijodkorning xotira, kundalik va yodnomalari, bu — oddiy qaydlardan iborat emas, albatta. Bunda ancha olis yillardagi voqealar, tafsilotlar ijodkorning sohir ko‘ngil tug‘yoni bilan qayta uyg‘onadi, umr yo‘llaridan ardoqlab olib o‘tgan, yuragining eng tubida mudom o‘ziga hamroh qilib yurgan kechinmalari qayta “tiriladi”, goh alam, goh shodlikda kechgan bolalik xotiralari muallif ko‘z o‘ngida yaqqol namoyon bo‘lgandagina ijodkor o‘tmish yodnomalarini marjon shodasidek ipga tizadi.

Shu sababli bu asarlarda voqealar bolalik xotiralari andozasi yanglig‘ tasvirlansa ham ularda yetuk iste‘dod sohiblarining nigohi sezilib turadi. Ayni paytda, yozuvchining badiiy niyatiga ko‘ra bunday qissalarda ham uslubiy jilolanish kuzatiladi. Zotan, S. Ayniyning “Eski maktab”, Oybekning “Bolalik” va Ch.Aytmatovning “Bolaligim” qissasi kompozitsion va mazmun ifodasi jihatdan yaqin bo‘lsa, “O‘tmishdan ertaklar” (A.Qahhor) va “Oq fотиha” (H.Nazir) qissalari fasllarga ajratilib, mustaqil syujetli hikoyalar tarzida berilishi bilan mushtarak. Ayni paytda, Oybek, A.Qahhor va Hakim Nazimning bolalik xotiralarida o‘sha yillardagi murakkab hayot, jamiyatning bolalikka munosabati, ijtimoiy tuzumdagi yaxshiyomon voqealar hikoya qilinadi.



Avtobiografik qissalarni o'rgangan **A.Abrorov** yozishicha, avtobiografik qissalar, o'z uslubiga ko'ra, **ikki turli** bo'ladi. Bir necha turdagi avtobiografik asarlarda yozuvchi o'z boshidan kechirgan voqea va hodisalarni, faktlarni boshqa badiiy obraz orqali tipiklashtiradi. Aniqrog'i, avtorning o'zi asarning markazida tursa ham, u boshqa nom bilan syujetda harakat qiladi.

Ikkinchi tur avtobiografik asarlarda muallif bosh qahramon sifatida o'z nomi bilan asarda mustaqil personaj bo'lib qatnashadi. Avtorning o'z hayotida yuz bergan voqea va faktlar, o'zi ko'rgan yoki ishtirok etgan epizodlar asarning asosiy materiali bo'ladi. O'zbek bolalar adabiyotida G.G'ulomning "Shum bola" qissasi birinchi turdagi avtobiografik qissa hisoblansa, yuqorida zikr etilgan asarlarni ikkinchi turdagi avtobiografik asarlarga kiritish mumkin. Chunki ularda muallifning o'zi mustaqil personaj — Sadridin, Musavoy, Abdulla, Hakimjon nomi bilan qatnashadi. Oybekning "Bolalik" qissasi avtobiografik xarakterga ega bo'lib, uning markazida yosh Musaning sarguzashtlari yotadi. Bola obrazining hayotdagi asosi adib Oybekning o'zidir. Asarda Musavoyning yetti yoshgacha bo'lgan davrdagi xarateri sho'xlik, tegajog'lik, tinib-tinchimaslik va o'yingaroqlikdan tashqari, ochiqko'ngil, dangalchi, o'tkir zehniligi oybekona tasvirga ega.

"Bolalik" qissasida Turg'un, A'zam, Ahmad, Qodir, Hoji, Sobir kabi Musavoyning tengqurlari va o'rtoqlarining obrazlari ham berilgan. Ularning har biri Bolalar adabiyotida janriy va shakily izlanishlar. O'z shaxsiy qiyofalariga ega. Oybek o'sha davr tashvishlari bolalar hayoti va taqdirida ham ma'lum darajada aks etganligini mahorat bilan tasvirlaydi. Qissadagi ko'pgina tafsilotlar, awalo, kichkina Musavoyning xotiralari ekanligi nazarda tutilsa, asl voqelik qanday bo'lsa, shundayligicha aks etgan deya olamiz.

A.Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" qissasi ham shu yo'nalishdagi asar. Unda ham ijtimoiy hayotdagi real voqealar, oilaviy-maishiy muammolar, o'tmish jamiyatdagi g'ayrinormal hodisalardan iztirob chekkan yosh ko'ngil tug'yonlari bayon



qilingan. Shu sababli unda o'tmish jamiyatidagi ijtimoiy adolatsizliklar bosh o'ringa chiqqanki, natijada, asarda bola Abdulla obrazi emas, inson taqdiri, ya'ni Abduqahhor (yozuvchining otasi) oilasi boshiga tushgan falokat va kulfatlar orqali xalqning ayanchli turmushi umumlashadi.

Avtobiografik asarlarning kompozitsiyasi, odatda, hayotning biron bir bosqichidan yoki biron bir o'zgarishdan hikoya qiladi. Bolalar adabiyotida avtobiografik asarlarning kompozitsiyasida quyidagi xususiyatlar ko'zga tashlanadi:

- **Kirish:** Avtobiografik asarlarning kirish qismida ko'pincha bolalar hayoti, ularning oilasi va yashash sharoiti haqida qisqacha ma'lumot beriladi. Bu o'quvchiga muallifning hayotiy tajribasiga kirib borishga yordam beradi.

- **Asosiy qism:** Bu qismda muallifning hayotidagi muhim voqealar, bolalikdagi tajribalar, darslar va sinovlar tasvirlanadi. Bolalar uchun, asosan, ularning o'z hayotiga o'xshash yoki ular uchun yangi bo'lgan holatlar va ijtimoiy muhit tasvirlanadi. Asosiy voqea yoki hodisalar bolalar uchun tushunarli, ammo chuqur o'ylab yozilgan tarzda bo'lishi kerak.

- **Natija yoki xulosa:** Avtobiografik asarlarning yakunida bolalar muallifning shaxsiy rivojlanishi va o'z-o'zini anglash jarayonini ko'rishadi. Yaxshi yakun, bolalarga o'z tajribalaridan saboq olishga yordam beradi.

Bolalar adabiyotida avtobiografik asarlar yozishda kompozitsiya va tilning aniq, oddiy va emotsional jihatlari ustuvor bo'lishi kerak. Bu asarni o'qish jarayonini osonlashtiradi va bolalarga o'z hayotlarida amalga oshirishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar haqida bilishga yordam beradi.

“Shunday qilib, — deydi adib avtobiografik qissaning yozilish sababini oydinlashtirib **A. Qahhor**, — bolaligimda zehnimga cho'kib qolgan xotiralar uyg'ondi, yuzaga chiqdi: o'sha vaqtdagi xalq hayoti ko'z oldimga keldi...” Darhaqiqat, yozuvchining o'zi



ta'kidlaganidek, o'tmish mavzusida "o'gri", "Bemor", "Anor" singari qator hikoyalarini uyg'oq xotiralar ta'sirida yozadi.

60-yillarda yozgan "Dahshat" hikoyasi uchun esa uydirmachilikka berilganlikda ayblanib, dashnomlar, "imzosiz, adressiz yuborilgan xat"larga javoban, o'z ko'zi bilan ko'rgan-kechirganlarini, o'tmish hayot lavhalaridan esida qolganlarini qalamga olish ehtiyoji tug'iladi. Qissaning gazeta va jumallarda e'lon qilingan Ba'zi parchalarini o'qigan tanqidchilar "Juda zulmatku, kitob o'quvchida juda og'ir taassurot qoldirmasmikan?" – degan tanbehlari sabab muallif kitobni

"O'tmishdan lavhalar" emas, "O'tmishdan ertaklar" deb nomlashni ma'qul ko'radi.

Shu o'rinda avtobiografik qissalaming **ikkinchi turi**, avtobiografik xarakterdagi asarlar, chunonchi, G'.G'ulomning "Shum bola", O'. Hoshimovning "Dunyoning ishlari" kabi asarlarda muallif obrazi tipiklashtirilganini qayd etish kerak; ammo yozuvchining obrazi mustaqil personaj sifatida ishtirok etishi, tarjimayi holi to'la-to'kis asar mazmuniga singdirib yuborilishi bu janr xususiyatlarini yaqqol namoyon qiladi. Endilikda, yodnoma, badia, xotira, kundaliklar ham adabiy janr sifatida avtobiografik qissa va avtobiografik xarakterdagi asariar bilan sintezlashib ketayotgani ma'lum. Darhaqiqat, bolalikka bag'ishlangan qissalaming aksariyati, eng avvalo, shu xalqning bolalar adabiyoti namunalari sifatida ardoqlanib kelinadi. Shunday ekan, avtobiografik qissalaming yodnoma va xotira, badialardan ayricha janriy-badiiy xususiyatlarini oydinlashtirish, xususan, qissachilik tamoyillarini tadqiq etishda narratologiya — bayonchilik uslubining o'ziga xos ko'rinishlariga alohida e'tibor qaratish muhim vazifaligicha qolmoqda.

Yana bir narsa: har bir avlodning o'z adabiyoti, adiblari bo'lganidek, yangi yuz yillik bolalar adabiyotida avtobiografik va biografik qissalaming betakror namunalari, tasvir va talqini yaratilishiga umidimiz katta. Ular nafaqat bolalar va kattalar



kitobxonligi uchun muhim, balki adabiy tadqiqotchilikda ham yetakchiligini ta'kidlash joiz.

Yangi o'zbek adabiyotida tarixiy asarlar yozish an'anasi o'tgan asming 20—30-yillaridan boshlangan. S.Ayniy, Oybek ijodida takomil topgan tarixiy-biografik qissachilik an'anasini XX asrning ikkinchi yarmida M.Osim, A.Muxtor, T.Malik, O.Muxtor, X.Sultonov kabi yozuvchilar davom ettirdilar. Natijada, adabiyotimiz tarixida, jumladan, bolalar kitobxonligida Abu Rayhon Beruniy, Abu Ah ibn Sino, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab kabi jahonga mashhur mutafakkirlar, shuningdek, Sharq tamaddunida munosib o'ringa ega qomusiy olimlar, sarkardalarning badiiy obrazlari talqin etilgan sara asarlar yaratildi.

Yaqin o'tmishimiz sahifalari esa A.Muxtor, O.Muxtor, T.Malik kabi yozuvchilar asarlarida o'z ifodasini topdi. Ijtimoiy-tarbiyaviy mazmundagi asarlar Vatanimiz o'tmishi, xalqimiz hayoti, mardonavor kurashi, ulug' siymolar amalga oshirgan ishlar, tarixiy sanalar to'g'risida bilim beradi.

Adabiyotshunos olimlar **N.Norqulov va M.Sattorovlarning** e'tiroficha: "Tarixiy-biografik asarning vazifasi faqat o'tmishda yashab o'tgan mashhur ijodkor yo olim, tarixiy real shaxs hayoti haqida xarakterli va muntazam ma'lumot berish bilangina cheklanganda, bu janrda ijod etuvchi adibning mehnati nisbatan ancha yengil ko'chardi. Ammo san'atkorning vazifasi bugina emas. Tarixiy-biografik asarda ham tarixiy-badiiy asarlarning barchasi uchun bo'lgani kabi, eng muhimi, davming ruhini bera o'lishdir". Tarixiy qissalar, ilmiy-nazariy ma'lumotlarga qaraganda ta'sirchan va tarbiyaviy-estetik ahamiyati ustivor ekanligini **S.Anorboyev** mulohazalaridan ham anglash mumkin. Uning e'tiroficha, 1940-yillarda hali adabiyot darsliklari va xrestomatiyalarda A.Navoiy haqida qisqacha biografik ma'lumotlar bocimagan bir paytda, olimlarning davriy matbuotda e'lon qilingan Navoiy hayot



yo'li, ijodining keng tahlili o'quvchilar ommasiga boy ma'lumot bera olgan.

Adabiyotshunos **A.Abrorovning** avtobiografik qissalar haqidagi fikrini tarixiy-biografik qissalarga nisbatan ham tatbiq etish mumkin. Bunday qissalarning ba'zilarida tarixiy shaxs boshidan kechirgan voqea-hodisalarni, dalillarni boshqa badiiy obraz orqali tipiklashtirish, badiiy to'qimaga asoslanish ustun bo'ladi. Masalan, T.Malikning "Qaldirg'och" (keyinchalik muallif bu asarni qayta ishlab, "Savohil" nomi bilan nashr qildi) biografik qissasi shu turkumga kiradi.

Ikkinchi xil tarixiy-biografik qissalarda esa bosh qahramon sifatida tarixiy shaxsning o'zi tanlanadi. Bunga A.Muxtorning "Buxoroning jin ko'chalari", M.Osimning "Zulmat ichra nur", "Yulduzlar sayri", "Singan setor", O.Muxtorning "Uchqur poyezdlar", X.Sultonovning "Saodat sohili" kabi tarixiy-biografik qissalarini kiritish mumkin. Mazkur qissalarda bosh qahramon sifatida tarixiy shaxslarning obrazlari (F.Xo'jayev, Alisher Navoiy, Ulug'bek, Mashrab, Sulton Jo'ra, Bobur) yaratilgan. Janr e'tibori bilan Mirkarim Osimning mumtoz adabiyot dahosi Alisher Navoiyning hayot va faoliyat yo'liga bag'ishlangan "Zulmat ichra nur" qissasi o'zbek adabiyotida yaratilgan birinchi tarixiy-biografik qissadir.

Adib dastlab, 1940-yilda Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida "Astrobod", "Alisher Navoiy va Darveshali", "Badarg'a", "Navoiyning xislatlari", "Ulug'bek va Navoiy" singari hikoya, tarixiy qissalar yoza boshlagan. Yozuvchi o'z tarixiy-biografik asarlarini, odatda, bu ulug' insonlarning tavallud ayyomining tantanalini nishonlanishi munosabati bilan sovg'a sifatida yaratgan.

Jumladan, "Jayhun ustida bulutlar" qissasi Abu Rayhon Beruniyning 1000 yilligiga, uch-to'rt biografik hikoyalardan tashkil topgan "Ibn Sino qissasi" Abu Ali ibn Sinoning 1000 yilligiga, "Aljabrning tug'ilishi" hikoyasi al-Xorazmiyning 1200 yilligiga bag'ishlab yozilgan. Shuningdek, adibning XV asr hayotiga oid "Zulmat ichra nur" qissasi atoqli shoir Alisher Navoiyning



525 yillik yubileyiga tortiq qilingan edi. O'smirlar va bolalarga bag'ishlangan bu asarda bobokalon shoirimiz hayoti va ijodiy faoliyatining barcha davri hissiy nozikliklari bilan yaxlit qamrab olingan.

Darhaqiqat, har qanday adabiy asarda avtobiografiklik unsurlari mavjud, chunki asar muallifning hayotiy tajribasi asosida dunyoga keladi: ijodkor hayotida yuz bergan Ba'zi voqealar, u guvoh bulgan holatlar, shular ta'sirida yuzaga kelgan uy- kechinmalar matnga singib ketishi tabiiy. Avtobiografik xarakterdagi asarda biografik unsurlar salmoqli o'rin tutgani holda, badiiy to'qima hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi .

Xullas, qariyb bir asr ilgari bolalar adabiyotidan keng o'rin olgan avtobiografik qissalar yangi mualliflar, kompozitsion va ifoda usullarining xilma-xilligi jihatidan takomillashib, yangilanib borishda davom etmoqda. "Avtobiografizm" endilikda nafaqat avtobiografik qissalarda, balki yozuvchi -mualliflarning deyarli har bir asarida o'ziga xos namoyon bo'layotgani anglashiladi.

Shuningdek, "biografizm" degan istilohni ham endilikda nafaqat biografik qissalarda, balki juda ko'p qissa, roman va hikoyalarda qahramonlarning yaqqol prototipi bo'lgan ijodkor zamondoshlari, yaqin qarindoshlari, umuman, ularga qadrdon insonlar siymosida namoyon ekanligi ayonlashadi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. *Avtobiografik va biografik asarlarning bolalar adabiyotida tutgan o'rni qanday?*
2. *Avtobiografik va biografik asarlarning asosiy farqlari va o'xshashliklari nimada?*
3. *Bolalar uchun yozilgan avtobiografik asarlarda real voqealar va badiiy to'qimalar qanday uyg'unlashadi?*
4. *O'zbek bolalar adabiyotida avtobiografik va biografik asarlarning tarixiy rivojlanishi qanday kechgan?*
5. *O'zbek bolalar adabiyotida qaysi avtobiografik va biografik asarlar mashhur va ular kompozitsiya jihatdan qanday yutuqlarga ega?*



## 5-MAVZU: ADABIY JARAYON VA BADIY TAFAKKURDAGI EVRILISHLAR

### Reja:

1. Hozirgi bolalar nasrining rivojlanishi va iunda janriy o'zgarishlar
2. Zamonaviy she'riyatning o'ziga xos shakllari va janriy yangiliklar
3. Yangi adabiy jarayonning bolalar adabiyotiga ta'siri

**Tayanch tushunchalar:** adabiy tur, adabiy jarayon, obraz, poetik tasvir, badiiy asar, ramz, tagma'no, realizm, romantizm, simvolizm, avangard, adabiy oqim, modern.

Istiqlolning dastlabki yillarida, bolalar she'riyatida ham tabiiyki, vatan, millat, erk va ozodlik mavzulari yetakchilik qilgan. Chunki bolalarning shu muqaddas tushunchalarga bo'lgan munosabatini shakllantirish, ular ko'ngiliga mehr, sadoqat, erk va tinchlikka shukronalik kabi tuyg'ularni singdirish muhim masala edi. Ayni paytda, ushbu mavzularga ham ochiq didaktika yo'li bilan emas, yuqorida ta'kidlanganidek, sof badiiyat tamoyillariga asoslangan yondashuv yetakchilik qila boshlagandi. Xususan, Miraziz A'zamning "Qizil quyosh" she'ridagi quyidagi misralar e'tiborni tortadi:

*Turing qani o'rningizdan,  
Turing, oppoq bolalar,  
Qizil quyosh chiqqanini  
Qutlamoqda dalalar .*

Shoir bolalarning rangin dunyosiga munosib poetik tasvirdan foydalanib o'ziga xos obraz yaratadi. Oq rangning poklik,



beg'uborlik, tinchlik ramzi; qizil rangning jo'shqinlik, hayot, tiriklik ramzi ekanligiga ishora qiladi. Bunday obrazli yondashuv, sodda so'zlar va qisqa misralar yosh kitobxon dilidan osongina joy oladi. She'rning xalq qo'shiqlari yo'lida yozilganligi, milliy qadriyatlar, xalqona ohanglarga hamohangligi mustaqillikning dastlabki yillaridanoq bolalar she'riyatida yangi poetik tafakkur shakllana boshlaganini ko'rsatadi.

Rustam Nazar ham istiqloq davri bolalar she'riyatiga yangicha badiiy tafakkur tarzini singdirishga, bolalik olamini yangicha ifoda rakurslarida idrok etishga, uni ma'naviy-ma'rifiy va ijtimoiy-estetik jihatdan boyitishga munosib ulush qo'shdi. Soir she'rlaridagi bolalar dunyosi uchun xarakterli bo'lgan poetik obrazlar mohiyatini ham ijtimoiy, ham estetik ma'no-mazmun bilan boyitishga xizmat qildi. Shu jihatdan shoirning "Bardosh haqida", "Bir qushcha", "Oriyat", "Zoologiya muallimining hikoyasi", "Sobiq piyoda", "Hamrohlar", "Qaltis o'yin" kabi she'rlari ibratlidir. Bu she'rlarga xos yetakchi xususiyatlardan birini obrazli ifodalar vositasida bolalarni hayotning murakkab so'qmoqlari sari otlantirish, ularga so'zning tag ma'no qatlamlari orqali ijtimoiy-estetik mazmunni singdirish, fikrchanlik, teran mazmun va jiddiy mavzularning qalamga olinishida ko'ramiz.

Buni shoirning o'zi ham e'tirof etib, "Men bolalar she'riyatini jiddiylashtirishga, unga kattalar adabiyotiga xos unsurlarni olib kirishga harakat qildim, deb yozadi. Shoir 'Oyoqsizlar' she'rida qumda sudralib borayotgan ilonni kuzatar ekan, noxush hisdan eti seskanib: Oyoqsizlar zaharli Bo'lar ekan-da!" degan xulosaga keladi. Ayni shu xulosa she'rning asosiy leytmotivini tashkil etadi va bolalarni mushohadaga undaydi. "Oyoqsizlar" so'zining she'rda qo'llangan "zahar" so'zi bilan aloqador ijtimoiy mazmuni haqida bosh qotirishga, ma'nosini anglashga chaqiradi. Shoir "Hamrohlar" she'rida ham bolalar uchun real voqelik bo'lgan oyoq va etik poetik unsurlarini obraz darajasiga ko'tarib, o'ziga xos ijtimoiy-falsafiy mazmun bilan boyitadi.



*Oyoqlar yo'l boshladi,  
Yuraverdi etikvoy.  
Yuraverdi demay g'ing,  
Uchrasa ham balchiq, loy.*

She'r davomida top-toza, gard yuqmagan oyoqlar loy va balchiqqa botgan etikni yo'lakda qoldirib, uyga o'zi kirib ketadi va shoir ushbu manzaradan nafaqat bolalar, balki kattalar uchun ham ibrat bo'larli ijtimoiy-estetik xulosalar chiqaradi:

*Goh hamrohlik boshqa-yu,  
Munosabat bo'lak- da:  
Loyga botgan Etikvoy  
Qolib ketdi yo'lakda!*

Shoirning topqirligi va mahorati kundalik turmushda ko'p uchraydigan oddiy voqealarni katta ijtimoiy-psixologik mazmunda badiiy idrok etishi va poetik ifodaga ko'chirishida namoyon bo'ladi. Eng muhimi shoir undan bolalarni o'ylashga, mustaqil fikrlashga undaydigan tarbiyaviy xulosa chiqaradi.

Bu tipdagi she'rlar bolalarni katta hayotda odamzodning turfa xil o'yinlari borligi, Ba'zilar mehnatkash, to'g'ri va halol bo'lishiga qaramay, ko'pincha qadr topmasligi, aksincha, o'zini zahmatkashning birodari deb ko'rsatgan soxta kimsalar qadr topib, ijtimoiy adolat tamoyillari buzilishi mumkinligidan ogoh etadi.

"Bardosh haqida ertak" she'rida tilga olingan sabr-bardosh tushunchasining butun mohiyatini anglab yetish esa bola uchun murakkablik qiladigandek tuyuladi. Shu boisdan bo'lsa kerak, shoir o'z ijodiy tamoyiliga sodiq qolib (ya'ni, bolalar adabiyotiga katta adabiyotga xos jiddiy mavzularni olib kirib), she'rni bola tilidan, obrazli tasvirlagan. Bu usul bilan bolalarning she'rda qalamga olingan mavzuni anglab olishlariga imkoniyat yaratgan.



Ertakning birinchi qismida haykaltaroshning ijod jarayoni-tosh yo'nishdagi mashaqqatli mehnati tasvirlanadi. Ikkinchi qismda esa haykalning bunyod bo'lishi, gavjum maydonda uning poyiga ta'zim bajo keltirish lavhasi beriladi. Beso'naqay toshlar sabr-toqat hamda haykaltarosh iste'dodi samarasi sifatida go'zal san'at obidasiga aylanadi:

*Ko'ring, toqat-sabrimiz*

*Mevasidir bu:*

*Endi aziz siymoga*

*Aylandik mangu!*

Yuqorida tahlilga tortilgan she'rlarning rang-barang talqinlaridan shoirning bolalar adabiyotiga bo'lgan estetik munosabatini ko'rishimiz mumkin. Rustam Nazar bolalar dunyosini katta hayotiy haqiqatlar bilan boyitishni, sirli, ramziy-majoziy mazmun bilan to'yintirishni istaydi. Shakl va ifoda yo'sinidagi soddalikdan murakkablikka, undan tagma'noli va mushohadakor badiiy talqin va tahlillarga o'tishni ma'qul ko'radi.

She'r mangulikka daxldor bo'lib qolishni istagan odam haykallardek mashaqqatlarga bardoshli bo'lishi kerakligi haqidagi hayotiy haqiqat bilan bola tilidan xulosalanadi. Ammo tanganing ikkinchi tomoni bo'lganidek, xalqimizda haykaldek qotma, degan maqol ham bor. She'r harakatsiz, bir joyda muqim turgandan umrni ezgu amallarga sarflamoq afzalroq degan mulohaza ham uyg'otishi tabiiydir.

Hech bir mubolag'asiz ta'kidlash joizki, bugun biz baquvvat o'zbek she'riyatiga egamiz. She'riyat Sharqda asrlar davomida adabiyotning asosiy turi sifatida yashagani boisi ham uning ildizlari bag'oyat teran. Ammo bugungi o'zbek she'riyati kechagi she'riyat emas, balki o'zining ko'pgina, xususan, shakliy-mazmuniy mundarijasiga ko'ra yangilangan poeziyadir.



Shu bilan birga, bugungi she'riyat kechagi she'riyatdan uzilib qolgan alohida hodisa ham emas. Ular o'rtasida vorisiylik, uzviylik davom etib kelayotir. Zamonaviy o'zbek she'riyati mumtoz va yangi o'zbek she'riyatining eng yaxshi an'analarini davom ettirgani holda jahon adabiyoti buloqlaridan ham suv ichayapti.

Tursun Ali, Bahrom Ro'zimuhammad, Faxriyor, Aziz Said, Go'zal Begim kabi o'zbek shoirlari (dunyoqarashlari, iste'dodlari va uslublaridagi jiddiy farqlarga qaramay) qaysidir ma'noda shu umumiy yo'nalishning ko'zga ko'ringan vakillaridir.

Ayni paytda, o'zbek she'riyatida an'anaviy yo'nalish halihamon tashabbusni o'z qo'lida tutib kelayotganini ta'kidlash joiz. Chunki bu yo'nalish xalq ruhi bilan, uning qiziqish, o'y va dardlari bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Shunga ko'ra, bu yo'nalish vakillarining ijod namunalari bir necha ming nusxada chop etilib, tez tarqalib ketadi. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Halima Xudoyberdiyeva, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Muhammad Yusuf, Mahmud Toir, Sirojiddin Sayyid, Iqbol Mirzo, Farida Afro'z bugun eng ko'p o'qilayotgan shoirlar. Matnazar Abdulhakim, Sa'dulla Hakim, Usmon Qo'chqor singari shoirlarning bitiklarida hayotiy tajribaning falsafiy mushohadakorlik bilan yo'g'rilishi natijasida vujudga kelgan poetik lavhalarga guvoh bo'layapmiz. Chorsham', Rustam Musurmon, Salim Ashur, Ikrom Iskandar, Qo'chqor Norqobilning keyingi yillar ijod namunalari o'zining pishiqchilik pallasiga kirganiga dalil.

Halima Ahmedova, Rahimjon Rahmat, Zebo Mirzayeva, Xosiyat Rustamovanning yaratayotgan ramziy she'rlari esa yangilanayotgan badiiy tafakkur mahsuli sifatida namoyon bo'lmoqda. Poytaxt, Qoraqalpog'iston va viloyatlarda ijod qilayotgan Abdulla Sher, Kenesboy Karimov, Baxtiyor Genjamurod, Enaxon Siddiqova, Odil Hotamov, Shafolat Rahmatullayev, Ismoil To'xtamishev, Xosiyat Bobomurodova, Xurshida, Nabi Jaloliddin, Halim Karim, O'roz Haydar, Ismoil Mahmud Marg'iloniy, Bahodir Iso, Gavhar Ibodullayeva, Zamira Ro'ziyeva, Maqsuda Egamberdiyeva,



Nosirjon Toshmatov, Jamoliddin Muslim, Jumagul Suvonova, Gulbahor Saidg'aniyeva, Dilfuza Komil, Muxtasar Tojimatova, Shodmon Sulaymon, Laylo Sharipova, Shermurod Subhon, Munavvara Qurbonboyeva, Zuhra Ochilova kabi shoirlarning uzoq-yaqinlardan jaranglayotgan ovozlari she'rparast dilimizni quvontirmoqda.

Xullas, bugungi o'zbek she'riyatida ana shu ikki yo'nalishning izlari ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Ammo bir narsa aniqki, bu yo'nalishlar doimo bir-biriga ta'sir qilib, bir-birini boyitib, to'ldirib boradi. Shunga ko'ra, deyarli hamma ijodkorlarda turli adabiy yo'nalishlar ohanglarini uchratish mumkin va bu tabiiydir. Chunonchi, zabardast shoir Rauf Parfining takrorlanmas she'rlarida an'ana va novatorlikka xoslik bir paytning o'zida baravar yashaydi. Yosh shoirlarning doimiy ustozlari Ikrom Otamurod qalamiga mansub qator doston va she'rlarda ham har ikki yo'nalishning o'ziga xos sintezini beyanglish ilg'aysiz. Dastlabki she'rlarida an'anaviy ohanglar yetakchilik qilgan G'ulom Mirzoning keyingi bitiklarida novatorlikka moyillik seziladi va hokazo.

She'riyatning bag'rida o'yinga xos xususiyatdan tashqari mehnat (ya'ni naf ko'rish) va sig'inish sifati ham mavjud. Chunki haqiqiy badiiy asar o'yin zavqi ila yaratilgani va xuddi shunga monand shavq bilan o'qilganidan tashqari, u yana mehnat-u zahmat bilan bino etiladi va o'quvchiga ma'naviy zavq (naf) ulashadi. Qolaversa, bunday asar inson qismatini o'ziga jo etgan yurakdan bir nido-iltijo yanglig' otilib chiqadi va o'quvchining ko'ngiliga singib ketadi.

Umuman olganda, yangi san'at, xususan, modern ruhidagi adabiyot ko'pincha o'yinga zeb beradi, natijada narigi ikkisi e'tibordan pinhonroq qoladi. An'anaviy adabiyot esa, asosan, san'atning foydalilik (ya'ni badiiy asarni o'qigan o'quvchi o'zi uchun hayotda kerak bo'ladigan nimanidir o'zlashtiradi) tomoniga diqqat qaratadi va bu yerda ham san'atning ikki sifati ma'lum ma'noda "unutiladi". Natijada na unisida va na bunisida ulug' olim Fitrat



aytmoqchi, “qonni qaynatguchi, singirlarni o‘ynatguchi, miyani titratguchi” kuchni sezmayсан, kishi. Hamma sifat birdaniga ishtirok etgan she’riyat bilan yuzma yuz bo‘lganimizda esa badiiy mo“jizaga duch kelgandek hayratga tushamiz, ruhan poklanamiz (katarsis), dunyoga bolaning sof nazari bilan boqa boshlaymiz.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. *Adabiy jarayon va badiiy tafakkurdagi evrilishlarni belgilovchi asosiy omillar nimalardan iborat?*
2. *Zamonaviy adabiy jarayonda an’anaviy va innovatsion yondashuvlar qanday uyg‘unlashmoqda?*
3. *Badiiy tafakkurning rivojlanishi o‘zbek bolalar adabiyotining janr va uslubiy boyligiga qanday ta’sir qilgan?*
4. *Mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida badiiy tafakkur qanday o‘zgarishlarga uchradi?*
5. *Adabiy jarayon rivojlanishida global madaniyat va texnologiyalar qanday rol o‘ynamoqda?*
6. *Biror adibning asarlarini tahlil qilib,uning ijodida adabiy jarayon va badiiy tafakkurdagi evrilishlarni ko‘rsating.*

### **Foydalaniladigan adabiyotlar:**

1. *Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. – Bolalar adabiyoti. Darslik / T.: “Sharofat-fayz”, 2022. - 320 b.*
2. *Jamilova B. O‘zbek bolalar adabiyoti. O‘quv qo‘llanma. T.: Innovatsiya-Ziyo. 2021. - 222 b.*
3. *Jamilova B. Bolalar adabiyotida poetik tafakkurning yangilanishi. T., 2022.*
4. *Sh.Karimova. Bolalar adabiyoti. Toshkent, “Pagesprint” nashriyoti, 2024.*
5. *To‘xtayeva N. Istiqlol davri o‘zbek bolalar she’riyatining yetakchi xususiyatlari. Diss.avtoref. T., 2019.*



### 6-MAVZU: BOLALAR SHE'RIYATINING MA'RIFIY, IJTIMOYIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI

#### Reja:

1. *Bolalar adabiyotida lirik tur va uning janrlari*
2. *Bolalar she'riyatining axloqiy-ma'rifiy-didaktik xususiyatlari*
3. *Bolalar she'riyatida ijtimoiy-estetik xususiyatlar*

**Tayanch tushunchalar:** *ma'rifiy she'r, badiiy tafakkur, estetik ta'sir, didaktik, folklorizm, ramz, timsol, tashbeh, poetik mazmun, estetik zavq, janr, motiv, poetik an'ana.*

Yangicha yondashuvlarga asoslangan istiqloq davri o'zbek bolalar she'riyatining takomili, badiiy tafakkurdagi yangilanish va ma'no-mazmun bilan boyishiga asos bo'lgan ijtimoiy-ma'rifiy, adabiy-estetik omillar nimalardan iborat? Bizningcha, ayni masalada quyidagi asosiy jihatlarga e'tibor qaratmoq kerak bo'ladi.

1. Jamiyatdagi tub o'zgarishlar tufayli vujudga kelib tobora barqarorlashayotgan ijtimoiy-psixologik yangilanishlar o'zbek bolalar she'riyati taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

2. Ijod erkinligi, milliy o'zlikni anglash yangicha ijodiy muhitning vujudga kelishiga badiiy tafakkurdagi evrilishlarga jiddiy turtki berdi.

3. O'tgan asrning 80-90 yillarida ko'plab iste'dod egalari - jonli bir to'lqinning adabiyot maydoniga kirib kelishi yangi tipdagi bolalar she'riyatining vujudga kelishi, sifat belgilari bilan boyishiga xizmat qildi. Zotan, ular o'z asarlari bilan badiiy tafakkurni izchil yangilay boshladilar.



Ushbu omillarning yuzaga kelishi, birinchi galda, mustaqillik arafasi va uning dastlabki yillarida hayotda ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan bog'liq. Bulardan tashqari, adabiy ta'sir, jahon adabiyotining nodir namunalaridan amalga oshirilgan va izchil davom etayotgan tarjimalar ham milliy badiiy tafakkur yangilanishidagi asosiy omillardan hisoblanadi.

Binobarin, shu kabi ko'plab ichki va tashqi omillarga ko'ra, istiqloq davriga kelib yangicha badiiy tafakkurni shakllantiradigan, yuksaltiradigan o'zbek bolalar she'riyatining vujudga kelish jarayoni boshlandi. "Istiqloq davrida xalqimiz tom ma'noda uyg'ondi, o'zligini qayta idrok etdi, ming yillik qadriyatlariga, e'tiqodlariga qaytdi.

Qayta uyg'onish jarayonida o'zbek bolalar she'riyatining ham kamtarona o'rni, o'ziga xos xizmati bor. Ushbu davr o'zbek bolalar she'riyatining eng sara namunalari shu ma'noda yosh avlod ko'ngilida istiqloq tuyg'ularining chechak ochishiga, haqiqiy, tom ma'nodagi ona Vatan-kindik qoni to'kilgan muqaddas zaminga mehr-muhabbat; ona zaminni, uning betakror tabiati ,qiradirlarini, tog'u o'rmonlarini, bog'-rog'larini, daryoyu ko'llarini avaylab asrashga, Vatanga, uning nomini olamga tanitgan buyuk farzandlari, mutafakkir olimu shoirlari, ulug' Turkiston yagonaligi uchun kurashgan sohibqiron tojdorlari sha'niga munosib farzand bo'lish ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi" .

Darhaqiqat, bolalar she'riyatida axloqiy-ma'rifiy ahamiyatga molik mavzularni kengroq va teranroq ifodalash kuzatilmoqda. Ushbu jihatdan Miraziz A'zamning "Qirq bolaga qirq savol", "Ona tilim", T.Adashboevning "Tuproq", "Ona tilim", "Zar uqali" she'rlari xarakterlidir. Jumladan, Miraziz A'zamning "Ona tilim" she'rida shunday misralar bor:

*Ona tilim, turkiy tilim,  
Ardoqligim o'zbek tilim,  
Avaylayman seni doim  
Qaboq ila ko'zdek tilim.*



Shoir bolaning ona tiliga bo'lgan mehrini oshirishda an'anaviy ta'riflarni qo'llash bilan birga Qaboq ila ko'zdek qadri ekanligini aytib ayricha xalqona poetik o'xshatish qo'llaydi. Insonning bir-biriga yaqin, biri ikkinchisini taqazo etuvchi eng nozik tana qismi hisoblangan qaboq va ko'z, har qanday noxush holatda ham himoyalanaadi. Demak, ma'naviy boyligimiz hisoblangan o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishi munosabati bilan yozilgan ushbu she'r ijtimoiy-axloqiy-ma'rifiy ahamiyat kasb etib, bolalarga tanish bo'lgan xalqona timsollar orqali ifodaga ko'chadi, tilning Davlat tili maqomida bo'lishi nima ekanligini bilmagan bolaga ham hissiy idrok orqali uning qadri anglatildi.

T.Adashboev esa ayni mavzudagi "Ona tilim" she'rida milliy tilimizning jarangi-yu go'zal fazilatlarini tavsiflash barobarida, uning Amir Temur, Mir Alisher Navoiy, Bobur Mirzolar ko'kka ko'targan, ulug'lagan, ijod qilgan til ekanligidan faxrlanish tuyg'usini ham singdiradi. Shoir ona tilini madh etishga shunchaki da'vat etmaydi, aksincha "til" so'zining nafis ifoda va serqatlam ma'nolaridan ijodiy foydalanib, tajnis san'atining go'zal va betakror namunasini yaratadi va poetik mazmunni kuchaytiradi:

*Bobur Mirzo she'rlaridan,  
Rang va ohang olgan tilim.  
Shunday tildan tonar bo'lsam,  
Yoki o'gay sanar bo'lsam,  
Qiyma-qiyma bo'lsin tilim,  
Ona tilim - jonu dilim.*

Tilni ardoqlagan lirik qahramon ko'nglidagi sha'n va g'urur, fidokorlik hamda samimiy tuyg'ular kitobxon ko'ngiliga ko'chib, ijtimoiy, axloqiy-ma'rifiy qimmat kasb etadi. Anvar Obidjon "Maktab" she'rida mustaqil yurt farzandlarini ilm olishga, buyuk ajdodlarga munosib bo'lishga, ularning olamshumul ishlarini



davom ettirishga chaqiradi. Bu bejiz bo'lmay o'tish davri ijtimoiy hayotida uchrovchi Ba'zi iqtisodiy tangliklar bolalarni maktablardan qisman uzoqlashtirgan edi. Ba'zi ota-onalar moddiy manfaatdorlik dardiga muhtalo bo'lib, maktab yoshidagi farzandlarini ham shunga jalb qilishga urinishgandi.

A.Obidjonning "Maktab" she'ri ana shunday kayfiyatdagi o'quvchilarga qaratilgan axloqiy-ma'rifiy da'vat edi, go'yo. Zotan, mustaqil yurt kamoli ajdodlariga munosib avlodlar - ziyoga tashna yoshlarga bog'liq ekanini anglatmoq ijod ahli zimmasidagi ulug' mas'uliyat edi. Buni yaxshi anglagan shoir:

*Baxtga narvon, bilimga kon erur maktab,  
Zakovat doniga xirmon erur maktab.  
O'g'il-qizlar, o'qing ulkan murod ko'zlab,  
Ziyo topmoq uchun imkon erur maktab.  
O'qing, minglab ahli dono kerak yurtga,  
Yana Bobur, ibn Sino kerak yurtga .*

deb yozadi.

Anvar Obidjon har bandning so'nggi misrasida Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, To'maris, Abdulla Qodiriy, Nodira, Cho'lpon singari buyuk allomalar, milliy qahramonlar, mustaqillik uchun jonini fido qilgan shoir-u adiblarimiz nomini tilga oladi, yurtga ulardek insonlar kerakligiga o'quvchini ishontiradi. Bobolariga munosib farzand bo'lishiga da'vat etadi. Baxtli kunlar uchun ajdodlar oldidagi qarzdorlik hissini eslatish uchun takrorlarga murojaat qiladi. Talmeh san'atining ishlatilishi she'rning badiiyatini yuksaltirib, estetik ta'sir kuchini oshiradi:

*Surib davron, Vatanda xon bo'ling doim,  
Qadoqqo'l bu elga darmon bo'ling doim.  
Shahar tiklang, oching dunyo sari yo'llar,  
Nomi besh qit'ada doston bo'ling doim.*



*O'qing, ongli qiz-u o'g'lon kerak yurtga,  
Qodiriy, Nodira, Cho'lpon kerak yurtga...  
Ma'rifatsiz elat maqsadga jam bo'lolmas,  
Ma'rifatli o'lka yotga qaram bo'lolmas.  
Agar maktab quyosh ersa, ilm nurdir,  
Fikrsiz bosh ichra hattoki sham bo'lolmas.  
O'qing, fikri yorug' avlod kerak yurtga,  
Va ertangi taraqqiyot kerak yurtga*

M.A'zamning “Qirq bolaga qirq savol” she’ri bu turkumning yanada yorqin namunasi bo’la oladi. Shoirning savollari ayni “aqli chaqqonroq, “mitti janoblar”ga mo’ljallab berilib, teran mushohada yuritishga da’vat etuvchi jumboqlardan iborat ekani bilan ahamiyatli. Shoirning she’riy satrlari orasidan savol qilib berilgan jummalarni aniqlashtirib olganda ham, ularga javob berish uchun kamida xalq va yurt tarixidan xabardor, turkiycha, o’zbekcha so’zlar va ularning serqirra ma’nolarini tushungan, o’tmish ajdodlarimiz, ulug’ mutafakkirlarimizni tanish, ulardan iftixor qilish tuyg’usiga xalq dostonlari, qahramonlari, buyuk sarkardalari haqidagi ma’lumotlarga ega bo’lish iymon va e’tiqod nimaligini anglagan, sobiq tuzum falokatlar va asoratlari haqida eshitgan, umuman, o’z yurti, xalqi, Vataniga doir qomusiy bilimlarni egallashga shay, idroki-yu tafakkuri uyg’oq ko’ngillar bo’lmog’i joizligi anglashiladi. Masalan, 4-savol shunday jaranglaydi:

*“Turkiston” qanday nom?*

*“Turon” qanday nom?*

*Bu ulug’ so’zlarni eshitganmisiz?*

*Eshitgan bo’lsangiz ma’nosini ham,*

*Maydalab, sinchiklab tekshirganmisiz?*

*Tekshirgan bo’lsangiz, ayting, bularning*

*Sizga aloqasi bor ekanmi sal?*

*Yo siz boshqamisiz, Turon boshqami?*



*Menga javob ayting, javobki tugal .*

*Yoki 8-savol:*

*Nega bizning yurtimizda*

*Ozod degan bola ko'p?*

*Ozod, Erkin, Hurriyat deb*

*Ot qo'yganda otalar*

*Ne xayolga borishdiykin?*

*Qaysi bola aytolar?*

Bugun bu savollarga javob berish oson tuyular. Ammo endigina mustaqillikka erishgan mamlakatning istiqboli qanday bo'lishi, o'z erkinligini mustahkamlay oladimi yoki bu juda qimmatga tushadimi, porloq istiqbolni orzu qilgan bilan o'zi paydo bo'ladimi, degan jumboqlar qalashib ketgan edi. SHu ma'noda ijodkorlar, jumladan, bolalar shoirlari katta jur'at va jasorat bilan uning kelajagini aniq tasavvur va bashorat qila oldilar, deyish mumkin. Abdurahmon Akbar she'rlarida jajji lirik qahramon Shuhratjon "Bir daftar savol" tuzib, ularni "Bekatda tug'ilgan savollar", "Yo'lda tug'ilgan savollar", "Maktabda tug'ilgan savollar", "Uyda tug'ilgan savollar" singari guruhlarga ajratib oladi. Ya'ni "Gulzor" deb nomlangan bekat atrofiga nega gul o'smasligi, bobosining bobosi kim bo'lganini, o'zbek degani o'ziga bek deganimi kabi mushohadalar yosh qahramonga tinchlik bermayotgani ayni tafakkurdagi evrilishlar natijasi edi. Yosh avlod ham shu tariqa kattalar bilan yonma-yon o'zgarayotgan yurt, jamiyat, dunyoqarashda faol ishtirokchi sifatida badiiy talqin etildi. Chunki A.Obidjonning "Jumboq" she'rida ta'kidlanganidek:

*Bu olamning jumbog'i ko'p,*

*Bu olamning so'rog'i ko'p,*

*Bu olamda savol cheksiz,*

*Bu olamda xayol cheksiz... ,*



- ekanligini mustaqillik yillarida katta-yu kichik teran his qilgani, ularga birin-ketin javob topish uchun bolalar shoirlari ham tinimsiz izlangani ayonlashadi. Xususan, ixchamgina she'rlarga zalvorli fikrlarni ortish an'anasi kengaydi, turli poetik ifodalarni yangilash orqali bolalar she'riyati yangi obrazlar, mazmun va shakl bilan boyidi. Bilimning kuch-qudrati nimalarda ekanligini, ajdodlarimiz ham ilm-ma'rifat orqali yurtimizni dunyoga tanitgani obrazli tasvirlarda beriladiki, o'quvchi undan ham estetik zavq, ham ma'naviy quvvat oladi.

Mustamlaka yillarida yo'qotilgan qadriyatlardan iftixor va kelajakka ishonch tuyg'ularini qayta tiklashda ushbu she'rning axloqiy-ma'rifiy-ijtimoiy ahamiyati nihoyatda kattadir. Shu bilan birga, o'sib kelayotgan yosh avlodni endilikda ko'proq mantiqiy bilimlar, insonning ruhiy kechinmalari, tabiat va jamiyat munosabati masalasi qiziqtirayotgani sir emas.

Adabiyotshunos R.Barakayev "Boshlang'ich sinflarda Anvar Obidjon ijodining o'rganilishi" maqolasida: "Yosh bola tabiatan xayollar ummonida suzishga, orzular qanotida parvoz qilishga moyil bo'ladi. Ulg'ayib qaysidir kasb egasi bo'lish, o'zi sevgan kasbni puxta egallab el-yurtga nafi tegishini xohlamaydigan, biror ishni qoyillatib bajarib, boshqalarni hayron qoldirishni istamagan bola bo'lmasa kerak" deydi va shoirning "Yaxshi niyat" she'rini tahlilga tortadi. Xayol surayotgan kichkina Avazga otasi (yoxud bobosi) "Qaylarga uchdi zikring?" deb savol berganida: U der: "Qaniydi bo'lsam Men quruvchi-kosmonavt. Qurar edim oyda ham Bog'cha, maktab, internat" deya javob beradi. Orzular olamida yashash bolalikning o'ziga xos jihati. Jahon bolalar adabiyotining eng go'zal namunalari ham romantik o'y-xayollar, bolaning fantastik tasavvurlari mahsuli bo'lgan asarlardir (Pushkinning "Tilla baliq va baliqchi chol haqida ertak" ini eslash kifoya).

Istiqloq davri bolalar she'riyatida xalq og'zaki ijodining, xalqona pedagogika va didaktikaning turli-tuman janr va motivlariga xos bo'lgan xususiyatlarning keng qo'llanilayotgani poetik an'ana



va vorisiylik tuyg'usining yashovchan xarakterini ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, bolalar uchun mo'ljallangan asarlarda milliy koloritning kuchayishiga, xalqona hikmatlar, matallar, maqollar, o'tkir iboralarning bolalar ongiga singishiga, pirovard natijada ularda milliy qadriyatlardan oziqlanuvchi go'zal fazilatlarining shakllanishi va yuksalishiga, nutqining boyishi o'zbekona tushuncha va atamalar bilan sayqal topishiga xizmat qiladi.

Shuning uchun istiqloq davri o'zbek bolalar adabiyotining kattagina qismini she'riy ertaklar tashkil etishi kuzatiladi. Anvar Obidjonning "O'g'irlangan pahlavon haqida ertak", "Odil Burgutshoh va "Zamburug" laqabli josus haqida ertak", "Bulbulning cho'pchaklari" kabi turkum she'riy ertaklari, yumorga boy she'rlari hamda "Meshpolvonning janglari" kabi ertak-dostonlari shular jumlasidandir.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. *Bolalar she'riyatining ma'rifiy xususiyatlari nimada namoyon bo'ladi?*
2. *She'rlar bolalarning ijtimoiy tarbiyasiga qanday ta'sir ko'rsatadi?*
3. *Bolalar she'riyatida ma'rifiy va estetik unsurlar qanday uyg'unlashadi?*
4. *Bolalar she'riyatining tili va badiiy obrazlar bolalar dunyoqarashini shakllantirishda qanday rol o'ynaydi?*
5. *O'zbek bolalar she'riyatida milliy qadriyatlar va ularning estetik ifodasi qanday aks etadi?*
6. *Ma'rifiy she'rlarni yozishda bolalar psixologiyasini hisobga olish qanday ahamiyatga ega?*



## 7-MAVZU: BOLALAR SHE'RIYATIDA IJODIY-USLUBIY IZLANISHLAR

### Reja:

1. *Bolalar she'riyatida ijodiy-uslubiy izlanishlarga omillar*
2. *Bolalar she'riyatida shakl va mazmunda yangilanishlar*
3. *She'riyatda ijtimoiy-psixologizm ko'rinishlari va uslub.*

**Tayanch tushunchalar:** *uslub, kitobxon, poetik obraz, manzara, she'r, yumor, estetik mazmun, eksperiment, dialiktik, poetik nigoh,*

Uslub ijodkor o'zligining namoyon bo'lishidir. Uslub adabiyotshunoslikda keng va tor ma'nolarda talqin qilinadi. Keng ma'noda biron-bir davr adabiyotiga xos bo'lgan va boshqa davrlardan farq qiluvchi o'ziga xos jihatlar - mavzular ko'lami, badiiy tasvir vositalaridagi o'ziga xosliklar, poetik obraz va timsollar yaratishdagi izlanishlar, mushtaraklik va badiiyatdagi boshqa o'ziga xosliklar nazarda tutiladi.

Tor ma'noda esa, uslub tushunchasi orqali muayyan ijodkorni boshqalaridan farqlantirib, ajratib turuvchi, faqat uning o'zigagina xos bo'lgan yozish manerasi nazarda tutiladi. Biroq shuni ta'kidlash zarurki, keng va tor ma'nolardagi uslublar o'rtasida muayyan darajada bog'liqlik mavjud. Chunki ma'lum bir davrda yashab ijod etgan qalam ahli o'z asarlari bilan o'zlari mansub bo'lgan davr adabiyotining yetakchi tamoyillarini, asosiy estetik printsiplarini, adabiy jarayon "ob-havo" sini yaratadilar va, ayni paytda, keng ma'nodagi uslubiy izlanishlarning mushtarak manzarasini belgilashga xizmat qiladilar. Shu ma'noda, uslubiy



izlanishlarda ham umumiylik bilan xususiylikning dialektik birligi o'z ifodasini topadi.

O'zbek bolalar she'riyatining o'ziga xosligi an'anaviy mavzularda yozilgan asarlarning ham poetik mazmuniga, ham badiiy ifodasiga ko'ra yangilanganligida ko'zga tashlanadi. Jumladan, bu davr bolalar she'riyatida sho'ro davriga xos bo'lmagan topqirlik - manzara she'rlar, rasmi she'rlar, savolli she'rlar, raqamli she'rlar kabi bir qator ijodiy izlanishlar, adabiy eksperimentlar amalga oshirildiki, bu hol bolalar shoirlari poetik nigohi o'tkirlashib shakliy-uslubiy izlanishlari salmog'i ortib borayotganidan dalolat beradi. Shu jihatdan, Dilshod Rajab, Abdurahmon Akbar, Rustam Nazar, Z.Isomiddinov, U.Shukurov kabi shoirlarning poetik izlanishlari ayniqsa xarakterlidir. Dilshod Rajabning manzara she'rlarida favqulodda topqirlik yaqqol ko'zga tashlanadi. U qalamga olinayotgan mavzuning eng xarakterli jihatlarini badiiy obraz darajasiga ko'tarib, yumor bilan katta estetik mazmunni yengil va ta'sirchan tarzda yosh kitobxon ko'ngiliga yetkaza oladi. Shoir she'rlarini o'qigan yosh kitobxon o'zi har kuni ko'rib-bilib yurgan, lekin deyarli e'tibor bermagan Ba'zi narsa-hodisalarning favqulodda nafis va topqirlik bilan chizilgan manzaralaridan hayratga tushadi.

Muhimi shundaki, bu manzaralar shunchaki chizilmaydi, balki ularga salmoqli ijtimoiy-estetik vazifa singdirilgan bo'ladi. Shu tariqa, bolalarga atalgan, sirdan qaraganda "quvnoqqina" she'r o'ziga xos tarzda falsafiy mazmun bilan boyitilganligini kuzatamiz. Shu jihatdan shoirning "Baxshi bola - yaxshi bola" saylanmasiga kiritilgan bir turkum she'rlari xarakterlidir. "Kuz", "Chanoq", "Xirmon", "Kimga ish, kimga olqish", "O'q haqida", "Ohu", "Qun botgach" kabi she'rlar, shuningdek, "Uchqunbekning savollari", "Fikratjonning fikricha", "Shikoyat daftari" turkumlaridagi she'rlari ayni shu xususiyatlari bilan e'tiborni tortadi. Shoir "Kuz" she'rida mazkur faslga xos bo'lgan tabiat o'zgarishlarini bolalar kundalik hayotida tez-tez uchrab turadigan "urush-urush"



o'yiniga shakli va mazmuniga qiyosan, bolalar tasavvuriga monand tarzda tasvirlaydi: kuz bostirib kirgach, daraxtlar alvon barglari - "bayroqlarini" yerga tashlab "asir" bo'lishadi. "Uzum dorga osiladi", olma, anor, noklar barchasi yashikka teriladi. Ko'pgina sabzavot mahsulotlari o'ralarga "avaxta" qilinadi. She'rda kuz fasliga xos yig'im-terim ishlari jang manzarasiga monand tasvirlanadi.

Biroq she'rning yakuni kutilmagan, ya'ni bolalik olamiga xos bo'lgan quvnoq manzara bilan xotimalanadi: Bu g'alaba Kuzniki, Endi mazza bizniki! Shoirning "Chanoq" she'rida ham ushbu xususiyatni ko'rishimiz mumkin. She'r to'rt qatordan iborat bo'lgani uchun uni to'liq keltiramiz:

*Suluv terimchi qizlar  
O'tar dog'da qoldirib  
- Angrayib qarab qolar,  
Og'zidagin oldirib ("Baxshi bola - yaxshi bola").*

Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, o'zbek bolalar adabiyotida paxta va uning chanog'i bilan bog'liq she'rlar ko'plab yaratilgan. Bu tipdagi asarlarda ilgari, asosan, mehnatsevarlik motivlari ilgari surilar, bolalarning paxta bilan faxrlanishlari, mehnat qilib charchamasliklari, kichkintoylarning chanoqda qolib ketgan yoki yo'l chetiga to'kilgan momiqlarni terib xirmonga topshirishlari, shu tariqa davlatga "oq oltin" topshirish rejasining vaqtida bajarilishiga munosib ulushlarini qo'shganliklari ibrat sifatida targ'ib etilardi.

O'tgan asrning 80-yillarida H.Imonberdiev "Chanoq" she'rini yaratib, unda paxtasi terib olingan chanoqni besh bahoga qiyoslab, bu turkumga oid she'rlarning poetik mazmunini ma'lum darajada yangilashga uringan edi. Lekin bu she'rda ham o'sha davrga xos axloqiy-ma'rifiy-didaktik mazmun ("besh" baho) yetakchilik qilgani kuzatiladi. Dilshod Rajab esa yuqoridagi badiiy talqinlardan tamoman farqli tarzda chanoqning o'ziga xos poetik obrazini



yaratadi: she'rd a suluv terimchi qizlarning chaqqon harakatlariga, mehnatiga lol qolib, og'zidagini oldirgan chanoqlarning "angrayib qolgan" o'ziga xos surat holati chiziladi. Bu manzara kitobxonda favqulodda zavq-shavq uyg'otishi barobarida kitobxonni hushyorlikka ham undaydi.

Aslida, shoirning poetik topqirligi ham shu nuqtada namoyon bo'ladi. "Xirmon" she'rida ham dehqonchilikda ishlatiladigan ish buyumlari - ketmon, o'roq, xaskash, panshaxalarning o'ziga xos yumoristik obrazlari chiziladi va ularning harakatlari orqali bug'doyning ekilishidan tortib, xirmon bo'lib sovurilishigacha bo'lgan barcha jarayonlar ixcham satrlarda poetik manzaralashtiriladi.

Bu o'rinda shoir quvnoq yumor orqali o'roq, xaskash, panshaxa detallarini o'ziga xos mehnatkashlik timsoli tarzida gavalantiradi. Ketmon bug'doyni ekadi, u pishib etilgach, o'roq uni o'rib beradi, xaskash esa uyib xirmon qiladi. O'roqda yo'q, mashoqda yo'q panshaxa esa kutilmaganda paydo bo'lib: Shuncha xirmonni kelib Zumda elga sovurdi ("Baxshi bola - yaxshi bola"). Ko'rinib turibdiki, shoir "O'roqda yo'q, mashoqda yo'q, xirmonda hozir" xalq maqolini she'rning mazmuniga ustalik bilan singdirib yuborgan va muhimi, uni mehnat jarayonining poetiklashgan manzarasiga muvofiq tarzda ifodalashga erishgan. She'r ayni shu jihatlari bilan kitobxonda quvnoq tuyg'ular hosil qiladi, uni g'ayrat ko'rsatishga undaydi. Dilshod Rajab "Kimga ish, kimga olqish" she'rida ham tabiat fasllaridan jozibali qiyoslar topib, ulardan ustalik bilan foydalanadi, poetik mazmuni o'ziga xos va ta'sirchan ifodalashga erishadi.

Aslida, tabiat tasviri bolalar adabiyotining azaliy mavzularidan biri bo'lib, Quddus Muhammadiy, Qudrat Hikmat, Po'lat Mo'min, Zafar Diyor va boshqa ko'plab bolalar shoirlari turli davrlarda ushbu mavzuda she'rlar yaratishgan.

Manzara she'rlarning go'zal namunalarini iste'dodli bolalar shoiri T.Adashboev ijodida ham kuzatish mumkin. Shoir ayni



uslubda 80-yillardayoq bir turkum she'rlar yaratgan edi. "To'rt fasl" she'ri esa ana shu turkumning eng yaxshi namunalaridan biridir. Biz ushbu she'r tahliliga kirishishdan avval, shuni ta'kidlab o'tishni kerak deb bilamizki, mazkur she'rning Dilshod Rajabning "Kimga ish, kimga olqish" she'ri bilan talaygina o'xshash jihatlaridan ham ko'z yumib bo'lmaydi. Ya'ni, har ikkala she'rda ham yilning to'rt fasli tilga olinadi va har ikkalasida ham yil fasllariga xos xususiyatlar alohida-alohida ta'kidlanadi.

Biroq biz uchun ikki davrda: T.Adashboevning istiqloldan oldin yaratilgan "To'rt fasl" she'ridan Dilshod Rajabning istiqlol yillarida yozilgan "Kimga ish, kimga olqish" she'rigacha bo'lgan uslubiy o'zgarishlar-tasvir vositalaridagi, mavzuga yondashuvdagi tabiat hodisalari tasviri orqali umumlashtirilgan mazmunga'oyani ifodalash tarzidagi yangilanishlar, o'sish-o'zgarishlar ko'proq e'tiborlidir. Jumladan, tadqiqotchi B.Ashurov "Tursunboy Adashboevning poetik mahorati" monografiyasida shunday yozadi: "T.Adashboevning yil fasllari va tabiat manzaralari tasviriga bag'ishlangan asarlaridagi turli badiiy san'atlarni mohirona qo'llashga asoslangan tasvir uslubi manzara mukammalligi va jonliligini oshiradi, yuksak badiiyatni ta'minlaydi, shoir tasvirlagan manzaraning yosh kitobxon ko'z o'ngida yorqin namoyon bo'lishiga olib keladi". Shuningdek, B.Ashurov tabiat manzaralari tasvirlangan T.Adashboev she'rlarining tarbiyaviy ahamiyatiga xos: go'zallikning qadriga yetish, tabiatni asrab-avaylash, ona tabiat qadriga yetish kabi jihatlarni ham alohida ta'kidlaydi. Anglashiladiki, "To'rt fasl" she'ri T.Adashboev ijodining ham, sobiq sho'ro davri o'zbek bolalar she'riyatining ham tipik namunasi bo'lib, unda shoirning individual uslubiga xos: beozor kulgi, yengil kinoyali imo-ishora, ijtimoiy ziddiyat - illatlarni chetlab o'tish, ravnok, soddalik, samimiy talqin singari xususiyatlar o'zida istiqlolgacha bo'lgan bolalar she'riyatining yetakchi uslubiy fazilatlarini namoyon etadi.



Darhaqiqat, tabiatdagi, ichki kurash, ayovsizlik, shafqatsizlik (qishga xos), isyon, yangilanishga intilish bilan bog'liq ziddiyatlar (bahor havosi) tasviri orqali jamiyatdagi qarama qarshiliklarga ham ishora qilish uslubi nafaqat T.Adashboev ijodiga balki, istiqlolgacha bo'lgan butun o'zbek bolalar she'riyatiga ham xos uslubiy xususiyatlardir. Bu hol bir tomondan, o'sha davr adabiy-siyosiy talablari bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi jihatdan, tabiat hodisalariga kutilmagan rakurslardan yondashish, ularni poetik obraz darajasiga olib chiqib gavalantirishdek adabiy-badiiy, uslubiy-estetik tajribalarning hali shakllanish bosqichida ekani bilan izohlanadi.

Rustam Nazarning "Yerdagi quyosh" saylanmasiga kirgan "Bahor keldi" she'ri ham yangicha uslubiy izlanishlarga, poetik topilmalarga boyligi bilan ajralib turadi. Shoir bahor va qishning tasvirini yoritishda bolalar olamiga yaxshi tanish bo'lgan holat-vaziyatlardan foydalanadi. Qishning bahorga o'chakishib qilgan to'poloni-yu, qo'rqib qochishi bolalarga tanish, o'zlarining tabiatiga yaqin odatlar hisoblanadi. Shoir qishning qochishiga sabab bo'lgan yana bir hayotiy dalilni quyidagicha tasvirlaydi, poetic suratini chizadi:

*Ko'rgandi son-sanoqsiz  
Kurtaklarning mushtini,  
Yoki uning diliga  
Shundan hadik tushdimi?!*

Odatda, shoirlar daraxtlarning uyg'onishi - kurtak otishini nafis va go'zal ohanglar orqali tasvirlashga urinishadi. Biroq, Rustam Nazar tabiatdagi ushbu yangilanish va yasharishni she'r mazmuniga qish va bahorning kurash hamda bahsi tarzida badiiy idrok etib, an'ana mazmuniga yangi poetik kiyim kiydiradi. Zero, bahor va qishning kurashi yana bir hodisaning yuzaga kelishida -



daraxtlarning kurtak otishi, kurtaklarning mushti tirilishiga sabab bo'ladi. Shoir shu tarzda poetik ifodaning yangilanishiga erishadi.

An'anaviy mavzularga yangicha yondashuv deganda, beixtiyor alifbo-she'rlar ham ko'z oldimizga keladi. Zero, bunday axloqiy-ma'rifiy she'rlar XXI asr boshlari bolalar adabiyoti namunalaridayoq ko'zga tashlanà boshlagan edi. Barcha davrlarda shoirlarning eng sevimli mavzusi, bolajonlarning esa ko'p bora murojaat etib yod oladigan, savodxonligini oshirishga qaratilgan she'rlari sirasiga kiradi.

Adabiyotshunos R.Barakayev "Alifbo-she'r va o'zbek bolalar she'riyatining ma'rifiylik xususiyatlari" nomli maqolasida "...Shermuhammad Munisning XIX asr boshlarida yaratilgan "Savodi ta'lim" risolasi bolalarga mo'ljallab asar yaratish yo'lidagi ilk izlanishlardan biridir. Zero, xat bitishni o'rganish ishtiyoqidagi shogirdlariga chiroyli yozuvni o'rgatish orzusidagi muallif qo'lga tushib qolgan chiroyli yozuv qoidasi xususidagi risolani nazmga solish asnosida "Savodi ta'lim" maydonga kelganini asar boshidayoq ta'kidlaydi. Muallif arab alifbosidagi deyarli barcha harflarga ta'rif-u tavsif beradi.

Mumtoz adabiyotimizda ma'shuqa go'zalligini arab alifbosi harflariga qiyoslash an'anasi mashhur bo'lsa, Munisning harflarni yosh kitobxonlarga tanish turli narsalarga, masalan, "zo"ni qushga, "shin"ning egriligini tig' (qilich)ga va naddof (to'quvchi)ning kamoniga o'xshatishi ushbu an'ananing o'ziga xosko'rinishi tarzida namoyon bo'ladi. Shuningdek, "Savodi ta'lim" yuqoridagi singari jihatlari bilan o'zbek bolalar she'riyatida yosh kitobxonlarga mo'ljallangan ta'limiy asarlar, xususan, alifbo-she'rlar ibtidosini tashkil qiladi, desak, yanglish bo'lmasa kerak", - degan mulohazani ilgari suradi.

Adabiyotshunos alifbo-she'rlarning Sulton Jo'ra ("Harflar paradi"), Shukur Sa'dulla ("Alifbe"), Adham Rahmat ("Alifbe"), Quddus Muhammadiy ("Harflar o'yini"), kabi ijodkorlar tomonidan



XX asr o'zbek bolalar she'riyatidagi eng yaxshi namunalari yaratilganini e'tirof etib, "XX asrning 80-yillariga kelib o'zbek bolalar she'riyatida alifbo-she'r yaratish an'anasini T.Adashboyev Jovanni Rabonining "Qaysar raqamlar" she'riga javoban yozilgan "Harflarning sarguzashti" ertak-she'ri bilan yangi pog'onaga ko'tardi", - deb yozadi.

Demak, ilk maktab darsliklaridan boshlangan an'ana keyinchalik izchil davom ettirilgan. Mustaqillik yillarida ham ushbu an'anaviy mavzuga yangicha yondashuvlarni kuzatishimiz mumkin. Xususan, Anvar Obidjonning "Harflar nimaga o'xshaydi?", Olqor Daminning "Quvnoq "Alifbe", Kavsar Turdiyevaning "Alifbo olamiga quvnoq sayohat", Dilshod Rajabning "Qiziq alifbo", Zikrilla Ne'matning "Vatan alifbosi qo'shig'i" she'rlari shular jumlasidan.

Zamonlar o'zgarishi, yozuvning almashinishi alifbo-she'rlarga bo'lgan ehtiyojning ham yangilanib borishini taqozo qiladi. Shuningdek, bu jarayonda har bir davr kitobxonining talab-ehtiyojlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. "Alifbo-she'rlarga muayyan davrlar oralig'ida talab paydo bo'lishi tabiiy hol.

Masalan, XX asrning 30-yillari oxirida yaratilgan alifbo-she'rlar 60-yillar yosh kitobxoni talabiga to'la javob berolmaydi. Binobarin, avlodlar almashinuvi bilan bir zamonlarda yaratilgan alifbo-she'rlar eskirib, ularning o'rniga yangilari yaratilishi shu bilan izohlanadi," - deb yozadi. Olqor Damin "Quvnoq "Alifbe"" asarida har bir harfga bolalarga tanish bo'lgan hayvonlar, sabzavot va mevalar haqidagi xarakterli to'rt misrali jajji kichik she'rlar bag'ishlaydi.

*U  
Uzumlarning uzumi  
- Husayniman Husayni!  
Dugonaman qizlarga,  
O'g'illarga og'ayni.*



Dilshod Rajab esa nomi muayyan harflar bilan jonivorlarni tasvirlar ekan, misralardagi soʻzlarni oʻsha harf bilan boshlash orqali harfiy takror asosida taʼkidni kuchaytiradi. Birinchi sinf bolasi tasavvuriga mos “ukki” va “buzoqcha” obrazlarining oʻz tabiatiga monand yoki nomuvofiq xatti-harakatlarini jonli tasvirlash orqali kulgili holatlar yaratadi:

*U  
Uchqur uchuvchi  
Ukki Uzoq-uzoqqa uchdi.  
Uloqcha uchaman, deb,  
Uzala yerga tushdi.  
U yon-bu yon boqib soʻng  
Uf tortdi tushib choʻkka:  
“Uchqur qanotim boʻlsa,  
Uchardim men ham koʻkka”.*

Mustaqillik yillarida yaratilgan alifbo-sheʼrlar oʻz axloqiy-maʼrifiy xarakterini saqlagan holda sof badiiyat namunalariga ham aylanib bormoqda. Ular bolalarga estetik zavq beradigan, dunyoqarashini kengaytiradigan poetik topilmalar bilan boyimoqda.

Zikrilla Neʼmatning “Vatan alifbosi qoʻshigʻi” asarida ham alifbo-sheʼr mavzusiga yangicha yondashuvni kuzatamiz. Shoir vatan mavzusini oʻziga xos yangicha poetik uslub va shaklda tasvirlaydi. Vatan madhi tasvirini yetakchi oʻringa chiqarib, alifbo turkumidagi sheʼrlar mazmuniga yangilik kiritadi. Ikki tushunchani uygʻunlashtiradi. Ifodaning yangiligi alifbo tartibi boʻyicha har bir harfga mos soʻz va poetik ohangning topilganida koʻrinadi.

Taʼkidlanganidek, bolalar adabiyotida alifbo sheʼrlar koʻplab uchraydi. Jumladan, Kavsar Turdieva, Dilshod Rajab, Abdurahmon Akbarlar ijodida kuzatiluvchi alifbo sheʼrlar oʻzining mavzu va



ifodasiga ko'ra bir-biriga o'xshamaydi. Zikrilla Ne'matning so'z yuritilayotgan she'rida esa bolalarning alifbo kitobidan olgan bilimlari mustahkamlanishi bilan bir qatorda, vatan tushunchasining mazmuni ham teran anglanadi.

Murg'ak ko'ngilli kichik kitobxonlarga vatanparvarlik ruhi alifbo sabog'i bilan uyg'un singdiriladi. Shoir bir qator she'riy san'atlardan, jumladan, talmeh, tashbeh, tanosib (ayniqsa, tanosib - bir biriga uzviy aloqador so'zlardan tabiat tasvirini ifodalashda o'ziga xos obrazli lavha yaratgan) kabilardan mohirona foydalanib, she'rning badiiy va estetik qiymatini oshirishga erishgan. Talmeh she'riy san'ati vositasida xalqimizning qadim o'tmishiga, tarixiy shaxslar, ma'naviy merosimizga ishora qilinadi va shu yo'l bilan yosh avlod ko'ngilida milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini yuksaltirishga erishiladi:

A  
*"Avesto" ni o'qib kuch oldim  
Ajdodlarning ko'ngil sadosidan.  
Aziz Vatan, men uchun o'zing  
Abadiyat alifbosisan .*

Shoir aziz vatanni "abadiyat alifbosi" deya ta'rif etar ekan, vatan tushunchasiga yangicha falsafiy-poetik ma'no yuklaydi. Demak, inson uchun vatan - abadiyat ilmidir. Bu ilmni o'rganish nafaqat millat tarixini, balki o'zlikni anglashga ham yordam beradi. Lirik qahramon nomus-u or, mardlik shiddatini Najmiddin Kubrodan o'rganganini ta'kidlaydi.

Ma'lumki, Najmiddin Kubro ulug' shayx va donishmand bo'lib, hatto nuroniy yoshda bo'lishiga qaramay, aziz vatanini mo'g'ul bosqinchilaridan mardona himoya qilib qahramonlarcha jon bergan. Demak, uning bu jasorati va vatanparvarligi yosh avlod uchun bir umr ibrat namunasi bo'ladi.



Shuningdek, “Vatan alifbosi” she’rining “S” harfiga bag’ishlangan to’rtligida ham talmeh she’riy san’ati vositasida buyuk ajdodlarimizning o’lmas qiyofasi gavdalanib, nafaqat ulug’ ajdodlarimiz va qahramonlarimiz nomi bilan tanishtirib boriladi, ayni paytda, bolalar ular ruhidan ma’naviy quvvat ham olishadi.

*S  
Siyovushdan meros qo’rg’onim,  
Sarhadlaring tinch-omon bo’lgay.  
Sohibqiron sha’niday shonim,  
Salobating dilga o’t solgay.*

She’rda tabiat tasviriga alohida e’tibor qaratiladi. Ayniqsa, jannatmakon yurtimiz jamolini tavsiflashda tabiatning go’zal tasviri vatan tushunchasi bilan uyg’unlashib ketadi. Vatanni abadiyat alifbosiga, dildagi sajdagohga, erk qo’rg’oniga, gullarga kon qadim makonga, oftob yurti - tengsiz bo’stonga, mangu porloq quyoshga, lolazorga, rizvon bog’iga qiyos etsa-da, lirik qahramon unga munosib timsol topa olmaganidan ozurda bo’lib, ona vatanidan bu no’noqligini kechirishni iltijo qiladi.

Ona yurtimizni erkin, baxt o’lkasiga, ezgulik malikasiga, ozodlik qo’rg’oniga qiyos etgan shoir o’quvchi ko’ngilida vatanga muhabbat ruhini jo aylabgina qolmay, ezgulik urug’i ko’karishiga ham yordam beradi. Ko’rinib turibdiki, “Vatan alifbosi” she’ri bolalar intellectual-aqliy tafakkurini boyitibgina qolmay, ularni ma’naviy komillikka yetaklashi bilan ham muhim axloqiy-ma’rifiy qimmatga kasb etadi.

X.Komilovning “Ko’klam” she’rida esa, tabiatning go’zal tasviri ona yurt qiyofasi bilan uyg’unlashib ketgan:

*Feruza osmon,  
Parquv bulutlar.*



*Atrof noparmon  
Baxmalday o'tlar.  
Nurga cho'milgan  
Zangori ko'llar,  
Gulga ko'milgan  
Hattoki, cho'llar.*

Tabiat va vatanni bunday go'zal tashbehlar, poetik topilmalar bilan tasvirlashdan tashqari, she'ning sodda, ravon uslubi ham shoir badiiy mahoratidan darak beradi. Go'zallik tasviri uchun uning asl musavviriga (tabiat, Ollohga) tasanno aytib, hayratlangan shoirning o'ziga xos badiiy olam - jahonni nurga yo'g'rilgan holda tasavvur etishi va buni poetik ifodaga ko'chirishi yosh kitobxonga jonli satrlardan ufurib turgan ko'klam tarovatini his qilish va undan estetik zavq olish tuyg'usini tuhfa etadi.

Ushbu mavzuga bag'ishlangan "Qish manzarasi" she'rida esa shu mavsumga xos bo'lgan izg'irin shamol, oppoq qor, ayoz kabi belgi-sifatlarning obrazli tasvirida qiziqarli tasvir uslubini qo'llash orqali bola e'tiborini jalb qilishga erishilgan:

*Izg'irin shamol esar,  
Qor yog'adi bo'ralab.  
Daraxtlar qovoq osar,  
Oppoq to'nga o'ralib.  
Derazalar ko'ziga  
Chizar ayoz jamalak,  
Zarrin oynning yuzida  
Aks etadi kamalak.*

Shuningdek, she'rda sharqona falsafiylik, milliylik ruhi mujassamlashgan. Misralar qatiga zulmatdan nur qidirish "tunni oqqa o'rash", ayozning jamalak chizishi, yaxshilikka, yorug'likka



intilish tuyg'ulari singdirilgan. She'rning so'nggi bayti fikrimizning isboti o'laroq jaranglaydi:

*Qish o'zi-o'zi bilan  
Battar yog'dirsa ham qor,  
Boychechak ko'zi bilan  
Mo'ralab turar bahor.*

Shoirning "Laylakning javobi" she'rida tinchlik deb atalmish bebaho ne'mat o'ziga xos ramzlar vositasida tasvirlanadi. Aslida laylak - tinchlik, ramzi hisoblanib, osuda yurtni makon etadi. Lirik qahramon va laylakning dialogik savol-javoblaridan tinch va osuda shahrimiz, olijanob xalqimizga xos xususiyatlar tushuniladi.

X.Komilov oksimaron (qarshilantirish) usulidan mohirona foydalanib poetik yangilikka erishgan. Ya'ni, oliyanob insonlar maskani hisoblangan ona yurtimiz shaharlarida tutun, zaharli gazlar, diqqinafaslik bo'lsada, tinchlikning sof havosi, xotirjamlik va insoniy mehr-oqibat borligini laylak poetik obrazi tilidan ifodalashga erishilgan. She'rning yana bir axloqiy-ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyati shundaki, ota-bobolar nasihat va o'gitlariga amal qilish kerakligi laylak va uning katta dadasidan tinglaganlarini eslashi orqali oydinlashadi.

Aslida, zohiran uncha ahamiyatsizdek tuyulgan ushbu misra zamirida yosh avlodni kattalarga hurmat ruhida tarbiyalash, tinchlikni ulug'lashga ishora mujassam. X.Komilovning turli mavzulardagi ko'pgina she'rlarida (xoh u varrak mavzusida bo'lsin, xoh laylak, xoh ko'klam, qish va h.k.) vatanparvarlik ruhi ufurib turadi. Jumladan, "Varragim" she'rida bolaga yaxshi tanish bo'lgan varrak detali vositasida Ona vatan - O'zbekistonning buyuk kelajagi, baland parvozi, bunda yosh avlodning o'rni, mas'uliyati va orzulariga hamohang tarzda tasvirlanadi.



“Kalishning deganlari” she’rida esa, vatanparvarlik tushunchasi mash’um qora urushning fojiaiy oqibatlarini tasvirlash orqali yoritiladi. Fabrikadan juft chiqqan kalishlarning ajralib ketishiga xaridorning bir oyog’i yo’qligi sabab bo’ladi.

*Olis janglar illati,  
Egamni-ku qaqshatdi,  
O’sha urush - la’nati,  
Bizlarni ham ajratdi .*

She’rdagi drammatizm yosh kitobxon ko’ngliga kuchli ta’sir etadi va uni urushning oqibatlarini teran anglashga, tinchlikni qadrlashga undaydi. Shuningdek, shoir ijodida kuzatiluvchi nasihat yo’sinida yozilgan didaktik she’rlar ham o’zining chuqur falsafiy asosiga ega. Bilamizki, nasihat bola dunyoqarashini shakllantirish, oq va qorani farqlashda muhim axloqiy-ma’rifiy-didaktik vazifani o’taydi.

Biroq badiiy asardagi didaktika quruq bayonchilik, nasihat qilishdan xoli bo’lsa, obrazlashgan poetik timsollar bag’ridagi hikmatni aql vositasi orqali mushohada etib anglash, ruhan his qilish mumkin. Shu jihatdan, shoirning “Daraxtning niholga nasihati”, “Baliqning bolasiga nasihati”, “Xandon pistaning bodomga nasihati”, “Qiyomat qarz” she’rlari xarakterlidir. “Daraxtning niholga nasihati” she’rida daraxt - donishmand, bolta, kunda - johillik, nihol -bola, tig’, olov - xavf-xatar ramzida qo’llanib yosh kitobxonni mushohadaga, yon atrofni obrazli anglashga, tasavvurlarini umumlashtirishga chorlaydi.

“Xandon pistaning bodomga nasihati” she’rida insonlarga xos bo’lgan manmanlik, kibrlilik, dimog’dorlik illatlari qoralanib, kamtarlik fazilati ulug’lanadi, yuksaklikka ko’taradi. Bunda shoir o’ziga xos o’xshatishlar bilan pistaning tilidan bodomga qarata shunday deydi:



*Bu qovogʻu Qoshingga,  
Toʻqmoq tushar Boshingga*

Endigina shakllanib kelayotgan bola ong-u tafakkuriga ushbu axloqiy tushunchaning obrazlashgan tasviri estetik taʼsir etib, mantiqiy tafakkurini ham rivojlantiradi. “Baliqning bolasiga nasihati” sheʼrida esa ilon, chayon, ajdardan emas, nafs timsoli sifatida kelgan chuvalchangdan qoʻrqish kerakligi tushuntiriladi. Bunda insoniyatning maʼnaviy tanazzuliga sabab boʻluvchi nafs balosi chayon va ilonning zahridan-da xavfli ekanligiga ishora qilinadi.

Shoirning “Osmondagi tuyalar” sheʼri yangicha badiiy topilmalarga boyligi bilan ajralib turadi. Manzara tasviri aks etgan bu sheʼrda bulutning yangicha poetik talqinini koʻrish mumkin. Shoir osmondagi bulutlarni tuyalar karvoniga qiyoslab, ularning oʻrkachidagi xumchalar joʻmragidan oqayotgan suv tomchilarini jala, yomgʻir, doʻl va qorlarga mengzab-oʻxshatib oʻziga xos jonli manzara yaratadi. Shoir tabiat hodisalari tavsiri orqali bola tasavvurini boyitish, dunyoqarashini kengaytirishga urinadi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. *Bolalar sheʼriyatida ijodiy-uslubiy izlanishlar nima uchun muhim?*
2. *Sheʼriyatda uslubiy izlanishlar bolalar qiziqishlariga qanday moslashtiriladi?*
3. *Bolalar sheʼriyatida anʼanaviy va zamonaviy uslublarning uygʻunlashuvi qanday amalga oshiriladi?*
4. *Oʻzbek bolalar sheʼriyatining uslubiy xususiyatlari qanday shakllangan?*
5. *Ijodiy izlanishlar sheʼriyatda badiiy obrazlar va mazmunning boyitilishiga qanday ulush qoʻshadi?*
6. *Oʻzbek bolalar sheʼriyatida xalq ogʻzaki ijodidan olingan uslublar qanday qoʻllaniladi?*



**Foydalaniladigan adabiyotlar:**

1. *Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. – Bolalar adabiyoti. Darslik / T.: “Sharofat-fayz”, 2022. - 320 b.*
2. *Jamilova B. O‘zbek bolalar adabiyoti. O‘quv qo‘llanma. T.: Innovatsiya-Ziyo. 2021. - 222 b.*
3. *Jamilova B. Bolalar adabiyotida poetik tafakkurning yangilanishi. T., 2022.*
4. *Sh.Karimova. Bolalar adabiyoti. Toshkent, “Pagesprint” nashriyoti, 2024.*
5. *To‘xtayeva N. Istiqlol davri o‘zbek bolalar she‘riyatining yetakchi xususiyatlari. Diss.avtoref. T., 2019.*
6. *Иброҳимова З. Кичкинтойлар адабиётининг хусусиятлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 120 б.; шу муаллиф. Қувноқликка яширинган изтироблар. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2005. – 36 б.;*



## 8-MAVZU: BADIY ASARDA YOSH QAHRAMONNING MA'NAVIY OLAMI

### Reja:

1. *Bolalar adabiyotida bolalar va o'smirlarning obraz qilib tanlanishi*
2. *Bolalar obrazining yaratilishi va unda adib mahorati*
3. *Yosh qahramonning ma'naviy olami.*

**Tayanch tushunchalar:** *ommaviy madaniyat, badiiy adabiyot, badiiy asar, inson, o'smir, jamiyat.*

Hozirgi zamonda texnika va texnologiyalar rivojlangan va rivojlanishda davom etmoqda. Shu bilan birga, ommaviy madaniyat ham keng tarqalmoqda. Ommaviy madaniyat o'zi nima degani, degan savolga javob bersak. Qisqacha va tushunarli tilda tushuntirsak, ommaviy madaniyat - bu ayni narsaning ortidan intilish deb tushunaman. Ya'ni masalan, tik-tokda bir video chiqib qolsa, u qiyinchilik bo'ladi va hamma ayni videoni qaytarishga harakat qiladi. Yoki qaysidir kiyim moda bo'lsa, hamma uni kiyishga intiladi, manga bu rang, bu uslub yarashadimi, mening e'tiqodimga to'g'ri keladimi, deb o'ylab o'tirishmaydi.

Shunchaki takrorlashadi. Ommaviy madaniyatni o'ylab topganlarning ham asl maqsadi mana shu, ya'ni chegaralarni butunlay olib tashlash va odamlarni bir xil o'ylaydigan, fikrlaydigan, ular nimani o'ylab topsa, butun jahon millatlarini shu narsaga majburiy-ixtiyoriy bo'ysundirish. Bu yerda majburlashmaydi, ixtiyorga topshiriladi, lekin shunday usullardan foydalanishadiki,



inson ularning aytgan yo'ldan o'z ixtiyori bilan yurayotganini sezmay ham qoladi.

Mana shunga o'xshash qurshovlardan bizni asrab qolishi mumkin bo'lgan qurol bu albatta badiiy adabiyotdir. Hozirgi kunda hurmatli Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan yoshlarni kitobxonlikka jalb qilish borasida juda ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda, jumladan, har bir hudud: har bir viloyat, tumanlarda, xususan Toshkent shahrida har yili kitobxonlik ko'rik-tanlovlari tashkillanmoqda va o'tkazilmoqda. Badiiy adabiyot o'zi nima uchun kerak? Badiiy adabiyot o'qilganda birinchi galda bolada tasavvur olami shakllanadi. Bundan tashqari, bola tahlil qilishni o'rganadi. Nima yaxshi-yu nima yomonligini o'ziga singdiradi, ma'naviy olami rivojlanadi. Badiiy adabiyotning inson hayotida juda katta roli mavjud. U inson hislarini, ongini, ruhini tarbiyalashda o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatadi.

Kitobxon asar muallifi va qahramonlari bilan birgalikda voqeahodisalarni yashaydi, his qiladi va unda empatiya (birovning holatini his qilishlik) hosil bo'ladi. Badiiy adabiyot bitmas-tuganmas g'oyalari manbai hisoblanadi. Unda turli davrdagi insonlarning o'y-fikrlari, g'oyalari, orzu-umidlari, jamiyat hayoti, insonlarning hayotga bo'lgan munosabatlari va kutuvlari jamlangan. Jamiyat, ijtimoiy muhit insonning shaxs sifatida rivojlanishining muhim omillaridan biridir. O'smirning shaxsi ijtimoiy munosabatlar mahsulidir. Chunki u doimo jamiyat ichida bo'ladi, insonlar bilan suhbatlashib fikr almashadi. Shunday ekan, uning hissiy va aqliy rivojlanishida ijtimoiy muhit katta o'rin egallaydi.

Badiiy adabiyotning ko'p asrlik taraqqiyoti, uning kishilar dunyosiga, ularni qurshab turgan tashqi borliq bilan aloqalariga va o'zaro munosabatlariga tobora chuqur kirib borganligidan dalolat beradi. Bundan ko'rinib turibdiki, badiiy adabiyotning bosh mavzusi insondir. Insonning badiiy asarlarda markaziy o'rinni egallashi dunyoni badiiy ravishda anglash va ijod sohasida kishilik tomonidan bosib o'tilgan katta yo'lning natijasi hisoblanadi.



### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. *Yosh qahramonning ma'naviy olami badiiy asarda qanday ifodalanadi?*
2. *Badiiy asarda yosh qahramonning ma'naviy olamiga atrof-muhit va boshqa obrazlarning ta'siri qanday aks etadi?*
3. *Badiiy asarda yosh qahramonning ma'naviy olamini o'quvchiga ta'sirchan yetkazish uchun qanday yondashuvlar samarali hisoblanadi?*
4. *Zamonaviy badiiy asarda yosh qahramonning ma'naviy izlanishlari qanday tasvirlanmoqda?*
5. *O'zbek bolalar adabiyotidagi biror yosh qahramonni tanlab, uning ma'naviy olamini tahlil qiling.*



## 9-MAVZU: BOLALAR RUHIYATINING YANGICHA IDROK ETISH XUSUSIYATLARI

### Reja:

1. *Bolalar adabi*
2. *yotida bolalar ruhiyati tasviri*
3. *Adabiyotning bola tafakkuri va hissiyotiga ta'siri*
4. *Bolalar ruhiyatining adabiyot orqali shakllanishi va rivoj topishi*

**Tayanch tushunchalar:** *inson, idrok, bosqich, puzzle, mozaika, qog'oz, san'at, nutq, muloqot*

Insoniyatda shundayki, hamma bilan yaxshi munosabat o'rnata olish uchun ular bilan yaxshi muloqotni yo'lga qo'yish kerak bo'ladi, ya'ni inson yaxshi diksiyaga, chiroyli va tushunarli talaffuzga ega bo'lish kerak bo'ladi.

Kichkina bola nutqi kattalarnikidan ancha farq qiladi. Chunki ular hali ko'p narsalarni bilishmaydi, idrok etishmaydi. Bu juda sabr va vaqt talab qiladigan jarayondir. Bolaning so'z boyligi va nutqini rivojlantirish uchun turli maxsus o'yinlardan, mashqlardan foydalanish joizdir. Shunda bola o'z xohish-istaklarini bemalol ifodalay oladi va o'zidan katta yoki kichik bo'lgan bolalar bilan qiynalmasdan muloqot o'rnata oladi.

O'quv muvafaqqiyati, shuningdek, bolaning so'zlarni, tovushlarni qanchalik yaxshi va to'g'ri eshitish va talaffuz qilishiga bo'g'liq - qanchalik yaxshi bo'lsa, shunchalik savodliroq bo'ladi. Agar bolada bu yo'nalishlarda muammolar kuzatilsa, albatta ota-ona va o'qituvchi orasida muloqot olib boriladi va tavsiyaga ko'ra nutq terapiyasi o'tkaziladi. Bolalar idrokini rivojlantirishning bir



qancha yo'llari va usullari mavjud. O'yinlar va o'yinchiqlar orqali idrokni rivojlantirishga yordam berish mumkin. O'yinlarni o'ynash orqali bolada jismoniy, kognitiv, psixologik va ijtimoiy rivojlanishlar kuzatiladi. Mazmuniy o'yinlar, jadal o'yinlar, qo'shiqlar, kitoblar va boshqa o'yinchiqlarni, tushunchalarni kuchaytirish va ularni o'rganishga rag'batlantirish uchun qo'llash mumkin. Masalan, qog'oz qatlamlari, konstruktorlar, mozaikalar, rangli qalam va pensillar, chizish kitoblaridan foydalanish, matematik masalalar yechish, kasb-hunar bilan shug'ullanish va boshqa amaliy mashg'ulotlar orqali bolaning idrokini rivojlantirishga yordam berish mumkin.

Bolalarni so'zlashish va suhbatlashish bilan o'zaro aloqalarni rivojlantirish ham ularning idrokini oshirishga yordam berishi mumkin. Ular bilan gapirish, savollar so'rash, ularning fikrlarini eshitish va ularning fikrlarini bayon qilish, suhbatga qatnashishni o'rgatish,

Xalqaro ilmiy jurnal rag'batlantirish va ularning o'z fikrlarini ifoda qilishga imkon berish kabi amaliyotlar ularning tushunchalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda kitoblarda ham bolaga yaxshi-yomonni o'rgatishdan oldin, unga fikrlashni, tasavvur qilishni o'rgatish zarur. Buning uchun bolan bilan bir xil kitobni olib, kichik-kichik hikoyalarni birgalikda o'qib, orada personajlar, voqealar to'g'risida savollar berib borish va so'ngida uni gapirib berishini so'rash kerak.

Bolalami ko'rgazma, tadqiqot va o'rganishga rag'batlantirish ham ularning idrokni rivojlantirishini oshirishga yordam berishi mumkin. Ko'rgazmalar orqali bolalar tabiat, hayvonlar, dunyo tarixi, ilm-fan, san'at va boshqa mavzular haqida bilimlarini oshirishadi. Tadqiqotlar va o'rganish orqali esa ularning ilmiy g'oyalarini rivojlantirish, savollar berib savollarini qo'llab-quvvatlash va yangi bilimlarni o'rganishga imkon berish mumkin.



Bolalarni san'at va musiqa bilan bog'lash ularning idrokni rivojlantirishga yordam beradi. Rangli qalamlar bilan chizish, mozaik va konstruktorlar bilan tasvir ishlash, musiqa, qo'shiqlar yoki musiqa vositalari bilan bog'liqlik kurish, dramatik san'at va teatr asboblaridan foydalanish va boshqa san'at faoliyatlariga qatnashish orqali bolalar o'zlarini ifoda qilish va o'zlarini o'rganish imkoniyatlarini oshirishlari mumkin.

Bolalarning idrokni rivojlantirishiga yordam berish uchun bir nechta o'yinchoqlar mavjud. Bu o'yinchoqlar bolalarning tushunchalarini va o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berishi bilan bir qatorda o'yin va ta'limni jamlagan holda bo'ladi.

Quyidagi o'yinchoqlar bolalar uchun eng yaxshi usul bo'lishi mumkin:

Mozaiklar, bolalarni tasvir ishlash, ranglar va shakllar bilan o'zaro bog'lash, tarkibiy tuzilishni tushunish, tasavvur qilish va kreativ fikrlashni oshirishga yordam beradi. Mozaiklar bilan o'yin o'ynash orqali bolalar o'zlarini ifoda qilish, tasavvur qilish, tarkibiy tuzilishni rag'batlantirish va ularning o'z fikrlarini ifoda qilishga imkon berish kabi amaliyotlar ularning tushunchalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Bolalami ko'rgazma, tadqiqot va o'rganishga rag'batlantirish ham ularning idrokni rivojlantirishini oshirishga yordam berishi mumkin. Ko'rgazmalar orqali bolalar tabiat, hayvonlar, dunyo tarixi, ilm-fan, san'at va boshqa mavzular haqida bilimlarini oshirishadi. Tadqiqotlar va o'rganish orqali esa ularning ilmiy g'oyalarini rivojlantirish, savollar berib savollarini qo'llab-quvvatlash va yangi bilimlarni o'rganishga imkon berish mumkin.

Bolalami san'at va musiqa bilan bog'lash ularning idrokni rivojlantirishga yordam beradi. Rangli qalamlar bilan chizish, mozaik va konstruktorlar bilan tasvir ishlash, musiqa, qo'shiqlar



yoki musiqa vositalari bilan bog'liqlik kurish, dramatik san'at va teatr asboblardan foydalanish va boshqa san'at faoliyatlariga qatnashish orqali bolalar o'zlarini ifoda qilish va o'zlarini o'rganish imkoniyatlarini oshirishlari mumkin.

Bolalarning idrokni rivojlantirishiga yordam berish uchun bir nechta o'yinchoqlar mavjud. Bu o'yinchoqlar bolalarning tushunchalarini va o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berishi bilan bir qatorda o'yin va ta'limni jamlagan holda bo'ladi. Quyidagi o'yinchoqlar bolalar uchun eng yaxshi usul bo'lishi mumkin: Mozaiklar, bolalarni tasvir ishlash, ranglar va shakllar bilan o'zaro bog'lash, tarkibiy tuzilishni tushunish, tasavvur qilish va kreativ fikrlashni oshirishga yordam beradi. Mozaiklar bilan o'yin o'ynash orqali bolalar o'zlarini ifoda qilish, tasavvur qilish, tarkibiy tuzilishni tushunish va ranglarni tushunish bilan bog'liq qobiliyatlarini rivojlantirishadi.

Konstruktorlar, bolalarga tasvir ishlash va obyektlarni yaratish imkonini beradi. Bu o'yinchoqlar orqali bolalar o'zlarining g'oya qilish, tasavvur qilish, inshootlarni bajarish va obyektlarni yaratish qobiliyatlarini rivojlantirishadi. Konstruktorlar, matematik va geometriya bilan bog'liq o'yinlar, inshootlarni bajarish uchun materiallar, texnikalar va tasavvur qilishni oshirishga imkon beradi.

Qog'oz va qalam kitoblar, bolalarga chizish, yozish, ranglarni qo'llash va tasvirlash imkonini beradi. Bu o'yinchoqlar orqali bolalar o'zlarini ifoda qilish, tushunchalarini bayon qilish, tasvirlash, yozish, chizish va ranglarni tushunish qobiliyatlarini rivojlantirishadi. Qog'oz va qalam kitoblar, o'zaro aloqalarni rivojlantirish, o'rganishni rag'batlantirish va kreativ fikrlashni oshirishga yordam beradi. Chizmalar, bolalarni rasm chizish, tasvirlash, ranglarni tushunish va tarkibiy tuzilishni tushunishga yordam beradi. Ular bilan o'yin o'ynash orqali bolalar o'zlarini



ifoda qilish, tasvirlash, tushunchalarini bayon qilish va ranglarni tushunish qobiliyatlarini rivojlantirishadi. Tug'ilgan chizmachalar, kreativ fikrlashni oshirish, tasavvur qilish va inshootlarni bajarish uchun materiallar bilan bog'liq o'yinlar orqali ham foydalanish mumkin.

Puzzle va mantiqiy o'yinlar, bolalarni tarkibiy tuzilishni tushunish, muammolar yechish, tushunchalarini rivojlantirish va lojik fikrlashni oshirishga yordam beradi. Bu o'yinchoqlar orqali bolalar o'zlarini muammo yechishga qaratish, lojik fikrlashni oshirish, tushunchalarini rivojlantirish va muammolar yechish qobiliyatlarini rivojlantirishadi.

Bu o'yinchoqlar bolalaming idrokni rivojlantirishiga yordam berishda ko'p tomondan foydalanish uchun bir nechta usullardan faqat bir nechta misollar keltirildi. Bolalar uchun eng yaxshi o'yinchoqlar va maslahatlar har bir bolaga qarab o'zgartirishi mumkin.

Fonemik idrokni to'laqonli shakllantirish uchun nutqning tovush madaniyati ustida ish olib borilmoqda. Fonemik idrokning rivojlanishida 6-bosqichga bo'linadi:

1-bosqich: nutqiy bo'lmagan tovushlarni tanib olish bilan boshlanadi. Eshitish xotirasi va eshitish diqqatini rivojlantirish bilan birga, ularni tanib olish va farqlashni o'rganishlari kerak.

2-bosqich: o'qituvchi bolaga bir xil tovushlar, iboralar birikmalari, individual so'zlarni o'z ichiga olgan o'yinlar va mashqlar yordamida ovozning balandligi, kuchi, tembrini farqlashni o'rgatadi.

3-bosqich: nutq terapevti tovush tarkibiga yaqin bo'lgan so'zlarni farqlashni o'rganishga yordam beradi.

4-bosqich: o'qituvchi bo'g'inlarni to'g'ri farqlashni tushuntiradi.

5-bosqich: o'qituvchi bolalarni fonemalarni (tovushlarni) farqlashga o'rgatadi, tovushlar unli va undoshlarga bo'linishini



tushuntiradi. Birinchidan, unli tovushlar o'rganiladi, keyin ular undoshlarga o'tadi.

6-bosqich: so'zlarni bo'g'inlarga ajratishni o'z ichiga olgan eng oddiy tovush tahlili ko'nikmalarini rivojlantirish vaqti keldi. Nutq terapevti bolalarga kaftlari yordamida bo'g'inlar qanday hisoblanishini ko'rsatadi, urg'u berilgan bo'g'in ta'kidlanadi. Bosqich unli tovushlarni, keyin undoshlarni tahlil qilish bilan davom etadi, shuning uchun fonematik idrok va tovush tahlili rivojlanadi. Maktab yoshdagi davrda bolaning ruhiyati, nutqi, kognitiv rivojlanishi uchun poydevor qo'yiladi. Shuning uchun fonemik idrokning rivojlanishi ketma-ketlik bilan sodir bo'lishi kerak.

Ijodiy o'yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Bu o'yinlarda bolaning har tomonlama rivojlanishi, psixologik, bilish jarayonlari, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi. Maktab yoshidagi bolalar idrokining normal o'sishi hamda ularda kuzatuvchanlikning kamol topishi ko'p jihatdan tarbiyachi, o'qituvchilarga, ularning pedagogik mahoratiga bog'liqdir.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. *Bolalar ruhiyatining yangicha idrok etish xususiyatlari qanday ta'riflanadi?*
2. *Bolalar ruhiyati va idrokining rivojlanishi qanday omillarga bog'liq?*
3. *Bolalar ruhiyatining yangi jihatlarini tasvirlashda adabiy asarlar qanday rol o'ynaydi?*
4. *Zamonaviy bolalar kitoblarida ruhiyat va idrok xususiyatlariga mos yondashuvlarni misol keltiring.*
5. *O'zbek xalq ertaklari va zamonaviy bolalar she'riyatida bolalar idrok etish xususiyatlarini qiyoslang.*



### **Foydalaniladigan adabiyotlar:**

1. *Иброҳимова З. Кичкинтойлар адабиётининг хусусиятлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 120 б.; шу муаллиф. Қувноқликка яширинган изтироблар. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2005. – 36 б.;*
2. *Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. – Bolalar adabiyoti. Darslik / T.: “Sharofat-fayz”, 2022. - 320 b.*
3. *Jamilova B. O‘zbek bolalar adabiyoti. O‘quv qo‘llanma. T.: Innovatsiya-Ziyo. 2021. - 222 b.*
4. *Jamilova B. Bolalar adabiyotida poetik tafakkurning yangilanishi. T., 2022.*
5. *Sh.Karimova. Bolalar adabiyoti. Toshkent, “Pagesprint” nashriyoti, 2024.*
6. *To‘xtayeva N. Istiqlol davri o‘zbek bolalar she‘riyatining yetakchi xususiyatlari. Diss.avtoref. T., 2019.*



### 10-MAVZU: BOLALAR ADABIYOTIDA FOLKLORIZMDAN FOYDALANISH MAHORATI

#### Reja:

1. Bolalar adabiyoti va folklor
2. Bolalar she'riyatida xalq og'zaki ijodi motivlari
3. Bolalar nasri va dramaturgiyasida bolalar folklorining o'рни

**Tayanch tushunchalar:** xalq og'zaki ijodi, maqol, matal, masal, tezaytish va topishmoq, bolalar adabiyoti, folklor, bolalar adabiyoti davrlari.

Bolalar adabiyoti badiiy adabiyotning eng sodda va tushunarli, qiziqarli qismi bo'lsada, uni yaratish va tahlil qilish boshqalariga nisbatan bir qancha murakkabroqdir. Chunki unda foydalaniladigan so'zlar oddiy bo'lgani bilan, undagi tushuncha hamda tasavvurlar, majoziy obrazlar xayol haqiqatni ochib beruvchi eng muhim manba hisoblanadi. Bundan tashqari bolalar adabiyoti bolalarning dunyoqarashini shakllantirish, ularning olam va odam tushunchalariga munosabatlarini to'g'ri yo'lga qo'yishdagi muhim vosita hisoblanadi.

Folklor – xalq donishmandligi demakdir. Xalq tomonidan yaratilgan, ming yillik an'ana va qadriyatlarni o'z bag'riga singdira olgan ijoddur. Xalq og'zaki ijodi janrlari ham yengil, ravon, qisqa va mazmun jihatdan mukammaldir. Ayni shu jihatlari bilan bolalar adabiyoti bilan folklor uyg'unlashib keradi. Chunonchi, ertaklardagi syujetlarni qarasak, topishmoqning javobini topgan g'olib kelishi, o'z fikrini maqollar orqali ifodalash, yengil



aytiluvchi qo'shiqlardan foydalanish kabi holatlarni misol qilib olsak bo'ladi.

Bugungi kunda qudratli qurol bo'lgan adabiyotdan keng foydalanmay turib, yangi jamiyat quruvchisini har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash mumkin emas. Shu masalada yana gapni folklor janriga olib kelsak ham bo'ladi. Chunki bolalar adabiyotini ertaklarsiz tasavvur qilishning iloji ham yo'q, deb o'ylayman. Adabiyotshunos olimlarimiz bolalar adabiyotini uch guruhga bo'lib korsatadilar. Albatta, bunda bolalarning yosh guruhlari inobatga olingan. Bular 2 – 7 yoshlilar uchun. 8 – 12 yoshdagi bolalar va 13 – 17 yoshdagi bolalar adabiyotlaridir. Birinchi – maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar adabiyotida ertak, topishmoq, maqol, tezaytishlar oldingi o'rinlarda turadi. Chunki bu davrda bolalar hali o'qiy olmaganliklari sababli, faqat eshitib o'rganganlari bois, ulaga yengil, esda qolarli adabiyotlar tavsiya etilgan. Bu davrda bolalar adabiyot bilan ilk bor folklore namunalarini tinglash orqali tanishishni boshlashadi. Demak, folklor janri bu davrdagi bolalar uchun eng to'g'ri tanlovdir

Endi bu boradagi bir misolga e'tibor qaratsak. Bolalar adabiyotining yetuk namoyondalaridan biri Anvar Obidjonning "Suhbat" she'rida bolalar va g'ozlarning savol-javob tarzidagi suhbatini ko'ramiz:

- G'ozlar bir so'z deysizmi?
- G'a, g'a-g'a.
- Totli suli yeysizmi?
- Ha, ha, ha.
- Nega patni silaysiz?
- G'oq, g'oq, g'oq.
- Mendan nima tilaysiz?
- Bo, boq, boq!

Bolalar adabiyotidagi bu kabi parchalar bolani mehnatsevarlikka, tabiatni asrab-avaylashga o'rgatsa, "Oq terakmi, ko'k



terak?” kabi o‘yinlar va ulardagi aytishuvlar bolalarni jamoa bolib ishlashga, atrofidagi do‘stlariga nisbatan adolatli va hamjihat bo‘lishga o‘rgatadi.

Bu yoshdagi bolalarni atrofidagi turli voqea-hodisalar nihoyatda qiziqtiradi, ajablantiradi. Ularning bizni qurshagan olam haqidagi savollariga badiiy asarlarda batafsil javob berilgan.

Shu o‘rinda bolalar adabiyotining salmoqli qismini folklor janri, ayniqsa, ertaklar tashkil etishini inobatga olish zarurdir.

Ertakning muhim xususiyatlaridan biri uning doimo xalq hayoti, dunyoqarashi, kurashi, tarixi, ruhiy olami, urf-odatlarini bilan chambarchas bog‘lanishi, insonlarga axloqiy va ma‘naviy yo‘ldosh bo‘lib kelishidadir. “Tulki bilan turna”, “Rostgo‘y bola”, “Sholg‘om”, “Qumursqa” kabi ertaklarni ana shu mazmundagi ertaklardan namunalar, deb aytishimiz mumkin.

Xalq ertaklari turli zamon va makonlardagi xalq hayoti va turmushi, axloqi va ma‘naviy boyligi haqidagi beminnat ma‘lumotlar xazinasidir. Shu o‘rinda ertaklarning mazmun va mohiyat jihatdan turlarini sanab o‘tish joizdir: hayotiy ertaklar (maishiy ertaklar), sehrlil ertaklar, hayvonlar haqidagi ertaklar.

Endigi masala esa ertaklarning yaratilish sabablarini ham bilish maqsadga muvofiqdir. Ertaklar tili sodda, ifoda ravon, oddiy manzaralar tasvirlanishi bilan bir qatorda shu soddaliklar ortidagi butun bir hayotiy falsafaning turishi bolajonlarning kelajakdagi tarbiyasi uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ertaklar orqali bola yaxshi yomon, to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri deb atalmish tushunchalarni anglay boshlaydi. U o‘z ertaklari orqali hayot haqiqatlariga erisha oladi.

Xalq ertaklarida el-yurtning ko‘z qorachigiday avaylab asrovchi qahramonlar ulug‘lanadi; ayollarning haq-huquqlari himoya qilinadi; uzoq masofalar yaqin qilinadi, kishilar xarakteridagi yaramas odatlar, noma‘qul illatlar tanqid ostiga olinadi, dovyuraklik, mehnatsevarlik, mardlik, epchillik, halollik,



vafodorlik, saxiylik g'oyalari ulug'lanadi. Masalan, hayvonlar haqidagi ertaklar turkumiga kiruvchi "Susambil" ertagida eshak o'z onasidan "otning borligi, suvning tinig'i" bo'lgan Susambil haqida eshitadi.

Payt kelib xo'jayinlarning adolatsizligidan to'yib, o'z uyidan voz kechib yo'lga tushadi. Unga yo'l bo'yi xuddi o'zi singari holatga duch kelgan xo'kiz, xo'roz, sichqonlar arilar unga hamroh bo'ladilar. Va nihoyat ular orzulariga yetganlarida borilar hujumiga uchrashadi, bu holatda ularni yakdillik va hamjihatlik qutqarib qoladi. Ular umrlarining oxirlarigacha rohat-farog'atda tincho-soyishta yashaydilar. Bu bir qarashda juda oddiy ko'ringan, ravon ifodalangan ertak bo'lib korinishi mumkin. Ammo unda adolatsizlikka barham berisha uringan mard inson xarakteri singdirilgan obrazlar, xavf-xatar tug'ilganda panaga qochish o'rniga yakdillik bilan jang qila oladigan hamjihat insonlar tasviri keltirilgan.

Bolalar buni bir qarashda tushunishlari qiyin va yoki umumna anglay ham olishmas. Ammo vaqt kelib ularning yoshlari katta bola borgan sari ular ertaklarda eshitgan voqealar ularning ko'z o'ngida namoyon bo'la boshlaydi. Shunda ular yaqin-atroflaridagi o'zlarining do'stlari bilan hamjihat bolishni ancha oldin, ya'ni ertak eshitib rohat oladigan yoshlik onlarida o'rganishganini, bu xususiyat ularning qon-qoniga singib ketganini anglab oladilar.

Demak, bolalar adabiyotidagi yetakchi janrlarning o'zi aynan folklor bilan chambarchas bog'liqligi mavzumizning asl mohiyatini ochib bera oladi. Biz bu kabi misol va asoslarni juda ko'plab keltirib o'tishimiz mumkin. Maqollar, topishmoqlar va ularga tayanib yaratilgan ertak-topishmoq, topishmoqli ertaklar shular qamrovidagi turkumlardir va ayni shularning o'zi bolalar adabiyotidagi folklor janrlari stilizatsiyalarini tashkil qiladi.



### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. *Folklorizm nima va u bolalar adabiyotida qanday rol o'ynaydi?*
2. *Bolalar adabiyotida folklorizmdan foydalanishning asosiy maqsadlari qanday?*
3. *Folklorizmning bolalar adabiyotiga qo'shadigan tarbiyaviy va estetik ahamiyati nimalardan iborat?*
4. *Bolalar adabiyotida milliy qadriyatlarni yoritishda folklorizmning o'рни qanday namoyon bo'ladi?*
5. *Folklorizmdan foydalanib yozilgan bolalar she'rlari yoki hikoyalari bolalar qiziqishini oshirishda qanday rol o'ynaydi?*
6. *Folklor motivlari bolalar asarlarida qanday usullar bilan qo'llaniladi?*



## 11-MAVZU: BOLALAR ADABIYOTIDA YUMORNING O'RNI

### Reja:

1. *Bolalar adabiyotida kugi motivining o'rni va ahamiyati*
2. *Yumor, hazil-mutoyibalarning bolalar she'riyatidagi o'rni*
3. *Bolalar nasrida hazil-mutoyibaga asoslangan kichik epik janrlar.*

**Tayanch tushunchalar:** *Satira, yumor, badiiy-estetik qarash, ma'naviy dunyo, yumoristik did.*

Bolalar adabiyotining o'ziga xos tabiati, uning axloqiy-ma'rifiy, badiiy-estetik qimmatini doimo ijodkorlarning ham, tanqidchilarning ham diqqat markazida bo'lib kelgan.

XX asr boshlarida Hamza, Avloniy kabi mutafakkirlar asarlari mohiyatida marifatparvarlik g'oyalari namoyon bo'lgan bo'lsa sho'ro davrida ko'proq sho'ro mafkurasi tashviq qilingan. Istiqloq davrigagina kelib yaratilayotgan qahramonlar "...faqat a'lo xulqi va o'qishi bilangina emas, balki olamni anglash yo'lidagi intilishlari, hayot va tabiatga faol munosabati bilan ham ajralib turadi".

Satira va yumor esa ushbu ta'sir quvvatini oshiruvchi eng asosiy qurollardan biridir. Bolalar adabiyotida satira va yumorning asosiy o'rinlardan birini egallashining boisi ham shundadir. Ayniqsa, so'nggi davr bolalar she'riyatini kuzatgan-da, satira va yumor asarning ham badiiy mukammaligini ta'minlashga, ham tarbiyaviy ta'sir kuchini oshirishga birday xizmat qilganligini ko'rish mumkin". T. Adashboyev "Alg'ov-dalg'ov aralash", H. Imonberdiyevning "Harflar jangi" kabi asarlari ayni jihatdan xarakterlidir. T.Adashboyev she'rida lirik qahramon "Alifbe" dan



o‘rin olib, o‘z burchini halol o‘tab kelayotgan har bir harf, tinish belgilar adashib ketishsa nima bo‘lardi, degan vahimali tassavvurlarga beriladi. She‘rda “B” harfi bilan bog‘liq bo‘lgan voqea shunday ta‘svirlanadi:

*“B” adashsa:  
Basharti “B” bo‘lmasa,  
Bug‘doy non yopilmaydi.  
Bag‘dodga, Buxoroga  
Bilet ham sotilmaydi.*

She‘rda shu tariqa “V”, “G”, “Q”, “I”, “K” kabi ko‘plab harflar bilan bog‘liq she‘riy tasavvurlar hikoya qilinadi. Shoirning mahorati shundaki, har bir she‘rdagi shu xil adashishlar oqibatida quvnoq kulgi yuzaga keladi.

She‘r bolalarning tasavvur olamini kengaytiradi. Bolalar unda tasvirlanayotgan harflarni alg‘ov-dalg‘ov holatini tasavvur qilishar ekan, quvnoq yumordan, boy poetik mazmundan estetik zavq, didaktik mazmundan axloqiy-ma‘rifiy saboq olishadi. Negaki, shoir she‘rida har bir harfni poetiklashtirar ekan, albatta bolalarning axloqiy-ma‘rifiy ehtiyojlarini ham nazarda tutadi.

H. Imonberdiyevning “Harflar jangi” she‘rida ham shunga o‘xshash manzarani kuzatish mumkin. Unda tasvirlanishicha, tinch-ahil yashayotgan o‘ttiz besh harf kutilmaganda nifoq tushadi. Buning asosiy sababi esa harflar muzqamoq uchun navbatga turishganda “U” oyim bilan uning o‘g‘li “U”chaning orasiga “R”bekning bemavrid suqilishidir. Shoir ushbu vaziyatni jonlashtirib, quvnoq yumor bilan quydagicha majoziy tarzda tasvirlaydi:

*“U” oyim bosiq edi,  
“R”ga “uyat-e”, dedi.  
Shu on “R”: - ayatingni  
Bor, pishirib ye, - dedi.*



Shoir harflarning ushbu mojarosi manzarasini tasvirlar ekan, dialog san'atidan foydalanib, bolalarning kundalik hayotda har kuni duch keladigan, ehtimol o'zi ham faol ishtrok etadigan jonli, tanish jarayonni harflar vositasida suvratlantirib, quvnoq kulgu yaratadi. Bunda har bir harfning janjalga munosabati ularning shakliga mos holatlari bilan kugili tarzda jonlantirilishi bolalarning zavqini oshirib, quvnoq qahqahasiga sabab bo'ladi.

Shoir harflar jangi tasviri vositasida bolalarga o'zlarining kundalik hayoti to'palonlari, urush-janjallar manzarasini shunday ustalik bilan kugili tasvirleydiki, natijada kitobxon ularning harflar ekanligini ham bir zum unitib, o'zini shu jarayonni ishtrokchisiga aylanib qolganday his etadi:

*Jahldor "Q" bir tepib,  
"O"ni to'pday uchirdi.  
Yosh ketti deb "S" "O"ni  
Alfavitdan o'chirdi.*

She'rda harflar jangini barham topishi ham g'aroyib, ham axloqiy-ma'rifiy usulda o'z yechimini topadi. Bu ham shoirning poetik topqirligidan nishona.

Ma'lumki, H. Imonberdiyev yaratgan qahramonlar sirtdan qaraganda jinday ayyor, shirinlikka o'ch, hayolparast, sal e'tiborsizlik qilsangiz chap berib chuv tushirib ketadigan ustomon, quvnoq bolalardir. Lekin ushbu xususiyatlari ba'zanularning o'ziga pand berib, quvnoq kulguga sabab bo'ladi. Mazkur tipdagi she'rlarning tarbiyaviy ahamyati haqida gap ketganda bir masalaga diqqatni qaratish zarur. Shoir shu tipdagi barcha she'rlarida o'quvchiga pand nasihat qilmaydi, oshkora sezilib turadigan axloqiy-ma'rifiy-didaktik g'oyalarni yalang'och tarzda ifoda etmaydi. Aksincha, bolalarning kundalik turmushiga xos bo'lgan oddiy voqea-hodisani, so'z, jumlan, poetiklashtirib, badiiy obraz darajasiga ko'tarib, unga yomoristik ruh va kulgi baxsh etadi.



Ana shu yumoristik ruh va kulgi she'rnin tarbiyaviy qiymatini belgilaydi.

Yosh kitobxonlarning ma'naviy dunyosini boyitishda, estetik didini shakllantirishda Anvar Obidjon ijodining tarbiyaviy ahamiyati nihoyatda kattadir. Shoirning "Juda qiziq voqea" kitobiga kiruvchi bir qator she'rlari o'zining ixchamligi, badiiy mukammalligi, yumorga boyligi bilan ajralib turadi. Shoir "Kulchalar" turkumidagi debocha vazifasini o'tovchi "Kezaman, yozaman..." she'rida ramziy tarzda ta'kidlaganidek mazkur she'rlarida bolalar hayotida uchrab turadigan, birqarashda nazarga tushmaydigan, lekin asli bolalik olamini, uning tuyg'ularini, hayot tarzini, voqelikka bo'lgan munosabatini noziklik bilan ilg'ay olganligini eng muhim, uni yosh kitobxon o'stiradigan tarzda quvnoq ohanglarda tasvirlay olganligini ko'rish mumkin.

Shoir oddiygina hodisadan ham poetik mazmun topa oladi. Masalan, kichkintoylarga "kimning qizisan?" – deb savol bersalar, "Otamning qiziman", - deb javob berishadi. Familiyasini so'rasangiz, soddalik bilan otasining kasbi bilan bog'lab javob berishadi. Shoir shu kabi xuddi qo'shiq qilganday o'ynoqi satrlarga tizadi. "Otasining qizi" she'rida Jamilaxondan familiyasini so'raganda u shunday javob beradi:

O'ylanib der

Jamila:

- Bog'bon qizi –

Familiyam.

Anvar Obidjon faqat bolalarning xarakterini ochishga xarakat qilgan she'rlaridagina emas, balki predmetlar, narsa hodisalarga bag'ishlangan, she'rlarida ham shunday mahorat bilan qalam teratadi.

Shoir har bir predmetning o'ziga xos xususiyatini tasvirlash orqali uning boshqalardan farqlanib turuvchi badiiy obrazini yaratadi. Ushbu tanlab olingan xususiyat she'rga hajviy ruh va kulgi baxsh etadi. Ayni jihatdan, ayniqsa, "Siz eshitmagan qo'shiqlar"



turkumiga kiruvchi asarlari xarakterli. Shoir mazkur turkumda predmetlar, parranda-yu, darrandalar, narsa-hodisalarni har xil juft va taqlidiy so'zlardan mohirlik bilan foydalanib, o'z tillariga mos ravishda kuylatadi. Bolalar esini tanigandan boshlab, tevarak-atrofdagimuhitga qiziqib qaraydi, olam jumboqlarini, sirlarini, umuman hayot haqiqatini bilishga intiladi. Bu intilish esa borabora taqlidchilikni tug'diradi. Darhaqiqat, yaxshilikka, yangilikka taqlid qilish bolalarning azaliy odati. Shu ma'noda bolalarni olam jumboqlari bilan tanishtirishga qodir lirik qahramon yaratish – boshqa janrlar kabi bolalar she'riyatining, shu jumladan satirik va yumoristik she'riyatining ham oddiy talabidir.

Bolalar adabiyotining o'ziga xos tabiati, uning ma'rifiy, badiiy-estetik qimmatini doimo ijodkorlarning ham, tanqidchilarning ham diqqat markazida bo'lib kelgan. Bolalar she'riyatida ilm-ma'rifatni targ'ib qiluvchi alifbo, harflar, tinish belgilari, husnixat kabi mavzularda ko'plab she'rlar yaratilgan. Jumladan, Quddus Muhammadiyning "Dum", "Tugmacha", "Temirlar o'yini", Sul-ton Jo'raning "Tinish belgilarining majlisi", Po'lat Mo'minning "Salimjon-nimjon", "Parpining harfi" kabi she'rlari fikrimiz dalilidir. Masalan, T.Adashboyevning lirik qahramoni "Alifbe" dan o'rin olib, o'z burchini halol o'tab kelayotgan har bir harf, tinish belgilari adashib ketishsa nima bo'lardi, degan vahimali tasavvurlarga beriladi. She'rda "A" harfi bilan bog'liq voqea shunday tasvirlanadi:

*Agarda "A" adashsa,  
Andijon, Asakani,  
Ariqni, anhorlarni  
Atardik ne deb qani?*

Shu tariqa boshqa shu kabi ko'plab harflar bilan bog'liq she'riy tasavvurlar hikoya qilinadi. Shoirning mahorati shundaki, har bir harfdagi shu xil adashishlar oqibatini quvnoq kulgi bilan yakunlaydi.



She'r bolalarning tasavvur olamini kengaytiradi. Bolalar unda tasvirlanayotgan harflarning alg'ov-dalg'ov holatini mushohada qilishar ekan, quvnoq yumordan, boy poetik mazmundan estetik zavq, didaktik mazmundan ma'rifiy saboq olishadi. Binobarin, bolalarga mo'ljallangan hajviy she'rlarning ma'rifiy qimmati faqat savodxonlik ruhida tarbiyalashdan iborat bo'lmay, ayni paytda, ular bolaning tabiatga, atrof-muhitga madaniy munosabatda bo'lish malakasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Yosh kitobxon nazarida ijodkor – sehrgardir. Agar sehrgar cholning qo'lidagi sehrlil tayoqchasi hayratomuz mo'jizalar yaratsa, ijodkorning sehrlil qalamidan ham ana shunday mo'jizalar yaraladi. Shu sababli ham haqiqiy shoir qalamidan yaralgan oddiygina so'zlar yosh kitobxon ko'z o'ngida sehrlil tosh singari turfa qirralari bilan namoyon bo'ladi. Oddiy so'zlarning sehrlil so'zlarga aylanishida esa, bizningcha, eng katta imkoniyat hajviy asarlardir. Bolalar adabiyoti she'riyatini tarozining ikki pallasiga bo'lsak, bir pallasini hajviy she'rlar egallashi, ehtimol aslida shundandir?! Chunki haqiqiy hajv dastavval, kitobxonning dilini ravshan, tilini burro qiladi. Bunday asar kitobxonni dastro'molga piqillashga emas, balki bor ovozi bilan qah-qah otib kulishga majbur qiladi. Hamza Imonberdiyevning "Darsda" she'ri so'z o'yini va nozik qochiriqdan yaralgan yumor asosiga qurilgani bilan yosh kitobxon diqqatini tortadi:

*Yalanglikda gullarga  
Dars o'tardi "Qariqiz":  
"Chalg'imag u -bularga  
Quloq bering baringiz".  
"Qirqquloq" quloqlarin  
Ding etgan tinglashga dars.  
Biroq-chi, o'rtoqlari  
Holi-joniga qo'yimas.*



*Tinglaydi bir qulog'i  
"Qo'g'a" partadoshini,  
Yana bir o'rtog'i  
Go'zal "Kakku yoshini"  
- Qo'ng'iroqqa qancha bor?  
So'raydi "Qashqa beda".  
"Tuyoq o't" so'rar takror:  
Olib keldingmi keda?  
Muallim so'zin, xullas,  
Tinglashga esa bundoq,  
Sinfdoshlardan ortmas  
Qirqtadan bitta quloq.*

She'rda o't-alaflar nomidan tabiiy qochiriq, so'z o'yini keltirib chiqarilgan: chunonchi, yoshi ulug' "Qariqiz" muallima, dars tinglashi kerak bo'lgan "Qirqquloq" ning qirq qulog'i ham band, uni alaxsitayotgan "Qo'g'a" ichi po'k, vaysaqi, "Kakku yoshi" ham ismi jismiga mos ravishda jag'i tinmas, "Tuyoq o't" esa tuyog'iga keda qidiriyapti. Xullas, bu quvnoq kulgu uyg'otadigan tabiiy yumor, uning "qalampiri" ham joyida, gap egasini topadi.

"Chopqir mingoyoq" she'ri ham nomlanishidan kelib chiqadigan tabiiy qochiriq va so'z o'yini asosida yaratilgan:

*Jonivorlar ichida  
Chopqiri  
Qaysi biri?  
To'rt oyoqli otmikan,  
Yo qoplun,  
Yoki arslon?  
Sanjar aytar – Qayoqda.  
Albatta, Mingoyoq-da!*



Hamza Imonberdiyevning ilk she'riy to'plami bo'lmish "Quvnoqlar quvonchi" kitobidagi ushbu jajji she'rda tabiatdagi turli mavjudotlarning nomlanishidan yosh bolaning samimiy sodda nigohi vositasida tabiiy yumor keltirib chiqariladi. Darhaqiqat, ikki oyoqli insondan ko'ra to'rt oyoqli ot yoki qoplon tezroq yugurar ekan, o'z nomi bilan ming oyoqli mingoyoq ularning hammasini oyog'ini changida qoldirib ketishi tabiiy emasmi?

Demak, Hamza Imonberdiyev ijodida olamni o'zicha qayta kashf qilayotgan bolakaylarning o'ziga xos dunyoqarashi asosida kulgu yaratish shoirning ilk she'rlaridan boshlanar ekan deyish mumkin.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. *Yumor bolalar adabiyotining tarbiyaviy va estetik qiymatiga qanday ulush qo'shadi?*
2. *Yumor bolalar ruhiyatiga qanday ta'sir qiladi va ularning dunyoqarashini qanday shakllantiradi?*
3. *Bolalar adabiyotida qaysi janrlar yumor bilan uyg'unlashgan holda yaratilgan?*
4. *Bolalar adabiyotida yumorning ta'sirchanligini oshirish uchun qanday uslublar qo'llaniladi?*
5. *O'zbek bolalar adabiyotida yumor elementlariga ega eng mashhur asarlar qaysilar?*
6. *O'zbek xalq ertaklari va latifalarida bolalar uchun mo'ljallangan yumorning o'rni qanday?*

### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. *Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik.1-tom.-Toshkent: Fan,1979.*
2. *Normatov U. Ijod sehri. Toshkent. Sharq. 2007.*
3. *Rasulov A. Betakror o'zlik. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2009. – B. 191.*
4. *Rahimjonov N. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati. Toshkent. Fan. 2007.*



5. *Safarov O. Bolalik kuychisi. – Toshkent: Fan, 1978. – B.67.*
6. *Yunosov M. Bolalar ko'ngilining bayrami. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1984. – B. 61-62.*
7. *Barakayev R. Jonajonim, she'riyat. – Toshkent: Cho'lpon., 1997. – B. 68-70.*
8. *Qahramonov Q. Bir munozara bahonasida// O'zbekiston adabiyoti va san'ati. -1989. 19mart.*
9. *Normatov.U. Janr imkoniyatlari. G'afur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. T. 1970.*
10. *Sarimsoqov.B.I. Badiylik asoslari va mezonlari. T. Universitet. 2004.*
11. *Hamdam U. Badiiy tafakkur tadriji. T. Yangi asr avlodi. 2002*



## 12-MAVZU: ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA NASRIY TARAQQIYOT.

### Reja:

1. *Istiqlol davri adabiyotida nasr taraqqiyoti*
2. *Epik tur rivojida istiqol bolalar ijodkori*
3. *Nasriy asarlar yutug‘i va ijodkor mahorati*

**Tayanch so‘zlar:** *mustaqillik davri adabiyoti, istiqol davri nasri, jahon bolalar adabiyoti, dunyoqarash*

XX asr o‘zbek bolalar adabiyotining so‘nggi choragi hamda istiqol davri nasri va nazmidagi shakliy, janriy rang-baranglik, mavzu dolzarbligi, mazmundorlik ko‘lami haqida so‘z borganda uni Anvar Obidjon ijodisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

U har qanday mavzuni yoritishda bola ko‘ngiliga mos ohang, davr ruhini aks ettira oladigan va ayni paytda g‘oyat qiziqarli uslub, o‘ziga xos jilo bera olgan shoir, adib va dramaturgdir. Ayniqsa, zamon bilan hamnafaslik, jahon adabiyoti an‘analarini o‘zbek bolalar adabiyotiga singdirish, jumladan, bolalar nasrida ham modernistik obraz va detallar yaratishda milliy ohang uyg‘unligini saqlab qolish ham Anvar Obidjon ijodiga xos tamoyildir.

Adibning “Dahshatli Meshpolvon”, “Meshpolvonning janglari”, yoki “Alamazon va uning piyodalari”, “Yaltiroq tugma” dilogik qissalari, shuningdek, “Oltin yurakli Avtobola” asari shu jihatdan o‘zbek bolalar adabiyotida yangi voqelik hisoblanadi. Bu asarlardagi obrazlar ham shu kunning qahramonlari. Va ular oddiy bola emas: “dahshatli Meshpolvon”, “g‘aroyib, olovko‘ngil Alamazon”, yoki temirtan Avtoboladir.



Ular tinib-tinchimasgina emas, ozodlik va haqiqat uchun, o'z erki va haq-huquqi uchun kurashchuvchan, jasur hamda erkparvar bolalar. Adib shu sababli "Alamazon" turkumidagi qissalarini yosh avlodga, aniqrog'i "ona yurtning jasur farzandlariga" bag'ishlagan. O'zbek bolalar adabiyoti umumadabiyot, jahon va qardosh xalqlar bolalar adabiyoti ta'sirida, ayniqsa, bolalar ijodkorlarining mustaqillik arafasi va istiqlol yillarida yozgan badiiy barkamol, uslubiy va shakliy jihatdan qiziqarli, g'oyaviy dolzarb asarlari bilan to'lishdi.

Jumladan, Anvar Obidjonning turli buyumlar, jonzotlar, o'simliklar haqida, Vatan va yurt ozodligiga bag'ishlangan she'r va doston-qissalari o'quvchini har jihatdan zukko, ma'naviy yetuk, yurt tarixi va xalqiga e'tiqodli bo'lishga undaydi. Uning "Oltin yurakli Avtobola" (1988) ertak-qissasi esa davr nafasini o'zida yorqin aks ettirgan asarlardan biridir.

Ertak-qissa sobiq mustabid tuzum davri bolalar adabiyotining mavjud "qolip"lariga chek qo'yib, jahon ilmiy fantastikasi, o'zbek mumtoz abiyotida kuzatilgan noan'anaviy fantastik obraz yaratish, tafakkuri yangilanayotgan zamon ruhini bolalar adabiyotida namoyon bo'lishi dalilidir. A.Obidjon sermahsul ijodkor. Uning "Ey, yorug' dunyo" (1983, qissa), "Olovjon va uning do'stlari" (1983, qissa va hikoyalar), "Akang qarag'ay Gulmat" (1987, qissa va hajviyalar), "Juda qiziq voqea" (1987, she'rlar), "Oltin yurakli Avtobola" (1988, qissa va hikoyalar), "Dahshatli Meshpolvon" (1989, qissa va pyesalar), "Yerliklar" (1990, hajviyalar), "Alamazon va Gulmat hangomasi" (1992, qissa, pyesa, she'r), "Meshpolvonning janglari" (1994, qissa va doston), "Alamazon va Gulmat" (1998, qissa va she'rlar), "Oltiariq hangomalari", (1999, hajviyalar), "Bulbulning cho'pchaklari" (2001, she'r va hikoyalar), "Odobli bo'lish osonmi?" (2001, hikoya), "Meshpolvon" (2003, qissa), kabi to'plamlari nashr etilgan. Respublika yosh tomoshabinlar teatri hamda Farg'ona, Qarshi, Qo'qon, Guliston teatrlarida



Anvar Obidjonning “Qo’ng’iroqli yolg’onchi”, “Pahlavonning o’g’irlanishi”, “Topsang, hay-hay”, “To’tiqul”, “Qorinbotir”, “Navro’z va Boychechak” pyesalari sahnalashtirilgan. Uning asarlari asosida “O’zbekfilm” kinostudiyasi tomonidan “Tilsimoy-g’aroyib qizaloq”, “Dahshatli Meshpolvon” komediyalari kino tasmasiga tushirilgan. Anvar Obidjon she’rlariga bastalangan qo’shiqlarning asosiy qismi bolalarga bag’ishlangandir. Anvar Obidjonning “0099-raqamli yolg’onchi”, “Ey, yorug’ dunyo”, “Alamazon va uning piyodalari” kabi qissalarida hamda, “Botinkaning tufliga xati” tipidagi turkum she’rlari ham o’quvchini befarq qoldirmaydi. Anvar Obidjon faqat tabiatni tasvirlovchi, turfa xil ramziy, majoziy obrazlar yaratuvchigina emas, balki ijodining kata qismida bolalar dunyosi, ruhiyatini ham tasvir etgan. Uning “Dahshatli Meshpolvon” ertak-qissasi esa mustaqillik arafasida yozilgan tom ma’nodagi “ozodlik varaqalari” edi (Sattorov M.)

Asarda vatanparvarlik va mustaqillik tuyg’usi yosh qahramon timsolida gavdalangan. Adib bu ertak qissani “Alpomish”, “Ravshan” kabi xalq dostonlari ohangida yozadi. Bu o’z navbatida bolalar adabiyotiga xalq dostonlari ruhini olib kirdi, desak yanglishmaymiz.

Yozuvchi qahramonini o’z tilidan xomsemiz, anchayin mechkay, yebto’ymas, hatto bir qadar tekinxo’r tasvirlaydi. Bolaligida buvisining qo’liga qarab o’sgan bo’lsa-da, aqli kira boshlagach, ota-onasini bosqinchi dushmanlar asir qilib olib ketgani, ularning qiynoqda azoblanayotganlarini his qilgach, ko’ngilida isyon tuyg’usi jo’sh uradi.

Meshpolvon ozodlik yo’lida tish-tirnog’igacha qurollanadi: ostida oqsoq xachir, qo’lida dastkalla, o’qlov, qalqon-qozonning yog’och qopqog’i. Bu yurish ishtirokchilaridan biri do’sti, Go’ro’g’libek va Ravshaxonlar avlodidan bo’lgan Oshiqbola.

Muallif Oshiqbolani ham polvonlikda bobolaridan kam emasligini xalq dostonlariga monand tasvirlaydi: masalan,



oltisida o'zini otda erkin tutadigan, yettisida nonga xanjarda yog' surtadigan, sakkizida o'q-yoy bilan tangani yirtadigan... o'n birida uyida oshna kutadigan, o'n ikkisida haftalab ovga ketadigan va h.k. Meshpolvon o'z lashkari bilan bosqinchi Sepkilshohga qarshi ayovsiz jang qiladi. Ular Qizqo'rg'onga yetib kelgach, shundan voqif bo'ladilarki, bu yerda turli mamlakatlardan qul – asira qilib keltirilgan go'zal qizlarni qo'rg'onda “tarbiyalab”, so'ng sayillarda katta pulga sotar ekanlar. Asarda Sepkilshoh saltanatining ma'naviy chirikligi bukri chol tilidan aytilgan fikrlarda oydinlashgan.

Doston-qissa nihoyasidagi hayot-mamot jangi ezgulik va adolatning g'alabasi bilan tugaydi. Sepkilshoh bandilari ham isyon ko'targach, Meshpolvon lashkarlarining qo'li baland keladi. Meshpolvon boshiudan qattiq jarohatlansa ham uning ota-onasi, qarindosh-urug'lari, millatdoshlari, Vatani ozod bo'ladi. Qahratoniya Meshpolvonning do'sti Oshiqbola qo'liga o'tadi. Uni Oytumorga o'ylantirib qo'yishadi. Meshpolvon ota-onasi va tabib qiz Achaxon bilan o'z yurtiga qaytadi. Umuman, ertak qissada xalq og'zaki ijodining ko'pgina janrlaridan keng foydalanilgani uning xalqchilligi, qiziqarliligini ta'minlashga xizmat qilgan. Asarning g'oyaviy dolzarbligi esa hamon pasaygani yo'q. Anvar Obidjonning bolalarga atalgan nasriy asarlaridan yana biri “Alamazon va uning piyodalari”dir. Adibning bu turkum qissalari ham yosh avlodga, aniqrog'i “ona yurtning jasur farzandlariga bag'ishlangan”. Bu asarning qahramoni ham o'smir yoshidagi olovko'ngil yigit – Alamazon. U toshtaqaliklar shevasida gurkirab yonayotgan gulxanni anglatadi. Alamazon turkumidagi qissalar ikki mustaqil asardan iborat. Birinchisi –“Alamazon va uning piyodalari”, ikkinchisi “Yaltiroq tugma”. Ularning har ikkalasi ham mustaqil sujet, maqsad-mohiyatiga ega. Har ikkala asarda qahramon o'z nomiga munosib ekanligi ayonlashadi. Ular o'z yurti, qishlog'i qismatiga bezovta ko'ngil bilan yondashadi. Alamazondagi mushohadakorlik, hayot jumboqlarini yechishga



kuchli ishtiyoq, jamiyatda faol munosabatda bo'lish sezilib turadi. Jumladan, Alamazon – tafakkuri uyg' oq bola. U katta odamlarga o'xshab, xohlagan kitobini tanlab o'qiy olmasa-da, jahon bolalar adabiyotidagi mashhur Chippolino, Buratino, Tom Soyer, Gek Finn, Ravshanbek, Alpomish kabi qahramonlar bilan "Alifbe"ni yod olgandan buyon olishadi. Shuningdek, akasining kitob taxmonidan "O'tkan kunlar"(A.Qodiriy), "Sarob"(A.Qahhor), "Choliqushi" (Rashod Nuri Guntekin), "Anna Karenina" (L.N.Tolstoy)ni ham o'qib chiqishga muassar bo'ladi. Bu kitoblardan ta'sirlangan Alamazon do'sti Eshmat bilan birga xazina qidirishga, agar topsalar yaylov etagida o'n ming kishilik stadion, ko'p qavatli uy qurish, marmar devorli kattakon choyxona qurish, ko'chalarga asphalt yotqizish, o'zlari yashayotgan Qo'chqorsaroy ustidagi ko'priknini yangilash, hatto qishloqda bitta durustroq oshxona qurishni ham mo'ljallashadi. Shuningdek, butun umri boshlang'ich sinflarga dars berish bilan o'tgan Ahmadali otaga atab terak bo'yi haykal o'rnatmoqchi bo'ladilar.

Umuman, qissalardagi obrazlar, nomlar va tafsilotlar goh fantastik detallar orqali, goh tamsiliy, kinoyaviy ifoda etilarkan, yozuvchining ko'zlagan maqsadi yosh kitobxonlarni mushohadaga undash, o'z yurti tarixini o'rganish, Vatani va xalqining taraqqiyotiga ulush qo'shishga undash ekanligi anglashiladi. Alamazon tog'asi kashf qilgan uxlatadigan doridan ichib uxlab qoladi-da, asar tarkibidagi sarguzashtlar, g'orga qilingan sayohatlar aslida tushda bo'lgani, Zimistonsaroy, Yulduzistondagi voqealar, kishilarni uyqusida ko'rgani dori ta'siri ketgach ayonlashadi. Ammo, Alamazon uyqudan uyg'onsa ham uning ta'siridan qutulolmaydi.

U g'ordagi odamlarga yorug' dunyoni boshlab borishiga va'da beradi: "–Azizlarim, menga ishonib, men baribir sizlarni yolg'iz qoldirmayman. Sizlarni, siz bilan birga Yulduzistondagi hamma odamlarni qorong'u g'ordan yetaklab chiqaman. Hammangiz quyoshni ko'rasiz, quyoshni! Men Yorug' dunyo nomidan



gapiryapman..."Anglashiladiki, Anvar Obidjonning yuqoridagi qissalarida Vatan mustaqilligi orzusi ilgari surilgan.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek bolalar adabiyotining yosh avlod dunyoqarashini shakllantirishdagi muhim o'rni avvalo, shunday asarlar orqali yaqqol ko'zga tashlanadi.

Zero, istiqlol davri o'zbek bolalar adabiyotida ham mavzularning rang-barang talqini, g'oyaviy dolzarbligi obraz va mundariyasi takomillashdi. Yangi voqelikni o'zida teran aks ettirayotgan adabiy ijod namunalari bugungi bolalar adabiyotining eng katta yutug'idir. Bu jihat A.Obidjonning ertak-dostonlarida yaqqol ko'rinadi: **Anvar Obidjon** faqat tabiatni tasvirlovchi, turfa xil ramziy, majoziy obrazlar yaratuvchigina emas, balki ijodining kata qismida bolalar dunyosi, ruhiyatini ham tasvir etgan. Uning "Dahshatli Meshpolvon" ertak-qissasi esa mustaqillik arafasida yozilgan tom ma'nodagi "ozodlik varaqalari" edi(SattorovM.). Asarda vatanparvarlik va mustaqillik tuyg'usi yosh qahramon timsolida gavdalangan. Adib bu ertak qissani "Alpomish", "Ravshan" kabi xalq dostonlari ohangida yozadi. Bu o'z navbatida bolalar adabiyotiga xalq dostonlari ruhini olib kirdi, desak yanglishmaymiz.

Yozuvchi qahramonini o'z tilidan xomsemiz, anchayin mechkay, yebto'ymas, hatto bir qadar tekinxo'r tasvirlaydi. Bolaligida buvisining qo'lga qarab o'sgan bo'lsa-da, aqli kira boshlagach, ota-onasini bosqinchi dushmanlar asir qilib olib ketgani, ularning qiynoqda azoblanayotganlarini his qilgach, ko'ngilida isyon tuyg'usi jo'sh uradgi. Meshpolvon ozodlik yo'lida tish-tirnog'igacha qurollanadi: ostida oqsoq xachir, qo'lida dastkalla, o'qlov, qalqon-qozonning yog'och qopqog'i.

Bu yurish ishtirokchilaridan biri do'sti, Go'ro'g'libek va Ravshaxonlar avlodidan bo'lgan Oshiqbola. Muallif Oshiqbolani ham polvonlikda bobolaridan kam emasligini xalq dostonlariga monand tasvirlaydi: masalan, oltisida o'zini otda erkin tutadigan,



yettisida nonga xanjarda yog' surtadigan, sakkizida o'q-yoy bilan tangani yirtadigan... o'n birida uyida oshna kutadigan, o'n ikkisida haftalab ovga ketadigan va h.k. Meshpolvon o'z lashkari bilan bosqinchi Sepkilshohga qarshi ayovsiz jang qiladi. Ular Qizqo'rg'onga yetib kelgach, shundan voqif bo'ladilarki, bu yerda turli mamlakatlardan qul – asira qilib keltirilgan go'zal qizlarni qo'rg'onda “tarbiyalab”, so'ng sayillarda katta pulga sotar ekanlar.

Asarda Sepkilshoh saltanatining ma'naviy chirikligi bukri chol tilidan aytilgan fikrlarda oydinlashgan. Doston-qissa nihoyasidagi hayot-mamot jangi ezgulik va adolatning g'alabasi bilan tugaydi. Sepkilshoh bandilari ham isyon ko'targach, Meshpolvon lashkarlarining qo'li baland keladi. Meshpolvon boshidan qattiq jarohatlansa ham, uning ota-onasi, qarindosh-urug'lari, millatdoshlari, Vatani ozod bo'ladi. Qahratoniya Meshpolvonning do'sti Oshiqbola qo'liga o'tadi. Uni Oytumorga o'ylantirib qo'yishadi. Meshpolvon ota-onasi va tabib qiz Achaxon bilan o'z yurtiga qaytadi.

Umuman, ertak qissada xalq og'zaki ijodining ko'pgina janrlaridan keng foydalanilgani uning xalqchilligi, qiziqarililigini ta'minlashga xizmat qilgan. Asarning g'oyaviy dolzarbligi esa hamon pasaygani yo'q. XX asr o'zbek bolalar adabiyotining so'nggi choragi hamda istiqlol davri nasri va nazmidagi shakliy, janriy rang-baranglik, mavzu dolzarbligi, mazmundorlik ko'lami haqida so'z borganda uni Anvar Obidjon ijodisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

U har qanday mavzuni yoritishda bola ko'ngiliga mos ohang, davr ruhini aks ettira oladigan va ayni paytda g'oyat qiziqarli uslub, o'ziga xos jilo bera olgan shoir, adib va dramaturgdir. Ayniqsa, zamon bilan hamnafaslik, jahon adabiyoti an'alarini o'zbek bolalar adabiyotiga singdirish, jumladan, bolalar nasrida ham modernistik obraz va detallar yaratishda milliy ohang uyg'unligini saqlab qolish ham Anvar Obidjon ijodiga xos tamoyildir.

Adibning “Dahshatli Meshpolvon”, Meshpolvonning janglari”, yoki “Alamazon va uning piyodalari”, “Yaltiroq tugma”



dilogik qissalari, shuningdek, "Oltin yurakli Avtobola" asari shu jihatdan o'zbek bolalar adabiyotida yangi voqelik hisoblanadi. Bu asarlardagi obrazlar ham shu kunning qahramonlari. Va ular oddiy bola emas: "dahshatli Meshpolvon", "g'aroyib, olovko'ngil Alamazon", yoki temirtan Avtoboladir. Ular tinib-tinchimasgina emas, ozodlik va haqiqat uchun, o'z erki va haq-huquqi uchun kurashchuvchan, jasur hamda erkparvar bolalar. Adib shu sababli "Alamazon" turkumidagi qissalarini yosh avlodga, aniqrog'i "ona yurtning jasur farzandlariga" bag'ishlagan.

"Alamazon va uning piyodalari" qissasining bosh qahramoni Alamazon. U toshtaqaliklar shevasida gurkirab yonayotgan gulxanni anglatadi. Alamazon yoshligidanoq kitobga mehr qo'yib, jahon bolalar adabiyotidagi tengdoshlari CHippolino, Buratino, Tom Soyer, Gek Finni, o'zbek xalq dostonlaridan Ravshanbek, Alpomish kabi qahramonlarni savodi chiqqandan buyon taniydi, shuningdek, o'zbek va jahon mumtoz adabiyot durdonalaridan bahramandligi ayonlashadi. Alamazon bu kitoblarni shunchakè o'qish bilan cheklanmay, ulardan ta'sirlanib, do'sti Eshmat bilan xazina qidirib topish, topganda uni nimalarga sarflash haqida reja tuzadi. Y'ng avvalo, yaylov etagida o'n ming kishilik stadion, ko'p qavatli uy, marmar devorli kattakon choyxona qurish, ko'chalarga asfal't yotqizib, ko'prikni yangilash, umuman, qishloqlarida zamonaviy inshootlar barpo etish, hatto butun umri boshlang'ich sinflarga dars berish bilan o'tgan Ahmadali otaga atab, terak bo'yi haykal o'rnatmoqchi bo'ladi. Yozuvchi bu asarni 1976-78 yillarda yozganiga e'tibor berilsa, uning dolzarbligi va kelajakni yorqin tasvir eta olish mahorati yanada oydinlashadi.

Ayniqsa, bolalar kitobxonligida hikmat ko'pligi Alamazonning uyg'oq tafakkuri bilan ko'rsatib berilgan. Rost, qissadagi voqealar ertaklarga xos sayohat, tush ko'rish, tilsimlanish motivlari yordamida tasvirlanadi. Goh ilmiy-fantastik, goh realistik bo'yoqlarda badiiy talqin etilgan hikoyalar zaminida hayot



haqiqati yotadi, albatta. Alamazon tog'asi professor Og'abek Turkoniy olib kelgan antiqa dori – uni tatib ko'rganda kishi xuddi ertaklardagidek murod maqsadga etishiga qiziqib qoladi: buni o'zi va o'rtog'i Ýshmatda sinab ko'radi. U Jek Londonning “Uch ko'ngil” kitobidagi qahramonlar, ularning g'ordan topgan behisob xazinalari haqida xayol surib yurganidan, o'zlarining Jandag'origa ham “xazina bijib yotgan”iga ishonganidan, dori ta'sirida uxlagach, tushida Zimistonsaroy orqali Yulduzistonga kelib qoladi. U erda Humo Xartum, Qo'tirlar sulolasi, Isqirtlar mamlakati va ular boshqargan tuzum hamda odamlari bilan tanishishga muyassar bo'ladi. Tirtiq, Shiltiq, Qo'tir Beshinchi, Malika Maston, Idris Ibrohim, Barri Baraka, Qo'tir Beshinchi, Fisqiddin Makru Maraz, Isom Ittu Iskabtopar, Hoshim Heziddin Xum kabi kasb-kor va fe'l-atvor bildiruvchi kishilar bilan tanishadi. Ayniqsa, qo'tirlar sulolasi tugab, Isqirt Birinchining taxtga o'tirish marosimi shunday bayon qilinadi: “-He-he, he-e-e-ey! Eslilaru nodonlar, xafalaru shodonlar, go'ng hidlagan cho'ponlar, gul hidlagan juvonlar, eshitmadim demanglaro-o-ov! Isqirt Birinchi padari oliylari mamlakat aholisiga katta g'amxo'rlik ko'rsatib, bugundan e'tiboran ularni yuvinish va cho'milishdek mushkulotdan butunlay ozod qiladilar... qasddan yuvinayotgan yoki cho'milayotgan paytda qo'lga tushirilgan baliqqadarlar esa xavfli g'alayonchi sifatida achigan zindonga tashlanadilar.” (36-b.) Bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari tasnif qilinganda uning ikki yo'nalishli ekani, bolalar uchun asar syujeti, kattalarga esa g'oyasi muhimligi ta'kidlanadi. Mazkur asar katta-yu kichik kitobxonga birdek xizmat qila olishi shundan. Bolalar qahramonlarning nomlanishi, Isqirt Birinchi yuvinishni yo'lini ko'rgani uchun butun mamlakat isqirtlikka yuz tutishi, unga xizmat qiladigan Dutoriy singari shoirlarning “Yuvmagan betingiz muncha chiroyli, Mog'or bosgan etingiz buncha chiroyli, U yoningiz kir erur, bu yoningiz kir...” qabilidagi she'rlar bitib, irkitlikni ommalashtirishga ulush



qo'shganidan miriqib kulsa, etuk tafakkurli insonlar bu kinoyalar ostida zil-zimbil dard, yaqin o'tmishdagi tarixning majoziy tasviri aks etganini yaqqol anglaydi. Shu ma'noda asardagi Yulduziston, Ajdarobod, Elkantog', Tandir, Jandag'or, Issiqg'or, Qo'chqorsoy kabi joy nomlari ham ramziy tamsillardir.

Adibning o'rta asrlar tarixi, sobiq mustabid tuzum davri voqealarini goh xalq dostonlari ohangida, goh hajvga yo'g'irib, goh esa bolalarga xos yashirin tilda aks ettirishi bejiz emas. Unda uchragan joy va odamlar nomi biror geografik xarita yoki asarda uchramaydi. Bularning ko'pchiligi muallif topilmasi. Ammo ular o'quvchini mushohadaga undaydi. Chunki har bir ifoda va obraz talqinida ramziylik ustuvor. Qahramonlar o'zi tug'ilib o'sgan qishloq, yurti tarixini, ulug' mutafakkirlar qoldirgan ma'naviy merosdan bahramand bo'lishni juda-juda xohlaydi, dinini chalachulpa biladigan, o'tmishidan xabarsiz, soxta, isqirt dohiylar boshqarishi tufayli nopoklikka yuz tutgan mamlakat qachondir yorug'likka chiqishiga ishonishadi.

Bunda Humo Xartum alohida o'rnak bo'ladi. Zotan, Alamazon uyqudan uyg'onsa ham g'ordagi odamlarni Yorug' dunyoga boshlab borishga va'da beradi: "- Azizlarim, menga ishoning, men baribir sizlarni yolg'iz qoldirmayman. Sizlarni, siz bilan birga Yulduzistondagi hamma odamlarni qorong'i g'ordan etaklab chiqaman..." Asarning bosh g'oyasi - Yorug' dunyoga chiqish. Bu so'z zamirida nima yotgani endi barchaga ma'lum. Uning cheksiz mohiyati va imkoniyatlari chorak asr davomida birma-bir namoyon bo'lib kelmoqda. Ammo asar yozilgan vaqtda chindan ham o'sha "Qora tuynuk" qachon ochilishi noma'lum edi.

Istiqlol tufayli Humo qushi xalq boshiga qo'ndi. Natijada, avlod-ajdodini tanimay ulg'ayayotgan Yulduziston farzandlari Zimistonsaroydan qutulganiga amin bo'lamiz. Yorug' dunyo nafaqat bugungi kunlar, balki, keng dunyoga intilish, tanilish timsoli hamdir. Shu ma'noda A.Obidjonning "Alamazon va uning



piyodalari” qissasida intellektual salohiyati yuqorè bo’lgan yosh qahramonning vatanparvarlik, yurtparvarlik tuyg’ulari yorqin namoyon bo’lgan.

Asarda xalq onaga, mamlakat esa uning yo’rgagidagi go’dakka o’xshatilishida ham hikmat bor. Mamlakat necha asrlik tarix davomida turli amaldorlar qo’lida har xil kuyga tushsa-da, xalq o’zligida sobit qolib, qadriyatlari, urf-odatlarini, ma’naviy merosini butunlay unutib yuborgani yo’q, degan qarash mavjud. Umuman, qissada o’tmish va kelajak, tarix va taqdirlar erk va ozodlik motivlarida o’zaro tutashadi. Humo Xartum, shoh Feruz, Majiddin Ravshaniy, professor Og’abek Turkoniy obrazlari talqinida olis va yaqin tariximizdagi hayot bilan birga kelajakda qilinajak kashfiyotlar uyg’unlashib ketadi. Asar “hazilga o’ch” bolalar uchun lirik va komik maylga sug’orilgan ekan, undagi bosh g’oya esa har bir kitobxonning tafakkuri bilan birga ulg’ayib, anglanib borishiga shubha yo’q.

O’zbek bolalar adabiyoti umumadabiyot, jahon va qardosh xalqlar bolalar adabiyoti ta’sirida, ayniqsa, bolalar ijodkorlarining mustaqillik arafasi va istiqloq yillarida yozgan badiiy barkamol, uslubiy va shakliy jihatdan qiziqarli, g’oyaviy dolzarb asarlari bilan to’lishdi. Jumladan, Anvar Obidjonning turli buyumlar, jonzotlar, o’simliklar haqida, Vatan va yurt ozodligiga bag’ishlangan she’r va doston-qissalari o’quvchini har jihatdan zukko, ma’naviy etuk, yurt tarixi va xalqiga e’tiqodli bo’lishga undaydi. Uning “Oltin yurakli Avtobola” (1988) ertak-qissasi esa davr nafasini o’zida yorqin aks ettirgan asarlardan biridir. Yrtak-qissa sobiq mustabid tuzum davri bolalar adabiyotining mavjud “qolip”lariga chek qo’yib, jahon ilmiy-fantastikasi, o’zbek mumtoz abiyotida kuzatilgan noan’anaviy fantastik obraz yaratish, tafakkuri yangilanayotgan zamon ruhini bolalar adabiyotida namoyon bo’lishi dalilidir. Ertak-qissadagi etakchi obraz - Avtobola. U oddiy emas, oltin yurakli robot bola. O’zbek adabiyotida robot obrazini ko’pgina asarlar,



jumladan, fantast adib H.Shayxovning “Olmos jilosi” qissasidagi Beganaz timsolida ko‘rish mumkinligi ilmiy asoslangan.

A.Obidjonning Avtobolasi esa ancha mukammallashgan,shu bilan birga, o‘zbek bolalar adabiyotidagi ilk robot boladir. U ayyorlikni mutlaqo bilmaydigan, to‘g‘riso‘z, soddadillik, mehribonlik va pokizalik timsoli. Bu obraz qissaning 4-hikoyasidan boshlab, asosiy qahramonlar - Bekxo‘ja, Kamol Kamtariy, Supersur hayotidagi voqealardan yigirma yil o‘tgach, muxbirlar tarqatgan yangilik sifatida tilga olinadi. Muxbirning shov-shuvli hodisa haqidagi savoliga professor javobidan bu temirtan fikran barkamol avtoodam emas, balki jamiyat oldidagi burchini hali chuqur his qila olmaydigan kibernetik Avtobola ekani, uning mustaqil fikrlay olish qobiliyati birmuncha chegaralangani, unga muntazam ravishda yo‘lyo‘riqlar berib turish joizligi anglashiladi. Oltin eng noyob qimmatbaho, nodir metall, zar, tilla bo‘lib, har qanday qimmatbaho yoki aziz narsaga nisbatan ham aytiladi. Har bir bolaning yuragi chindan ham dunyodagi eng pokiza, asl tuyg‘ularga limmo-lim. Faqat nosog‘lom muhitgina ularni qing‘ir yo‘lga boshlashi mumkin.

Bola tabiatan yo‘l-yo‘riqqa ehtiyojmand bo‘lsa-da, “avto” (yunoncha “autos”) so‘zining “o‘zi”, “o‘zim” ma‘nosini anglatishida bolaning mustaqillikka intilishi yotadi. Ayni paytda uning soatiga 170 kmgacha yugurib, avtomatik boshqarilishi natijasida har qanday topshiriqni bajarishi zohiriy ma‘nosidir. A.Obidjon asarda ezgulikka yo‘g‘rilgan bolalik olamini o‘z manfaatlari yo‘lida yovuzlikka boshlagan jamiyat munosabatini ifodalaydi.

Bekxo‘janing otasi bir vaqtlar paxtachi boy bo‘lgan. Hokimiyat “qizil”larga o‘tgach, u bor bisotini tualarga ortib, to‘ng‘ich xotini va bolalarini ergashtirib, uzoq yurtga bosh olib ketadi. Kenja xotini qattiq shamollashdan betob yotgani sababli olti oylik o‘g‘li Bekxo‘ja bilan shaharda qoladi. Boyning paxta zavodi, dang‘illama uylari, qolgan-qutgan mol-mulki davlat tomonidan musodara



qilingach, faqat shahar chetidagi kichik chorbog' kenja xotiniga xatlab beriladi. Bekxo'janing onasi savodxon ayol bo'lib, hamma uni Otin bibi deb atardi. Otin bibi o'g'lini bilimdon, tadbirkor, so'zamol qilib tarbiyalaydi. Bekxo'ja yoshi etib, maktabga borgach, dunyoviy ilmlarni egallashga ham zo'r ishtiyoqi borligini ko'rsatadi. Bekxo'ja nomida beklik, xo'jayinlik bo'lsa-da, uning o'tmishi "qorong'i". Bolaligida uni "sarqit", "paxtachi boy"ning zurriyodi sifatida tahqirlashgan. Maktabda zehni o'tkir bo'lishiga qaramay, armoni ko'p. "Olamda shunaqa narsalar borki, - deydi Bekxo'ja Kamol Kamtariyga,-ularni laboratoriyalarda yasab bo'lmaydi. Ko'z o'ngimda qanchadan-qancha jahonshumul kashfiyotlar qilindi, lekin biron-bir kashfiyotchi menga ota yasab berolmadi. Bolalik, o'spirinlik davrim mung'ayish, farzandini erkalab turgan otalarga ichikib termulish bilan o'tdi. Sen buni tushunasanmi, olim". Ertak-qissada Bekxo'janing yoshligida tarixni sevishi, ajdodlarimiz qahramonliklaridan faxrlanishi, tarix darsini o'qimagan, tushunmagan tengdoshlaridan g'azablanishi tilga olinadi.

Yozuvchi ertak-qissani shu tariqa real hayot muammolari bilan to'yintirib boradi. A.Obidjon o'zbek bolalar adabiyotida birinchilardan bo'lib yosh avlodni iqtisodiy jihatdan to'g'ri tarbiyalashga e'tibor qaratib, shaxsiy manfaatdorlik, pul va boylikning inson hayotidagi o'rnini ko'rsatar ekan, inson pulga sajda qilib, uni hayotining mazmuniga aylantirib yubormaslik, hayotda undan qimmatliroq narsalar - mehr-oqibat, vijdon va insof, g'urur borligini kitobxonlar ongiga etkazishni maqsad qilib qo'yadi. Qissadagi Avtobola, Pufak momo, Xoldor kabi obrazlar timsolida esa erk va ozodlik, hur fikrlilik, ma'naviy farovonlik, ezgulik g'oyalari ulug'langan. Pufak momo va uning paxmoq sochli nevarasi eshak minib, ko'chama-ko'cha tomosha ko'rsatib yurishidagi erkinlik har qanday tilla buyumlar-u saroydan afzalligini qafasdagi qush singari qamab qo'yilgan.

Avtobola va Xoldor anglab etadi. O'zlarining tutqun ekanligini Ko'rshapalak va Supersur suhbatidan eshitgan bolalar



xo'jayinlaridan ozodlik va erkinligini talab qilib, oshkora tahdid boshlaydi. Bekxo'ja esa "aldagani bola yaxshi" qabilida ish tutadi. Bolalarni tilla buyumlar ko'rgazmasidan oltin dubulg'ani o'g'irlab kelgach, ozodlikka chiqarishga va'da qiladi. Ammo, Avtobola bu topshiriqni bajarishi bilan "o'lim"ga - temir-tersakka aylanishga hukm etiladi. Odamlardan qattiq ranjigan Avtobola "o'lgan"da ham ko'zlari ochiq qolib: "Erkimni himoya qilolmas ekansan, nega meni yaratding?", - degan savolni tinimsiz takrorlayotganga o'xshardi. Ha, roppa-rosa bir asr ilgari el-yurt ozodligi, erki uchun shunday aldamqaldam va'dalar berilgani, ezgu-maqсад yo'lida tinimsiz sa'y-harakat qilgan yosh jadidlarning qatag'on qilingani va bu qatag'on turli ko'rinishda yana uzoq yillar davom etgani zamondosh o'quvchiga tarixdan ma'lum.

Zero, ertak-qissa yozilgan davr ham buni "aytsa til kuyadi"gan edi. Shunga qaramay, Anvar Obidjon o'zbek bolalar adabiyotida birinchilar qatorida robot bola timsolida o'z tutqunligini anglab etgan avlod qismatini hikoya qildi. Istiqlol tongini ko'ra olgan ijodkor Bekxo'jalarning jar yoqasida ekanini ta'kidlaydi. Avtobola temir-tersakka aylanishida esa yozuvchining g'oyaviy maqsadi ayon: erksiz va tutqunliqda yashash endi mumkin emas. Ammo Avtobolaning nidosi ota-onalarga qaratilgandek go'yo.

Har bir bolaning kelajagiga ularni dunyoga keltirgan ota-ona mas'ul. Aks holda dunyoga keltirish kerak emas. Bu tushuncha mohiyati hamon dolzarb. Xulosa qilib aytganda, o'zbek bolalar adabiyotining yosh avlod dunyoqarashini shakllantirishdagi muhim o'rni avvalo, shunday asarlar orqali yaqqol ko'zga tashlanadi. Zero, istiqol davri o'zbek bolalar adabiyotida ham mavzularning rangbarang talqini, g'oyaviy dolzarbligi obraz va mundariyasi takomillashdi. Yangi voqelikni o'zida teran aks ettirayotgan adabiy ijod namunalari bugungi bolalar adabiyotining eng katta yutug'idir. Bu jihat A.Obidjonning ertak-dostonlarida yaqqol ko'rinadi



### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. *Istiqloq davri o'zbek bolalar adabiyotida nasriy taraqqiyot qanday bosqichlardan o'tgan?*
2. *Mustaqillik bolalar adabiyotidagi nasriy asarlarning mazmuni va shakliga qanday ta'sir ko'rsatdi?*
3. *Istiqloq davrida o'zbek bolalar adabiyotining nasriy taraqqiyotida qaysi yozuvchilar yetakchi o'rin egallagan?*
4. *Istiqloq davri bolalar adabiyotida milliy va zamonaviy unsurlarni uyg'unlashtirish unsurlari qanday?*
5. *Istiqloq davri o'zbek bolalar nasrida qaysi asarlar o'ziga xosligi bilan ajralib turadi?*

### Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. *Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. – Bolalar adabiyoti. Darslik / T.: "Sharofat-fayz", 2022. - 320 b.*
2. *Jamilova B. O'zbek bolalar adabiyoti. O'quv qo'llanma. T.: Innovatsiya-Ziyo. 2021. - 222 b.*
3. *Jamilova B. Bolalar adabiyotida poetik tafakkurning yangilanishi. T., 2022.*
4. *Sh.Karimova. Bolalar adabiyoti. Toshkent, "Pagesprint" nashriyoti, 2024.*
5. *To'xtayeva N. Istiqloq davri o'zbek bolalar she'riyatining yetakchi xususiyatlari. Diss.avtoref. T., 2019.*
6. *Иброҳимова З. Кичкинтойлар адабиётининг хусусиятлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 120 б.; шу муаллиф. Қувноқликка яширинган изтироблар. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2005. – 36 б.;*
7. *Sh.Karimova. Bolalar adabiyoti. Toshkent, "Pagesprint" nashriyoti, 2024.*



## 13-MAVZU: BOLALAR ADABIYOTI DARMATURGIYASI VA PUBLISISTIKASI

### Reja:

1. *Bolalar adabiyotida dramatik tur va uning xususiyatlari*
2. *Dramatik janr ko'rinishlari va yangiliklar*
3. *Drama janri muvaffaqiyatlari va bolalar dramaturglari faoliyati*

**Tayanch tushunchalar:** *Bolalar dramaturgiyasi, axborot texnologiyalari asri, ommaviy madaniyat, ma'naviy olam*

Mustaqillik yillaridagi yangilanish barcha sohalar qatori adabiyot va san'atning turli janrlarida ham o'z ifodasini topdi. Shunday siralardan biri dramaturgiyadir.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, dramaturgiya adabiyot janrining eng murakkab sohasi sanaladi. Bolalar dramaturgiyasi esa inchinun. Bu soha hamma vaqt eng dolzarb masala bo'lib kelgan va kelmoqda. Azal-azaldan bolalar dramaturgiyasidagi muammolar o'z yechimini topgan emas. Bizga yaxshi ma'lumki, bolalar uchun nazmda ijod qilgan shoirlar kam bo'lmagan. Biroq nasrda bolalar uchun deyarli pyesalar yozilmagan. Teatr jamoalari uchun maxsus pyesalar yozilgan bo'lsa-da, ular yaxlit kitob holda yoinki matbuot sahifalarida chop etilmagan. Dramaturglar pyesalarini to'g'ridan-to'g'ri teatr jamoasiga olib borishgan. Va hozir ham bu jarayon davom etib kelayapti.

Teatrlar ko'proq o'zbek xalq ertaklari yoxud xalq og'zaki ijodi namunalaridan kengroq foydalanishgan. Bu orada taniqli yozuvchilarning Ba'zi asarlarini inssenirovka qilib, sahnaga olib



chiqish hollari ham uchraydiki, buni ijodda o'ziga xos uslub deyish mumkin.

Mustaqillik yillarida bolalar uchun ham bir qancha badiiy asarlar yaratildiki, dramaturgiya maydonida taniqli shoir Anvar Obidjon, olim va dramaturg Shuhrat Rizayev, yozuvchi Tohir Malik, Sharof Boshbekov, Salohiddin Sirojiddinov, Erkin Xushvaqtov singari ijodkorlarning paydo bo'lishi yaxshi natija edi. Bu ijodkorlarning asarlari jajji, o'rta yosh va o'smir yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan bo'lib, ular sahna yuzini ko'rdi. Albatta, bu kabi asarlar bugungi kun yoshlari uchun nihoyatda ahamiyatlidir. Lekin bu bilan biz hali bolalar dramaturgiyasi oldida turgan muammolar o'z yechimini topdi, deyishga haqli emasmiz. Masalaning boshqa tomonlari ham borki, bu quyidagilarda o'z aksini topadi.

Birinchidan, sir emaski, bugun biz axborot texnologiyalari asrida yashayapmiz. Bu esa yoshlarimiz turmush tarzi, ma'naviyati, dunyoqarashi, ongu shuurida salbiy va ijobiy burilish yasayapti, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bugun uyali telefon, internet tarmoqlarida ishlashni deyarli barcha o'smir yoshlar yaxshi biladi. Hissiz bu vositalarning salbiy tomoni shundaki, u o'smir yoshlarning ko'ngillaridagi insoniylik his-tuyg'ularini tarbiyalamaydi. Aksincha yoshlar ko'ngilida shafqatsizlik, badjahllik, beparvolik, loqaydlik kabi qirralarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bir so'z bilan aytganda, ko'ngil va ruh tarbiyasini, yoshlar tafakkurini o'tmaslashtirishga olib keladi.

Ikkinchidan, chetdan yoppasiga bostirib kelayotgan "ommaviy madaniyat" esa har bir yoshni o'z domiga tortib ketayotgani ham bor gap. Ko'cha-ko'ylarda internet tarmoqlari orqali turli axborotlarni o'zlashtirishga, qimmatli vaqtlarini kompyuter xonalarida soatlab o'yin o'ynashga, uyali telefondagi behuda yozishmalarga sarflayotgan yoshlar ham kam emas.



Uchinchidan, bunday ta'sirlar oqimidan bizni faqat adabiyot va san'atgina qutqarib qolishi mumkinligini hayotning o'zi isbotlab turibdi. Bugun bolalar uchun istalgan mavzuda badiiy jihatdan mukammal asarlar yaratish mumkin. Faqat uni qay holatda taqdim etish, bolalar ruhiyatiga, ko'ngiliga singdirish mumkinligi ijodkordan katta mahorat talab etadi. Bugungi globallashuv davrida internet tarmoqlarining yoshlar ongiga zarari va ta'siri, uning oqibatlarini haqida nima uchun sahna asari yozib bo'lmaydi. Vaqt shu qadar odimlab ketayaptiki, har bir ijodkor bu imkoniyatlardan to'g'ri va oqilona foydalana bilmog'i zamon talabidir.

Binobarin, hayot bilan hamqadam bo'lish, bolalarning ruhiyatiga xos va mos asarlar yaratish bu kunning eng dolzarb masalasidir.

Bolalar dramaturgiyasi haqida so'z ketar ekan, yana bir muhim masala yuzasidan fikr bildirishni kerak, deb bilamiz. Bu masala – badiiy asarlarda zamon qahramoni masalasidir. Nazarimizda, bugungi davr yoshlari uchun kimni zamonamiz qahramoni deb ko'rsatish ham diqqat va e'tibor talab qiladigan masala. Yoshlarimizga Alpomish, Go'ro'g'li singari xalq dostonlari asosida sahna asarlari yoxud millat sha'ni va shavkati uchun kurashgan buyuk ajdodlarimiz Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi sohibqironlarimiz haqida yoyinki mumtoz adabiyotimizda ulkan ma'naviy meros qoldirgan Navoiy, Bobur singari allomalarning ibratli hayoti va ijodi, ularning bolaligi haqida sahna asarlari yozish payti kelmadimikin, deb o'ylab qolasan kishi. Holbuki, bizning yurtimizda bunday ulug' siymolar, ular qoldirgan ma'naviy meros behisob. Bugungi aksariyat yoshlarimiz esa bular haqida yaxshi bilmaydilar.

Bolalar uchun xoh tarixiy mavzu, xoh zamonaviy mavzu bo'lsin ibrat bo'la oladigan qahramon juda-juda zarur. Negaki, bugun o'sib-ulg'ayib kelayotgan yosh kimgadir havas qilgisi, o'xshagisi, o'sha qahramon qiyofasida o'zini ko'rgisi keladi va bunga intiladi.



Gap shundaki, o'sha qahramonning o'zi kim? U qay jihatlari bilan, qay fe'l-atvori bilan yoshlarga o'rnak bo'la oladi? degan savol har bir ko'ngili uyg'oq ijodkorni o'ylantirishi kerak. Yana bir muhim masala. Bugun, hamonki, bolalar uchun maxsus asarlar yozilmayotgan ekan, bolalar uchun yozilgan badiiy asarlarni inssenirovka qilish nega mumkin emas? Masalan, yozuvchi Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sehrli qalpoqcha" va shu singari asarlarini xuddi Tohir Malikning "Alvido, bolalik" qissasi kabi inssenirovka qilinib, sahnaga olib chiqilsa bo'ladi-ku?! Nazaramizda, biz ana shunday uslub va usullardan ham keng foydalana bilishimiz kerak.

Bundan tashqari jahon dramaturglarining ham asarlariga murojaat qilish, bizningcha, yaxshi natija beradi. Yoshlarning estetik didini shakllantirishda, tarbiyalashda, ko'ngilida g'urur va iftixor tuyg'ularini singdirishda, qolaversa, milliy istiqlol va milliy g'oya, qadriyat hamda an'analar kabi tushunchalarning paydo bo'lishida, bolalar dramaturgiyasining, adabiyotning va sahnaviy asarlarning o'rni hamda ahamiyati beqiyos ekanini unutmash kerak. Bu borada, adabiyot namoyandalari, dramaturglar, bolalar yozuvchilari yoshlarimiz uchun, kelajak avlod uchun badiiy jihatdan puxta, mazmunan teran, ham zamonaviy, ham tarixiy mavzulardagi asarlarni yaratishga kirishishlari muhimdir.

Ta'kidlab o'tish joizki, Prezidentimizning: "Biz farzandlarimizning ruhiy dunyosi uchun, ularning ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, jismonan sog'lom bo'lishi uchun doimo qayg'urishimiz, kurashmog'imiz zarur", degan so'zlari ijodkorlarimiz uchun hamisha dasturulamal bo'lib qolishi kerak.

Zero, bugun axborot asrida yoshlar oldida turgan dolzarb vazifalar, muammolar, yutuqlar, ularning ma'naviy olami yaratilayotgan asarlarda badiiy ta'sirchan ochib berilsagina, kutilgan natijalarga erishish mumkin.



Dramaturglarimiz oilaviy-maishiy mavzular atrofida o'ralashib qolmasdan, atrofga kengroq nazar solishlari, ayniqsa, bolalar ko'ngiliga chuqurroq kirib borishlari talab etiladi. Xalqimiz hayotida, yoshlar va bolalar olamida har kun, har daqiqa o'zgarishlar, yangilanishlar bo'lib turibdi. Bu jarayonlarni diqqat bilan kuzatib, yutuq va kamchiliklarga ro'y-rost munosabat bildirish har birimizning, jumladan, ijodkorlarning ham burchi. Biz ijod ahlidan bolalar uchun maxsus, badiiy puxta, mazmunan teran, ularni fikrlashga undaydigan, ko'ngilan ulg'ayishga safarbar etadigan, qiziqarli asarlar kutishga haqlimiz.

Zero, yosh tomoshabinlarni tarbiyalashda, estetik didining shakllanishida, ko'ngilida g'urur, iftixor, vatanparvarlik tuyg'ularini singdirishda, qolaversa, milliy qadriyat va an'analar kabi tushunchalarning paydo bo'lishida sahnaga olib chiqilayotgan asarlarning ahamiyati hamda o'rni beqiyos ekanini unutmash kerak. Bu borada, adabiyot namoyandalari, dramaturglar bolalar uchun badiiy jihatdan puxta, mazmunan teran, bugungi kun yoshlariga mos bo'lgan zamonaviy mavzulardagi asarlar yaratishga e'tibor berishlari kerak.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. *Bolalar adabiyotida dramaturgiya va publisistikaning asosiy o'ziga xos xususiyatlari qanday?*
2. *Bolalar dramaturgiyasida qanday janrlar keng tarqalgan va ular bolalar ruhiyatiga qanday moslashgan?*
3. *Bolalar publisistikasi ularning dunyoqarashi va tarbiyasiga qanday ta'sir qiladi?*
4. *Bolalar adabiyotida dramaturgiya va publisistika vositasida milliy qadriyatlar qanday yoritilgan?*
5. *Bolalar uchun yozilgan biror dramaturgik asarni tanlab, uning mavzu va g'oyasini tahlil qiling.*



### **Foydalaniladigan adabiyotlar:**

1. *Sh.Karimova. Bolalar adabiyoti. Toshkent, "Pagesprint" nashriyoti, 2024.*
2. *Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. – Bolalar adabiyoti. Darslik / T.: "Sharofat-fayz", 2022. - 320 b.*
3. *Jamilova B. O'zbek bolalar adabiyoti. O'quv qo'llanma. T.: Innovatsiya-Ziyo. 2021. - 222 b.*
4. *Jamilova B. Bolalar adabiyotida poetik tafakkurning yangilanishi. T., 2022.*
5. *Sh.Karimova. Bolalar adabiyoti. Toshkent, "Pagesprint" nashriyoti, 2024.*
6. *To'xtayeva N. Istiqlol davri o'zbek bolalar she'riyatining yetakchi xususiyatlari. Diss.avtoref. T., 2019.*
7. *Bashorat Jamilova. Bolalar adabiyotida zamonaviylik. O'quv qo'llanma. Buxoro 2023 "Bukhara hamd print" nashriyoti.*



## 14-MAVZU: O'ZBEK VA CHET EL BOLALAR ADABIYOTIDA ADABIY TA'SIR

### **Reja:**

1. *O'zbek bolalar adabiyoti va chet el adabiyoti o'rtasida adabiy ta'sir masalasi*
2. *Ijodiy ta'sir va izdoshlik masalalari.*
3. *O'zbek bolalar adabiyoti va chet el bolalar adabiyotida sayyor obrazlar va ularning xususiyatlari.*

**Tayanch tushunchalar:** *adabiy ta'sir, realizm, shakl va mazmun, mumtoz adabiyot, adabiy tur va janr, obyekt, subyekt, zamon, makon, ijodkor.*

Adabiyotshunoslikda adabiy ta'sir masalalari birdaniga amalga oshadigan jarayon emas. Bunda bir xalqqa tegishli adabiy yodgorliklarga xos xususiyatlarning boshqa xalq ijodida yaqqol bo'rtib turishi, aniq rakurslarda o'zgarishi bilan izohlanadi. Bizning milliy adabiyotimizda o'tgan asrning yetmishinchi yillariga dovr aniq bir mazmun yoxud shaklda o'zgarishlar yuz berganligini kuzatish qiyin, ungacha ko'pgina asarlar mustabid mafkura ta'sirida edi.

Aynan Asqad Muxtorning Chinor asari orqali shavqatsiz realizm adabiyotimizga kirib keldi. Detektiv yo'nalishdagi asarlar paydo bo'la boshladi. Adabiy ta'sir masalasi ma'lum bir davrni tashkil etmaydi, uning makon va zamon qamrovi keng. Adabiy ta'sirning qanday amalga oshganligi, uning qanday shakl va mazmun kasb etganligini davrlashtirish mumkin. Mumtoz



adabiyotimizda adabiy taʼsir tushunchasini aniq faktlar yuzasidan tahlil qilish mumkin.

Arab, fors-tojik adabiy anʼanalarning turkiy xalqlar adabiyotiga koʻchganligining guvohi boʻlish mumkin. Adabiy tur va janrlar nomi, ularning xossalari arab adabiyotidan toʻgʻridan toʻgʻri oʻzlashtirildi hamda turkiy adabiyot fanida yangi bosqichga koʻtarildi. Adabiyotimizda adabiy taʼsir zamiridagi obrazlar ham kirib keldi. Adabiy taʼsir masalasida Hazrat Alisher Navoiy asarlari yorqin namuna boʻla oladi. Mumtoz oʻzbek adabiyoti XX asr boshlariga qadar oʻz shakl-shamoyilini keskin oʻzgartirgani yoʻq, uning mazmun - mohiyati ham tafovutlarga boy emas. Didaktika adabiyotimizdagi eng asosiy mazmuni fodasi sifatida xizmat qilar edi.

XX asr boshi adabiyotida adabiy taʼsir masalasi millatlar munosabatidagi kengayishlar bilan asoslanadi. Asosan, fors va arab adabiyoti bilan uzviy bogʻlanib kelgan adabiyotimizga rus maʼrifatparvarlari, ziyoli qatlami taʼsirida turli xalqlar adabiyotidan xabardorlik koʻlami ortganligini kuzatish mumkin. Bu davrga kelib koʻpgina asarlar rus tilidan oʻzbek tiliga mahorat bilan tarjima qilindi. Xalqimiz boshqa xalq vakillari adabiyotidan ham xabardor boʻla boshladilar. Usmon Nosir

Kirshonning “Ulugʻ kun”, Dobrolyubovning “Haqiqiy kun qachon keladi?”, Pushkinning asarlarini oʻzbek tiliga tarjima qildi. Choʻlpon Yesenin, Pushkin, Shekspirlarning baʼzi asarlarini tilimizga oʻgirdi. Bu tarjimalarning amalga oshirilishi oʻz navbatida milliy adabiyotimizda yangi shakldagi adabiyotning paydo boʻlishiga zamin yaratdi.

Tadqiqot jarayonida asarlarning turli jihatlari, ayniqsa, gʻoyalar, obyekt, subyekt, zamon va makon qiyosiy talqiniga eʼtibor berish kerak hisoblanadi, bu holatlarga beparvolik bilan munosabatda boʻlish mumkin emas. Toʻgʻri, aniq va chuqur tushunib yetmaslik yangilish tamoyillarning yuzaga chiqishiga sabab boʻladi. Tahlillarni



yuzaga, inson omilining inja tuyg'ularini hisobga olmasdan, davr, ijtimoiy muhitning unga ta'sirini hisobga olmasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Bunday omillarni nazardanchetga qoldirgan holda tahlilni amalga oshirish badiiy tafakkur talqinining, deyarli, butun kuchidan mosuvo bo'lishiga olib keladi.

Adabiy ta'sir masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, buning kelib chiqishining bir qator prinsiplari yuzaga chiqadi:

Ma'lum bir ijodkor boshqa bir so'z san'atkorining asarlarini bevosita o'qib chiqadi, undan xabardor bo'ladi va shu asosida uning asarlarida qaysidir holatda zuhurlanadi;

Tarjimalar asosida yuzaga chiqadigan adabiy ta'sir: bu o'z holatida ayni ijodkorning o'zi tomonidan tarjima qilinadi yoki tarjima qilingan asarlarni mutolaa qilish natijasida adabiy ta'sir tamoyili yuzaga keladi.

Adabiy ta'sir jarayoni bevosita yoki bilvosita amalga oshishi mumkin, ya'ni ma'lum bir ijodkorning asarlari asosida yoxud ijodkor boshqalarning asarlari boshqa bir ijodkor asarlari ta'sirida bo'lishi mumkin. Bizga ma'lumki fors-tojik, Arab adabiyoti namoyandalari asarlarining o'rganilishi tarjima asosida yuzaga kelgan hodisalar emas. X-XI asrdan boshlab ko'plab ijodkorlarimiz uch til: Arab, fors-tojik va turkiy tillarni birdek bilishgan, hayot faoliyatlarida undan foydalanishgan, hozirgi kunda ham bunday vaziyatning yuzga chiqishi tabiiy holdir. XX asr o'zbek yozuvchilarining aksariyati o'zbek va tojik tillarini birdek bilishadi. G'afur G'ulom va Sadriddin Ayni hayoti va faoliyati misolida buni yaqqol kuzatish mumkin. Jamol Kamol, Asqar Mahkam ijodini ham buni ikki tilning bir xildagi ta'sirisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Sho'rolar davrida boshqa tillar qatori ingliz tilining o'rganilishida ham ma'lum cheklovlar qo'yilgan edi, shuning uchun Yevropa, Amerika va boshqa xalqlar adabiyotini biz, asosan, rus tili orqali o'rganishga go'yoki mahkum etilgan edik. Hattoki, qardosh xalqlar adabiyotini ham rus tiliga qilingan tarjimalar orqali



mutolaa qilar edik. Istiqlol sharofati bilan ko'plab xalqlarning tillariga mansub bo'lgan adabiy-badiiy yodgorliklar to'g'ridan to'g'ri tarjima qilina boshladi.

Natijada turli adabiy oqimlarga mansub ijodkorlarning asarlaridan bahramandlik doirasi oshishi natijasida adabiyotimizda yangi-yangi shakl va mazmunlar in'ikosini o'zida jamlagan asarlar yaratila boshladi. O'Genri hikoyalarining ingliz tilidan tarjima qilinishi ham adabiy hayotimizda katta muvaffaqiyatdir. Ijodkor asarlarida ma'lum xalqqa oid milliy qiyofani topish dargumon, buning asosiy sababi sifatida Amerika qit'asiga kirib borgan turli xalqlar va mahalliy aholi odatlarining omuxtalashuvidadir.

O'Genri asarlarida milliy mentalitet xususiyatlaridan ko'ra Yevropa va Amerikaga xos bo'lgan jihatlar umumlashmasining aks etishini ko'proq kuzatish mumkin. Uning asarlaridagi tashqi shakl-shamoyil ma'lum millatga mansublikni ifodalashi murakkab masaladir. Amerikaning o'ziga xos hayot tarzining ifodalanishi, shunga xos tashqi qiyofaning shakllanishi asarlarda o'z zuhurotini topgan.

O'Genri asarlardagi milliy qiyofani alohida mamlakat darajasida belgilab bo'lmaydi, faqatgina hudud, geografik makon nuqtai nazaridan kuzatish mumkin. Ayni makon nomi bilan bog'liq "Nyu-yorklik daydi" hikoyasidan ham shu joyining tasviri jihatidan, faqatgina nomlanish tomonidan mazkur joyni ilg'ash mumkin. U yerda qad ko'targan binolar, ko'chalarning tuzilishidan ham ayni makonning aniq chizgisini topish mushkul. Yuqorida aytganimizdek, geografik hudud jihatidan umumiy atalishlar insonlarni bir qadar ajratishi mumkin.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. *Adabiy ta'sir nima va u o'zbek va chet el bolalar adabiyotida qanday namoyon bo'ladi?*
2. *O'zbek bolalar adabiyotining rivojlanishida chet el bolalar adabiyotining ta'siri qanday bo'lgan?*



3. *O'zbek xalq ertaklari va chet el folklorining bolalar adabiyotiga ta'sirini qiyosiy o'rganing.*
4. *H.K.Andersenning ertaklari va o'zbek xalq ertaklari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarini qanday izohlash mumkin?*
5. *O'zbek bolalar adabiyotidagi biror asarni tanlab,unda chet el adabiyoting ta'sirini tahlil qiling.*

**Foydalaniladigan adabiyotlar:**

1. *Sh.Karimova. Bolalar adabiyoti. Toshkent, "Pagesprint" nashriyoti, 2024.*
2. *Jamilova B. O'zbek bolalar adabiyoti. O'quv qo'llanma. T.: Innovatsiya-Ziyo. 2021. - 222 b.*
3. *Jamilova B. Bolalar adabiyotida poetik tafakkurning yangilanishi. T, 2022.*
4. *Sh.Karimova. Bolalar adabiyoti. Toshkent, "Pagesprint" nashriyoti, 2024.*
5. *To'xtayeva N. Istiqlol davri o'zbek bolalar she'riyatining yetakchi xususiyatlari. Diss.avtoref. T, 2019.*



## 15-MAVZU: RUS YOZUVCHILARINING BOLALARGA ATAB YOZILGAN ASARLARIDA DIDAKTIK TAMOYILLAR

### Reja:

1. *Rus bolalar adabiyoti mavzu va g'oyaviy jihatlar*
2. *Rus bolalar ijodkorlarining nasriy, dramatik janrdagi asarlari*
3. *Rus bolalar she'riyati: mavzu va janriy imkoniyatlar masalasi.*

**Tayanch so'z va iboralar:** *rus she'riyati, shakl, mavzu, ertak-doston, uyg'onish davri, to'plam va jurnal, syujet, kompozitsiya*

A.S.Pushkin (1799-1837). A.S.Pushkin ta'lim-tarbiyasida Yevropa madaniyati, fransuz Uyg'onish davri adabiyoti ta'siri katta. U bolaligidan fransuz va rus tillarida erkin so'zlasha olgan. Bo'lajak shoir litseydagi talabalik davridayoq antik adabiyotning mumtoz hamda Yevropa yozuvchilarining asarlarini sevib o'qish bilan birga, rus klassiklarining kitoblarini ham sevib mutolaa qilgan.

Qadimgi rus adabiyoti unga kam tanish bo'lsa-da, ammo uning estetik jihatdan shakllanishida xalq fol'klori eng katta ta'sir ko'rsatgan. Pushkin davrida, hatto dvoryanlar oilalarida ham, ertaklar aytish urf bo'lgan. Shoir bolaligida ertaklarni o'z enagasi Arina Rodionovna Matveevadan, buvisi Mar'ya Alekseevna Gannibaldan, uy xizmatchisi Nikita Kazlovdan hamda Moskva yaqinidagi Zaxarova qishlog'ining dehqonlaridan eshitganligini ko'p ta'kidlaydi. U Ukrainada, Janubiy Ural va Orenburg tomonlarda bo'lib ertaklar, maqollar, matallar, qo'shiqlar eshitgan va yozib olgan. Pushkinning ko'pgina ertaklari jahon xalq ertaklari syujeti asosida yozilgan. Jumladan, uning "Baliqchi va baliq haqida ertak"i



nemis ertakshunoslari aka-uka Grimmlarning “Baliqchi va uning xotini” ertagi syujetiga monand. Yakob va Vilgelm Grimmlar ertagi 1815-yilda nashr qilingan “Bolalar va oilaviy ertaklar” to‘plamida chop etilgan. Grimmlarning ertagi V.A.Jukovskiy tomonidan 1826 yilda rus tiliga tarjima qilingan va “Detskiy sobesednik” jurnalida chop etilgan.

Aytish mumkinki, Pushkin ijodida ularning alohida ta’siri bo’lgan. Natijada, bir xil syujet asosida yozilgan ertaklarning o’ziga xos mushtarak va farqli xususiyatlarini kuzatish mumkin. Aka-uka Grimmlar ertagining G.Petnikova tomonidan rus tiliga qilingan tarjimasi nasriy bayonga ega va unda baliqchi chol kambala-baliqlarning shahzodasini tutadi; undan avval yangi uy, qasr, so’raydi. So’ngra, kampir malika, imperator, rim papasi bo’lishni orzu qiladi. Barcha tilaklari amalga oshgan kampir endi quyosh va oyning chiqishi-yu botishini o’zi belgilamoqchi, xudo darajasiga ko’tarilishni istaganda, eski uyiga qaytib qoladi. Pushkin esa ertakni xalqona uslub, qofiyasiz she’r shaklida yozadi. Bu vazn ertak hikoyasiga musiqiylik baxsh etgan. Vaznga mos tarzda unda ma’naviy-falsafiy mazmun ham mavjud.

Chol oltin baliqdan avval yangi tog’ora, so’ngra uy, keyin qasr so’raydi. Malikaga aylangan kampiri dengiz hukmroni bo’lishni xohlab, cholni haydaganda eski uycha va teshik tog’ora qaytib oldida paydo bo’ladi. Demak, Grimmlar ertagida bitta istak ziyod bo’lishdan [tashqari](#), siyosiy hayot va davlat boshqaruviga daxldor shartlar qo’yilgan.

Chol ham o’z kampirining har bir xohishiga qarshi borib, uni insofga chaqirishga harakat qiladi, baliqni boshqa bezovta qilmaslikni so’rab, yalinib-yolvoradi. Shunga o’xshash, chol-kampir munosabatida muloyimlik, har bir orzu ro’yobga chiqqach, kampirning cholga nisbatan mehri iyib, “Ko’ryapsanmi, qanday yaxshi?”, “Ha, nima axir, bu ajoyibku?,-degan iqrorlari ko’zga tashlanadi. Ya’ni, ertak qahr-g’azabdan xoliroq va xalqning shunchaki xayolparastlik tuyg’usiga monandKampir boy-badavlat,



hatto, “imperator” va “Rim papasi” bo’lganda ham o’z choliga munosabati o’zgarmagan. U bilan odatdagidek, muomala qiladi, yashaydi...

Pushkin ertagi variantida esa real hayot manzaralari ustivor. Kampir har safar cholni “Eh, sen ahmoq, sodda chol, qani, jo’na dengizga!”, -deb so’kadi. Va har gal orzusi ro’yobga chiqqach, tag’in-da, darg’azab bo’lib, cholni haqoratlaydi hamda unga xizmatkoridek munosabat ko’rsatib, haydab soladi. Chol ham “la’nati kampir”ga qanday chora ko’rishni bilmaydi.

Aslida u oltin baliqchani hech tamasiz qo’yib yuborgan edi (“Tangri yoring bo’lsin, baliqcha”). Shu sababli baliq ham cholga har gal minnatdorlik yordamini ado etadi: “Qayg’urmagil, tangri yor bo’lsin!”. Kampir esa oltin baliqchaga o’zining ushalmas orzularini ro’yobga chiqarish vositasi sifatida qaraydi. U dastlab, o’zini zarur narsalarnigina istayotgandek tutadi, keyin esa ko’proq va yana mo’lroq narsalar xohlaydi. Zero, kampirga hokimyatning tashqi ko’rinishi kifoya qiladi, u zodagonlik va qirollik xizmatining ichki mazmun-mohiyatini tushunmaydi va istamaydi ham. Bu oddiy xalq nazdidagi “hokimiyat aqlining boy, farovon hayot kechirishi”ga oid sodda fikrlarshining ifodasidir. Ertakning asosiy g’oyalaridan biri - “buyuk” vazifalarni bajarishni da’vo qilishdan ko’ra, har kim o’z kuchi etadigan ishni (masalan, kampir ipini yigirishi, chol to’rida baliq ovlashi) bajarishi yaxshiroq ekanligidir.

Dengiz Pushkin uchun doimo erkin odatlar, ya’ni o’ziga xos olam, har xil chegaralardan xoli o’zgachà dunyo sifatida qarab kelingani e’tiborga olinsa, ertakda insoniyatning boylik va mansab cho’qqilari sari intilish kuchi yoki uni o’ziga maftun qilib, domiga tortayotgan orzu-istaklar ko’proq erga xosligi anglashiladi.

Insonning ochko’zligi va axmoqligi tufayli tabiatdagi mutanosiblik buzilishini shoir teran his qiladi. Shu sababli, ertak oxirida barcha narsalarning tartibi o’z o’rnini topadi: chol o’z kampirini o’sha yerto’la va teshik tog’ora oldida ko’radi. Muammo



echimi-aqlsizlikning mag'lub bo'lishi. Bu jihatlar har ikkala ertak varianti uchun daxldor bo'lsa-da, Pushkin o'z ertagida keskinlikni oshiradi.

Bunda kampir shafqatsiz, qahrli va xudbin tasvirlangan. Cholning g'azabi, kinoya va pichinglari ham shunga yarasha dag'al. Demak, bir xil syujetga ega ertaklarning talqinida har bir xalqning qarashlari, ijtimoiy turmush tarzi, voqelikka munosabati turlicha aks etadi.

Aytish mumkinki, S.Pushkin ertagida ijodiy g'oya, badiiy sayqal va real davr voqeligi yorqinroq ko'rinadi. Va bu shoir asarlarining sarchashmasi xalq ijodiyoti ekanidan dalolat berish bilan birga, unga ijodiy yondashganligini e'tirof etadi. Zero, uning yosh yozuvchilarga ko'proq ertaklar o'qishni maslahat berishi bejiz emas.

Har bir xalqning donishmandligi va qalb nazokatini o'zida mujassamlantirgan shoiri bo'ladi. Rossiyada inson ma'naviy olamining musavviri, shubhasiz Pushkindir. U nurga intilib, doim ozodlik uchun kurashuvchi shoir, optimist bo'lib yetishdi. Rus xalqining yana bir shoiri Aleksandr Blok: «Pushkinning nomi naqadar jarangdor», deb ta'riflagan edi uni.A.S.Pushkin bolalikdan xalq og'zaki ijodini berilib o'rgandi. Buloqdek qaynab-toshgan xalq og'zaki ijodi shoirning ilhomiga ilhom qo'shdi. Kelajakda mashhur shoir bo'lib, jahonga tanilishida boy manba bo'lib xizmat qildi. U, ayniqsa, o'zining ertak-dostonlari bilan yosh kitobxonlarning hurmat-olqishiga sazovor bo'lib kelmoqda,

A.S.Pushkin o'zining «Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak»(1831), «Baliqchi ham baliq haqida ertak» (1833), «O'lik malika va yetti bahodir haqida ertak» (1833), «Oltin xo'roz haqida ertak» (1834) kabi ertak-dostonlari bilan jahon bolalar adabiyoti xazinasini yanada boyitdi.

Yuqorida biz ta'kidlab o'tgan asarlarning hammasi boy va rang-barang xalq og'zaki ijodi ta'sirida yuzaga kelgan. Bu asarlar



zamirida faktik materiallar yotganini ko'ramiz. Masalan, shoir «Ajoyib bolalar» xalq ertagi asosida «SHoh Saltan... haqida ertak», «Jurimsoq kampir» ertagi va rus xalq folxlorining to'plovchilaridan biri V.Dal hikoya qilib bergan syujet asosida «Baliqchi ham baliq haqida ertak», «Sehrli ko'zgu» ertagi asosida «O'lik malika vaetti bahodir haqida ertak», «Shabarsha batrak» asosida «Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak» yotganligini ko'ramiz. Bu ertaklarning hammasi shoirning ijodiy laboratoriyasida qayta ishlanib, sayqallanib, yanada o'qimishli, ta'sirli bo'ladi.

A.S.Pushkin oddiy, mehnatkash xalqni yaxshi ko'radi, uni iloji boricha hikoya qilishga, unga yon bosishga harakat qiladi. Shuning uchun ham uning ertak-dostonlaridaxalqqa bo'lgan cheksiz muhabbat tuyg'usi barq urib turadi. Dadon shoxni oling («Oltin xo'roz haqida ertak»). U g'irt ahmoq. Naxalqni sevadi va na farzandlariga mehribon otalik qila oladi. Dadon o'ta ketgan darajada mayishatparaz va kaltabin. U butun podsholigidan, xalqidan, farzandlaridan o'zga yurtli makkor ayolni ustun qo'yadi. Buni xalq, xudo kechirmaydi. Natijada shoh xalq qahr-g'azabiga duchor bo'ladi.

Oltin xo'roz tepkisidan halok bo'lgan shoxga birovning rahmi kelmaydi, aksincha, shoxning o'limi ularga shodlik vaozodlik baxsh etadi. Pop («Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak») obrazini shoir qattiq ishlaydi. Uning tekinxo'r, ochko'z, o'zgalar hisobiga umr kechiradigan bir pastkash kimsa ekanligini keskin ochib tashlaydi. Unga qarama-qarshi qilib oddiy va halol, mehnatkash va bahodir yigit Balda obrazini ijod cho'qqisiga ko'taradi.

Ikki qahramonning bozordagi o'zaro suhbatidanoq kitobxon kim qanday odam ekanligini darhol sezadi.



## XULOSA

O'zbek bolalar adabiyoti jahon adabiyotining ilg'or an'analari ta'sirida rivojlandi va rivojlanmoqda. Ta'kidlash kerakki, har bir davr o'z adabiyotini yaratadi. Hozirgi davr bolalar adabiyoti ham bundan mustasno emas. Bu adabiyotning iste'dodli adiblari ijod namunalarining jahondagi mavjud adabiy an'analardan ijodiy oziqlangani holda allaqachon o'z qobig'ini yorib chiqib, ko'pgina jahon xalqlarining adabiy mulkiga aylangani ko'ngilimizda faxr tuyg'usini uyg'otadi.

O'zbek adabiyotshunosligida Mustaqillikka erishilgandan keyin boshlangan ma'naviy tiklanish jarayoni o'zbek bolalar adabiyotiga oid qadimiy va zamonaviy manbalarga xos poetik xususiyatlarni chuqur tadqiq etish ehtiyojini yuzaga keltirib, o'zbek bolalar adabiyoti namunalarida poetik tafakkur yangilanishi evolyutsiyasini o'rganish xalqimiz badiiy tafakkurining shakllanish tarixini yoritishga muayyan darajada xizmat qilishi bilan ham dolzarbdir. Bunday asarlarda aks etgan umuminsoniy g'oyalar yosh avlodni buyuk ajdodlarimizning ezgu an'analari ruhida tarbiyalashda hamda ma'naviy kamolot sari yetaklashda muhim badiiy-estetik hamda amaliy ahamiyatga egadir. "Yoshlarni zamonaviy bilim va tajriba, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga etkazamiz".

Mamlakatimiz miqyosida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimi keng yo'lga qo'yilgani, "Yosh kitobxonlar tanlov"larining tashkil etilishi va bugungi kunda uning yanada yuksak mavqe'



kasb etayotgani ham shundan dalolat beradi. Badiiy adabiyotning, ayniqsa, yosh avlod ma'naviy kamolotidagi beqiyos o'rnini belgilash adabiyotshunoslikning o'zak vazifalaridan biri sifatida hozirgi bolalar adabiyotimiz o'ziga xosliklarini belgilash va ijodkorlar badiiy mahoratini baholashda alohida ahamiyat kasb etishi esa o'quv qo'llanmaning dolzarbligini asoslaydi.

Bolalar adabiyoti haqida tasavvurga ega bo'lish uchun ifodali o'qish, bolalar kitobxonligi, didaktik adabiyot, bolalar adabiyoti kabi fanlardan xabardor bo'lish tavsiya etiladi. Shuningdek, badiiy adabiyot adabiy tilni yangiliklar bilan boyitish uchun juda katta ahamiyatga egadir, zotan fanni o'qishda ona tili fanlari bilan ham chambarchas bog'liq, ayni paytda talabalarni til muammolarini hal qilishda badiiy adabiyotga tayanishga o'rgatish kerak.

Jahon va o'zbek bolalar adabiyotining badiiy jihatdan yuksak namunalariga keng e'tibor qaratish, yangi asr kichkintoylarining shiddat bilan rivojlanayotgan qiziqishlari, ruhiy, ma'naviy olami, ularning ijtimoiy hayotga munosabati masalalari aks etgan asarlar tahlili orqali talabalarda estetik, axloqiy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy tarbiyani shakllantirish muhim ahamiyatga ega.



## FAN YUZASIDAN NAZORAT TESTLAR

**1. “Kitob (bitig) barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni yaratuvchi murabbiydir” kitobga berilgan ushbu ta’rif muallifi kim?**

- A) A. Temur
- B) A. Avloniy
- C) Sh. Mirziyoyev
- D) X.To’xtaboyev

**2. Adabiyotda mazmun va shakl tushunchalari qaysi davrdan bir-biridan farqlana boshlandi?**

- A) 17-18- asrlardan
- B) 18-19-asr boshlaridan
- C) 19-20- asr boshlaridan
- D) 19-asr oxiridan

**3. Modomiki badiiy asarda shakl va mazmun uyg’un birikar ekan, shaklni....., mazmunni ..... hodisasi sifatida tushunib, har ikkisiga birdek e’tibor berish zarur, bu — adabiyotshunoslikning “oltin qoida”si sanaladi.**

- A) badiiyat, g’oyaviylik
- B) Adabiyot, san’at
- C) Nazm, Nasr
- D) g’oyaviylik, badiiyat



**4. “kitobxonlik – o‘qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki u tushunib o‘qish, ya’ni maqsadli o‘qishdir”- fikrning muallifi kim?**

- A) Sh. Mirziyoyev
- B) X.To‘xtaboyev
- C) Safo Matchon
- D) A. Obidjon

**5. Shakl unsurlari berilgan qatorni toping.**

- A) problema, tema, tendensiya, g ‘oya
- B) problema, tema, til, ritm
- C) konflikt, kompozitsiya, g ‘oya
- D) til, ritm, syujet, konflikt, kompozitsiya.

**6. yunoncha Autos-o‘zim, bios-hayot, grafo-yozaman – ma’nosini bildiruvchi so‘z qaysi qatorda berilgan?**

- A) Drammaturgiya
- B) Asar
- C) Adabiyot
- D) Avtobiografik

**7. Qaysi asar markazida yosh Musaning sarguzashtlari yotadi?**

- A) Oq fotiha
- B) Bolalik
- C) O‘tmishdan ertaklar
- D) Bolaligim

**8. o‘zbek adabiyotida yaratilgan birinchi tarixiy-biografik qissa bu-.....**

- A) Bolalik
- B) Zulmat ichra nur
- C) Qaldirg‘och
- D) O‘tmishdan ertaklar



**9. "Jayhun ustida bulutlar" qissasi qaaysi mutafakkirga atab yozilgan?**

- A) Abu Ali ibn Sino
- B) Alisher Navoiy
- C) al-Xorazmiy
- D) Abu Rayhon Beruniy

**10. Qaldirg'och" (keyinchalik muallif bu asami qayta ishlab, "Savohil" nomi bilan nashr qilgan) qissasi muallifi kim?**

- A) X.To'xtaboyev
- B) Safo Matchon
- C) Tohir Malik
- D) M.Osim

**11. O.Safarovning G.G'ulom ijodiga bag'ishlangan asari qaaysi qatorda keltirilgan?**

- A) Zamonlar tongining charoqlarisiz
- B) She'rim - ochil dasturxon
- C) Bolalikning oydin osmoni
- D) Jayhun ustida bulutlar

**12. istiqlol davri o'zbek bolalar adabiyotida jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq mavzu talqinlari ustuvorligini ..... Asarlarida ko'rishimiz mumkin.**

- A) N.Fozilov, M.A'zam, A.Obidjon
- B) S.Barnoyev, E.Malikov, T.Malik
- C) N.Fozilov, M.A'zam, A. Avloniy
- D) Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Elbek



**13. ....— kitoblarni sevib o‘qiydigan, bilim olishni, fikrlashni va ma’naviy rivojlanishni o‘zining asosiy maqsadi deb biladigan shaxsdir.**

- A) Bola
- B) O‘quvchi
- C) Kitobxon
- D) Ijodkor

**14. “ O‘gri”, “Bemor” , “Anor” hikoyalari muallifi kim?**

- A) Tohir Malik
- B) M.Osim
- C) A.Qahhor
- D) Oybek

**15. Quyidagi berilgan asarlar “Eski maktab”, “Bolaligim” “ O‘tmishdan ertaklar” “Oq fotiha” qaysi janrda yozilgan?**

- A) Hikoya
- B) Qissa
- C) She’r
- D) Roman

**16.“Men bolalar she’riyatini jiddiylashtirishga, unga kattalar adabiyotiga xos unsurlarni olib kirishga harakat qildim”, deb yozadi.Ushbu so‘zlar muallifi?**

- A)Rustam Nazar
- B)Shukur Sa’dulla
- C)Kavsar Turdiyeva
- D)Ilyos Muslim

**17. Istiqlol davri o‘zbek she’riyatini vujudga keltirayotgan bosh omil-bu.....**

- A) Zamonaviy o‘zbek she’riyati mavjudligi
- B) Badiiy tafakkur erkinligi



- C) So'z boyligining ko'pligi
- D) Bolalar uchun asarlarning qiyinligi

**18. Adabiy jarayon tushunchasi nimani anglatadi?**

- A) Faqat adiblarning hayoti va ijodini
- B) Adabiyotning tarixiy rivojlanish yo'nalishlarini
- C) Adabiyotning faqatgina zamonaviy holatini
- D) Asarlarni tahlil qilish jarayonini

**19. Badiiy tafakkur nima?**

- A) Ilmiy bilimlar yig'indisi
- B) Estetik qarashlar tizimi va dunyoni badiiy aks ettirish usuli
- C) Bolalarning qarashlari yig'indisi
- D) Faqat yozuvchilarning ijodiy yondashuvi

**20. Adabiy jarayon va badiiy tafakkur o'zaro bir-biri bilan qanday bog'liq?**

- A) Ular bir-biriga ta'sir ko'rsatmaydi
- B) Adabiy jarayon badiiy tafakkur mahsulidir
- C) Badiiy tafakkur adabiy jarayondan keyin shakllanmaydi
- D) Ular bir-biriga zid jarayonlar

**21. Shoir bolaning ona tiliga bo'lgan mehrini oshirishda an'anaviy ta'riflarni qo'llash bilan birga Qaboq ila ko'zdek qadrli ekanligini aytib ayri xalqona poetik o'xshatish qo'llaydi...gapda qaysi she'r to'g'risida fikr yuritilyapti?**

- A) Miraziz A'zamning "Ona tilim" she'ri
- B) T.Adashboevning "Ona tilim" she'ri
- C) Anvar Obidjonning "Maktab" she'ri
- D) Shukur Sa'dullaning "Jon tilim" she'ri



**22. O'qing, minglab ahli dono kerak yurtga,  
Yana Bobur, Ibn Sino kerak yurtga. She'rd a qaysi san'at  
turi qo'llanilgan?**

- A) Tajnis
- B) Tazod
- C) Talmeh
- D) Tanosub

**23. Bolalar she'rlarida ijodiy-uslubiy yangiliklar qanday  
aks etadi?**

- A) Sodda va obrazli tilda ifodalash
- B) Qiyin va murakkab iboralarni qo'llash
- C) Rangsiz, emotsiyadan xoli she'rlar yaratish
- D) Bolalar psixologiyasiga mos bo'lmagan mazmun yaratish

**24. Adabiy asarlarda uslub qay tarzda namoyon bo'ladi?**

- A) Yozuvchining so'z boyligi
- B) Yozuvchining hissiy ifodalari
- C) Gap qurilishi
- D) A, B, C

**25. "Alifbo olamiga quvnoq sayohat", Olqor Daminning  
"Quvnoq "Alifbe"", Dilshod Rajabning "Qiziq alifbo", Zikrilla  
Ne'matning "Vatan alifbosi qo'shig'i" she'rlari muallifi?**

- A) Rustam Nazar
- B) Kavsar Turdiyeva
- C) Shukur Sa'dulla
- D) Anvar Obidjon

**26. Qaysi shoir ijodida Alifbo-she'rlardan namunalar  
ko'rishimiz mumkin?**

- A) Olqor Damin
- B) Dilshod Rajab



- C) Kavsar Turdiyeva
- D) A,B,C

**27. Bolalar she'riyatidagi ijodiy izlanishlarda qaysi badiiy vosita hissiy ta'sirni oshiradi?**

- A)She'riy tugallik
- B)Ritm va qofiya uyg'unligi
- C)Qahramonlarning dialogi
- D)Rang-baranglik

**28. O'zbek bolalar she'riyatida ijodiy-uslubiy izlanishlar qaysi davrda rivojlana boshlangan?**

- A)XVIII asr boshlarida
- B)XX asr boshlarida
- C)XIX asrning oxirlarida
- D)Sovet davrida

**29. Bolalar she'riyatida qanday adabiy uslublar qo'llaniladi?**

- A)Fantaziya va realism
- B)Didaktik uslub
- C)Lirika va satira
- D)Hammasi

**30. T.Adashboevning "Harflarning sarguzashti" ertak-she'ri qaysi chet el ijodkori she'riga javoban yozilgan?**

- A) Jovanni Rabonining "Qaysar raqamlar" she'riga
- B) Pushkinning "Kapitan qizi" she'riga
- C) X.K.Andersenning "Raqamlar so'zlaganda" she'riga
- D) J.Sviftning "Kema" she'riga



**31. Kitobxonlik madaniyati nima?**

- A) Kitoblarni yig'ish va saqlash san'ati
- B) Kitoblarni o'qish va tushunish ko'nikmalari
- C) Kitoblarni yozish va nashr etish madaniyati
- D) Kitoblar orqali eski bilimlar o'rganish

**32. Bolalar adabiyotida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda kimning roli eng katta?**

- A) Do'stlar
- B) Ota-onalar va o'qituvchilar
- C) Ijtimoiy tarmoqlar
- D) Kitobxonlar

**33. Kitoblarni bolalarga qanday tanishtirish kitobxonlik madaniyatini oshiradi?**

- A) Kitoblarni bolalarga majburan o'qitish orqali
- B) Kitoblar haqida bahslashish orqali
- C) Kitoblarni bolalarga qiziqarli tarzda tanishtirish orqali
- D) Kitoblarni faqat o'qish orqali

**34. Kitob o'qishning bolalar ruhiyatiga qanday ta'siri bor?**

- A) Kitoblar bolalarni ruhiyatiga ta'sir ko'rsatmaydi.
- B) Kitoblar bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshiradi
- C) Kitoblar bolalarni faqat o'qishga bog'laydi
- D) Kitoblar bolalarni yolg'izlashtiradi

**35. Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda nima muhim?**

- A) Faqat bitta kitobni ko'p marta o'qish
- B) Kitoblarni ona tili va boshqa tillarda o'qish
- C) Kitoblarni tanlashda bolalarning qiziqishlariga e'tibor berish
- D) Kitoblarni faqat kompyuterda o'qish



**36. Bolalar adabiyotida qanday kitoblar kitobxonlik madaniyatini yaxshilashga yordam beradi?**

- A) Qisqa hikoyalar va matnlar
- B) Dostonlar
- C) She'rlar va ertaklar
- D) Hammasi to'g'ri

**37. Kitob o'qish bolalar uchun qanday foydalari bor?**

A) Faqat bilim olish B) Faqat dam olish C) Fikrni rivojlantirish, so'z boyligini oshirish, axloqiy qadriyatlarini o'rganish D) Faqat kulgili hikoyalarni o'qish

**38. Kitobxonlik madaniyati qanday qilib ijtimoiy me'yorlarga yordam beradi?**

- A) Bolalar o'qigan kitoblar orqali o'zlarini jamiyatda qanday tutish kerakligini o'rganadilar
- B) Kitoblar faqat bolalarga bilim beradi, ijtimoiy me'yorlar haqida gapirmaydi
- C) Ijtimoiy me'yorlar kitoblar orqali yomonlashadi
- D) Kitoblar faqat xayoliy dunyolarni tasvirlaydi

**39. Bolalar uchun kitob tanlashda eng avvalo qanday faktorlar e'tiborga olinishi kerak?**

- A) Kitob narxi
- B) Kitobning yorqin rangdagi rasmga ega bo'lishi
- C) Kitobning mavzusi va uning yoshga mosligi
- D) Kitobning saqlanishi

**40. Badiiy asarda "shakl" va "mazmun" tushunchalari qanday ta'riflanadi?**

A) Shakl — bu asarning mavzusi, mazmun — bu asarning tashqi ko'rinishi



B) Shakl — asarning tuzilishi va ifodalash usullari, mazmun — asar orqali berilayotgan g'oya

C) Shakl — asarning yozilish vaqti, mazmun — asar ichidagi voqealar

D) Shakl — asar haqidagi tahlil, mazmun — asar muallifi

### **41. Badiiy asarda shaklni qanday elementlar tashkil qiladi?**

A) Faoliyat va ijtimoiy mavzular

B) Stilistik vositalar, janr va tuzilish

C) Tashqi elementlar va vaqt

D) Belgilar va obrazlar

### **42. Mazmun va shakl o'rtasidagi bog'liqlikni qanday izohlash mumkin?**

A) Shakl va mazmun bir-biridan ajralgan, ularning o'zaro bog'liqligi yo'q

B) Shakl va mazmun o'rtasida hech qanday bog'liqlik yo'q, har biri alohida ishlanadi

C) Shakl mazmuni ifodalashning vositasi bo'lib, ular bir-birini to'ldiradi

D) Mazmun shaklni belgilaydi, shakl mazmuni o'zgarishiga olib keladi

### **43. Shakl va mazmun o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatuvchi misol qanday bo'lishi mumkin?**

A) Voqealar rivoji va obrazlar o'rtasidagi munosabat

B) Vaqtning o'zgarishi

C) Muallifning hayoti

D) Asar muallifining shaxsiy fikrlar



**44. Shakl va mazmuni uyg'unlashtirish asar uchun qanday natija beradi?**

- A) Asar yanada murakkablashadi
- B) Asar tushunarsiz bo'lib qoladi
- C) Asar yanada ta'sirchan va ma'noli bo'ladi
- D) Asar uzun va zerikarli bo'lib qoladi

**45. Asarning shaklini tahlil qilishda qaysi elementlar inobatga olinadi?**

- A) Kitobni kim yozganligi
- B) Asarning muallifi va shaxsiyati
- C) Asarning tuzilishi, janri va til uslubi
- D) Asar davomiyligi

**46. Badiiy asar nima?**

- A) Faqat ilmiy ma'lumotlar beruvchi matn
- B) Ijtimoiy muammolarni hal etuvchi asar
- C) Hayotning badiiy talqini orqali inson ruhiyatini ifodalovchi asar
- D) Faqat tarixiy voqealarni tasvirlovchi matn

**47. Badiiy asarning asosiy xususiyatlaridan biri nima?**

- A) U faqat biror mavzuda yoziladi
- B) U faqat ilmiy tahlil va ma'lumotlardan iborat
- C) U tasvir, obraz va simvollar orqali g'oya va hissiyotlarni ifodalaydi
- D) U faqat ijtimoiy mavzularni ko'rib chiqadi

**48. Badiiy asar qanday vositalar orqali o'z mazmunini ifodalaydi?**

- A) Faqat faktlar va raqamlar
- B) Tasvir, obraz, til vositalari, simvollar



- C) Faqat muallifning fikrlari
- D) Hisob-kitoblar va diagrammalar

### 49. Badiiy asar va ilmiy asar o'rtasidagi farq nima?

- A) Ilmiy asar hayotning badiiy talqinini beradi, badiiy asar esa faktlarni tasvirlaydi
- B) Badiiy asar insonning ruhiy holatini va dunyoqarashini tasvirlaydi, ilmiy asar esa haqiqiy faktlarni ifodalaydi
- C) Ilmiy asar tasvirni va obrazni ishlatadi, badiiy asar esa faqat raqamlar bilan ishlaydi
- D) Badiiy asar faqat real faktlarni o'z ichiga oladi

### 50. Badiiy asarning "g'oya"si nima?

- A) Asarning hikoya qilinayotgan voqeasi
- B) Asar orqali muallif o'quvchiga etkazmoqchi bo'lgan asosiy fikr yoki tushuncha
- C) Asar muallifining biografiyasi
- D) Asar tahlili va sharhi



## GLOSSARIY

**ABJAD** Qadimgi arab alifbosi tarkibidagi harflardan tuzilgan va har qaysi harfning son qiymatini eslab qolish uchun yasalgan sakkizta soʻzning birinchisi va shartli umumiy nomi. Bu soʻzlar: abjad, havvaz, hutti, kalaman, saʼufas, qarashat, saxxaz, zazagʻ. Sharq, shu jumladan oʻzbek mumtoz adabiyotida biror muhim hodisaning sanasini esda tutishni osonlashtirish uchun sonlar harflar bilan ifodalangan. Oʻzbek adabiyotida abjaddan maxfiy yozuvlar yozishda ham foyda-lanilgan. Oʻzbek mumtoz adabiyotida abjad hisobi 20-asr boshlarigacha qoʻllangan.

**ADABIYOT** (ar. adab – goʻzal xulq). Keng maʼnoda inson tafakkurining mahsuli oʻlaroq dunyoga kelgan, oʻqish uchun moʻljallab yozilgan asarlar jami. Tor maʼnoda – soʻz sanʼati, badiiy adabiyot.

**ADRESLILIK** Bolalar adabiyotida kitobxonlar yoshiga moʻljallab yozilgan asarlarga nisbatan qoʻllanadi. Shunga koʻra maktabgacha tarbiya yoshidagi kichkintoylar, kichik maktab yoshidagi bolalar hamda oʻsmirlar kitobxonligi oʻzaro tafovutlanadi.

**AFORIZM** (yun. taʼrif, ixcham ifoda) Muallifi maʼlum boʻlgan, ixcham shaklda va taʼsirli ifoda etilgan umumlashma fikr. M: Navoiy aforizmlari (Tilga eʼtiborsiz- elga eʼtiborsiz, Oz-oz oʻrganib dono boʻlur, qatra-qatra yigʻilib daryo boʻlur).

**ALIFBE-MANZUMA** Abidsedariylar asosida yozilgan majmua hisoblanadi. Shermuhammad Munisning “Savodi taʼlim”, A.Otinning “Yakka baytglar”i arab alifbosidagi harflarni yod olish va ularni eslab qolishga asoslangan sheʼriy baytlari badiiy



va metodik xususiyatlari bilan adabiyot tarixida o'z o'rniga ega. Muhimi shundaki, ular yaratgan majmualar aynan o'quvchilarning ilk savod chiqarishlari, boshlang'ich maktablarda o'qitishga mo'ljallangan bo'lib, metodik ahamiyatga ega. O'quvchilarning yozishni o'rganishlarini osonlashtirish uchun arab yozuvi asosidagi o'zbek alifbosidagi 28 harfning shakli, nimalarga o'xshashligi va imlo xususiyatlarini birma-bir ta'riflangan she'riy shakldagi asar.

**ALIFBE-TOPISHMOQ** Alfavitdagi harflar ketma-ketligi asosida yaratilgan janr. K.Turdiyeva topishmoqlarni shunday ketmaketlikda beradiki, ularning javobi alfavitdagi harflar bilan boshlanadi.

**ALIFBE-SHE'R** Alifbe she'r alfavitdagi har bir harf bilan boshlanuvchi she'r bo'lib, kichkintoylarga ularni esda saqlash, to'g'ri talaffuz qilish maqsadini ko'zlaydi, alliteratsion tovushlar tizimi o'quvchilarni shu tovush talaffuziga o'rgatib boradi. XX asr bolalar adabiyotida alohida janr darajasiga ko'tarilgan alifbe she'rlar tadrijiga Sulton Jo'ra, Asqad Muxtor, Muxtor Xudoyqulov kabi shoirlar alohida ulush qo'shishgan. Istiqlol yillarida esa K.Turdiyeva, D.Rajab bu janrda barakali ijod qilib kelmoqda.

**ALIFBE O'GIT** Alifbedagi har bir harf bilan boshlanuvchi o'gitlar. Ijodkor alfavitdagi har bir harf bilan boshlanuvchi o'gitlarni she'riy misralarga tizib chiqadi. Masalan,

K.Turdiyevaning "Alifbeda nasihat" she'ri:

**ALLEGORIYA** (yun. allegoria – o'ziga xosifodalash) Mavhum tushuncha yoki g'oyalarni aniq bir obraz vositasi bilan ifodalash; majoz. Masalan, bo'ri so'zining yomonlik (yovuzlik), tulki so'zining ayyorlik ifodasi uchun qo'llanishi. (yun. allos-o'zgacha, agoreuo-gapiraman)– 1) mavhum tushuncha yoki hodisani konkret narsa orqali ifodalashga asoslangan ko'chim turi. Mas. tulki–ayyorlikni ifodalaydi.

**ALLITERATSIYA** (lot. al – yonida, litera – harf) – she'riy nutqda (nasrda nisbatan kam) bir xil undosh tovushlarning takrorlanishiga asoslangan ifodaviylikni kuchaytiruvchi vosita,



takrorning fonetik sathdagi xususiy ko'rinishi. Masalan, **Q**aro **q**oshing, **q**iyiq **q**oshing, **q**uyuq **q**ayrilma **q**oshing **q**iz.. (E. Vohidov)

**ANNOTATSIYA** (lot. annotation – izoh, sharh) Asar mazmunining qisqacha bayoni. Noshirlik amaliyotida kitoblarning ichki muqovasida, ilmiy maqolalarning sarlavhasidan keyin beriladi. A. asarning o'ziga xos pasporti bo'lib, u bilan umumiy tarzda tanishtiradi.

**ANTOLOGIYA** (yun. guldasta) Biror milliy adabiyot, davr, adabiy yo'nalishga mansubligi jihatidan tanlangan ijodkorlar asarlaridan namunalarni jamlovchi to'plam. M; O'zbek bolalar adabiyoti antologiyasi. I. She'riyat. II. Nasr. T, 2006.

**ANTROPOMORFIZM** (antropo ... va yun. morphe – shakl, ko'rinish) Xudo hamda ilohiy kuchlarni, tabiatdagi narsa, hodisalarni inson qiyofasida tasavvur qilish. Antropomorfizm qadimgi yunonlar dinida keng tarqalgan edi. Ularning tasavvuricha, xudolar insonga xos xususiyatlarga ega bo'lib, abadiy yashaydi. Xalq ertaklarida esa hayvonlar, qushlarning insonlarga o'xshab gapirishi, suhbat va h.k. M: "Susambil" ertagi

**AVTOBIOGRAFIK ASAR** (yun. autos-o'zim, bios – hayot, grafo – yozaman) – muallifning o'z hayoti haqida izchil hikoya qilishiga asoslangan adabiy janr. Avtobiografik asar muallifi o'z hayotini qaytadan yashab ko'radi, uni bir butun sifatida idrok etishga intiladi. A.a.aksar hollarda mualliflarning ijodiy yetuklik pallalarida, umrlari nihoyasida yoziladi. (mas. Oybekning "Bolalik", A.Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" qissasi.) U memuar, kundalik va sayohatnomalarga o'xshab ketsa-da, ulardan tubdan farq qiladi. Shuningdek, A. a. avtobiografik xarakterdagi asarlar hamda turli munosabatlar bilan yoziladigan tarjimayi hollardan tafovutlanadi. Unda muallifning o'zi mustaqil personaj sifatida ishtirok etadi (mas. Musavoy, Abdulla obrazi).

**BADIA** Kishining diqqatini tortadigan badiiy asar. Alisher bolalik yillarida ikki tilda badialar ijod qilib shuhrat topgan. Oybek, Navoiy.



**BADIHA** (ar. o'ylovsiz, birdaniga aytilgan chiroyli so'z, topqirlik) Avvaldan maxsus tayyorlanmasdan, da'atan aytilgan she'r. Biror voqeadan qattiq ta'sirlanish, mushoiralarda o'zga shoir aytgan she'rga javoban yoki qaltis vaziyatdan hozirjavoblik bilan chiqish zarurati tufayli yaratiladi.

**BADIY TAHLIL** (ar. tekshirish, hal qilish) Adabiy asarning mazmun mohiyatini idrok etish, uning yaxlit estetik hodisa sifatidagi mavjudliginiturli aspektlarda o'rganib, o'ziga xosligini ochib berish va qimmatini belgilashga qaratilgan hissiy-intelektual faoliyat.

**BESTSELLER** (ingl. best – eng yaxshi, sell – sotilmoq) Noshirlikning tijoriy tomoni bilan bog'liq holda yuzaga kelgan termin, kata tirajda chop etilgan va tez tarqalib ketgan, tijoriy jihatdan muvaffaqiyat qozongan kitob. Shundan kelib chiqib bestseller termini kitobxonlar tomonidan qizg'in kutib olingan va qo'lma-qo'l bo'-lib ketgan asarlarga nisbatan ham qo'llanadi.

**BIOGRAFIK** Biografiyaga, tarjimai holga oid. Adabiyotda biror bir mashhur yozuvchi, tarixiy shaxs yoki mutafakkirlar haqida yozilgan b.qissa, roman. M:M.Osimning tarixiy-biografik qissalari, Oybekning "Alisherning yoshligi" qissasi.

**BOLALAR ADABIYOTI** 2 yoshdan 16-17 yoshgacha bo'lgan kichkintoylar, bolalar va o'smirlar didi, tili, qiziqishi, saviyasi va obrazli badiiy tafakkuriga ixtisoslashgan, ular uchun maxsus yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiy-ommabop va publitsistik asarlar majmui. Shuningdek, b.a. bevosita bolalarga mo'ljallab, yoki aslida kattalarnig o'zi uchun yaratilgan bo'lsa ham keyinchalik butunlay ular kitobxonligiga o'tib qolgan asarlarni ham o'z ichiga oladi.

**BOLALR KITOBXONLIGI** o'z ma'nosida umuman kitob o'qish hodisasini anglatsa-da, keng ma'noda necha ming yilliklar davomida aslida kattalar didi, hayotiy tajribasi, dunyoqarashiga mos holda yaratilib kelingan bo'lib, bolalarning ham o'qishi doirasida amal qilgan va yaxlit tizim tarzidagi ma'naviy-axloqiy hodisa darajasiga ko'tarilgan hammabop diniy, diniy-axloqiy, diniy-



tarixiy, didaktik, badiiy, ilmiy, shuningdek, XX asr boshlaridan esa, professionallik kasb eta boshlagan o'zbek bolalar adabiyotiga doir asarlar silsilasini o'qish va o'qitishni anglatadi.

**BOLALAR KITOBATCHILIGI** bolalar kitobxonligining asosi bo'lib, uyda ham, bog'chada ham, maktabda ham bolalar o'qishiga mo'ljallangan rang-barang mazmun va shakldagi kitoblar. Bunda kitoblarning aksariyati o'yinchoq timsolli mazmun va maqsadiga muvofiq esa chidamli qalin qog'oz yoki kartondan foydanilgan taxlamga ega bo'ladigan su'ratli kitobchalar, o'yinchoq kitobchalar, yig'ma kitobchalar, animal kitobchalar,<sup>1</sup> kesma kitobchalar kabi turlarda yaratilishi mumkin. Bu xildagi kitoblar komikslar<sup>2</sup> deb yuritilib, badiiy matni adib yoki shoirga taalluqli bo'lsa, taxlamini bichishda noshir (poligrafist) va badiiy bezatilishida musavvir ishtirok etadi.

**DETEKTIV ADABIYOT** (yun. izquvar ) 1. Sarguzasht adabiyotining bir tarmog'i, sujeti asosida sirli jinoyatlarni ochish bilan bog'liq voqealar yotuvchi asarlarning umumiy nomi. 2. Josuslar, yashirin ayg'oqchilar, izquvarlar hayoti, sarguzashtlari, murakkab jinoyatlarning ochilishi haqida hikoya qiluvchi (badiiy asar yoki film).

**DIALOG** (yun. dialogos . di – ikki + logos – so'z; nutq; tushuncha) 1. Ikki kishi o'rtasidagi og'zaki muloqot, suhbat.

2. Adabiy asarda ikki yoki bir necha personaj o'rtasidagi gaplashuv, suhbat. Dramada dramatik harakat va harakatlarning ochilishida dialoglar muhim rol o'y-naydi.

**DILOGIYA** (yun. di – qo'shma so'zlarda "ikki", logos – so'z, hikoya) Kompozitsion jihatdan nisbiy mustaqillikka ega bo'lgan ikki mustaqil asardan tashkil topgan asar. Bolalar adabiyotida X.To'xtaboyevning "Sariq devni minib" va "sariq devning o'limi" romanini dilogiya misol sifatida ko'rsatish mumkin.

<sup>1</sup> Animal kitobchalar hayvonlar, qushlar, hasharotlar rasmlari asosida tartib berilgan rangli kitoblar.

<sup>2</sup> Komiks silsilali rasmlardan iborat kitoblar bo'lib, goh matnli, goh matsizdir.



**DRAMA** (yun. drama – harakat) 1. Badiiy adabiyotning uchta asosiy turidan biri. Dramaning tasvir predmeti – harakat. U Arastu ta’rificha “barcha tasvirlanayotgan shaxslarni harakat qilayotgan, faoliyatdagi kishilar sifatida taqdim etadi”. Dramaning asosiy janrlari sifatida tragediya, komediya va drama (janr ma’nosida) ko’rsatiladi. 2. Dramatik turning uchta asosiy janridan biri.

**EPIGRAF** (yun. epigraphe – bitik, sarlavha) Asarning boshlanishida sarlavhadan keyinoq yoki uning bo’lim (bob, fasl) lari boshida keltiriluvchi qisqa, odatda e’tiborli manbalardan (xalq ijodi, mashhur kishilarning purhikmat so’zlari va shu kabilar) olingan ko’chirma, sitataning bir ko’rinishi. Ko’p holda epigraf o’zining aforistik mazmuni bilan asar mohiyatini ochib beradi. Masalan, A. Qahhor “O’g’ri” hikoyasiga epigraf qilib olgan “Otning o’limi – itning bayrami” maqoli hikoya mohiyatini, undagi voqeaga g’oyaviyemotsional munosabatni ifoda etadi.

**EPILOG** (yun. epilogos – so’ngsoz) Asarda tasvirlangan asosiy voqealardan alohida ajralib turuvchi yakun, xotima.

**EPISTOLYAR ADABIYOT** (yun. epistole – maktub, noma) Birovga maktub shaklida yozilgan adabiy yoki publitsistik asarlar. Epistolyar adabiyotning o’zbek mumtoz adabiyotidagi namunasi sifatida A. Navoiyning “Munshaot” asarini keltirish mumkin. Bolalar adabiyotida E.Malikning “Onaizor” qissasi epistolyar xarakterga ega. **EPITET** (yun. epitheton – ilova etilgan, izohlovchi) Badiiy sifatlash; narsa-hosisaning belgisini obrazli ifodalaydigan badiiy aniqlovchi. Xalq og’zaki poetik ijodida sodda va doimiy epitetlar ko’p qo’llaniladi (alpkelbat pahlavon, sunbul soch, qunduz qosh, oy yuz, la’l lab, sarv qomat kabi).

**EPIZOD** (yun. episodien – kiritma) Epik, liro-epik va dramatik asarlarda tasvirlanayotgan voqeaning makon va zamonda kechishi jihatdan ajraluvchi, makoniy va zamoniy jihatdan aniq chegaralanganlik asosida nisbiy mustaqillik kasb etuvchi bo’lagi. Mas. H.Olimjonning “Simurg’ yoki Parizod va Bunyod” ertakdostonida d Simurg’ Bunyodga birgina **epizodda** – devni



yengishini ta'minlashidagina ko'maklashsa-da, aslida bu voqealar dramatismni avj nuqtaga chiqarib, tugunni yechishga ochqich vazifasini bajargan hal qiluvchi epizoddir.

**EPIGRAMMA** ( qad.grek. "nadpis"- biror predmet yoki qabr toshiga bitilgan yozuv, bitik) keyinchalik uncha katta bo'lmagan satirik she'r. XIX-XX asrda yozilgan epigrammalarining asosiy xususiyati piching, istehzo va hajvdan iborat bo'lgan. E. bolalar she'riyatida Sh.Sa'dulla, A.Obidjon ijodida ko'plab uchraydi.

**FOLKLORIZM** Yozma adabiyotda qo'llangan og'zaki poetik ijod materiali. Ilmiy adabiyotlarda folklorizm "ikkinchi shakl" (K. Chistov) atamasi bilan ham yuritiladi. Yozma adabiyotda muallif yoki personaj nutqida qo'llangan xalq maqollari, matal hamda iboralar oddiy folklorizm sanaladi. Ijodkorning folklorga xos tasvir uslubiga ergashishi, folklor materialidan o'z asarida foydalanishi, folklorga mansub sujet yoki motivni asariga olib kirishi va boshqa murakkab folklorizm hisoblanadi. Asqad Muxtorning "Chinor", Turob To'laning "Suyuk momo", Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni", Abdulla Oripovning "Qasam dara", O'tkir Hoshimovning "Parvona kuni" kabi asarlarida folklorizmning yorqin namunalari bor.

**GALLYUTSINATSIYA** (lot. hallucinatio – xomxayol; alahlash) Bosh miya faoliyatining buzilishi natijasida ko'ruv, eshituv, sezuv, hidlov a'zolarining chalg'ishi, yo'q narsa va hodisalarni bordek idrok etash.

**GENEZIS** (yun. genesis - kelib chiqish, yuzaga kelish) Kelib chiqish, paydo bo'lish tarixi.

**GIMN** (yun. himnos – madhiya) 1. Qadimgi yunonlarda ilohlarni ulug'lash, maqtash uchun aytilgan qo'shiq.

2. Mazmunan dasturiy xarakterdagi she'r asosidagi tantanavor qo'shiq, muayyan ijtimoiy harakat, uyushma, muassasa, davlat va sh. k. larning atributlaridan biri, madhiyasi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi, "Internatsional", "Jahon demokratik yoshlari federatsiyasi gimni" va hokazo.



**HARFIY SAN'ATLAR** Arab alifbosi harflari shaklidan lirik va epik timsollar chizishda foydalanishni nazarda.

**HIJO** (ar. bo'g'in) She'riy nutqning ritmik birligi, ya'ni so'zning bir nafas zarbi bilan aytiladigan qismi. Hijo ko'pincha tilshunoslikdagi bo'g'in tushunchasiga to'g'ri keladi, ba'zan bo'g'indan farqli o'laroq undosh tovushning o'zidan ham tuzilishi mumkin. Hijo talaffuziga ketgan vaqt va tuzilishiga ko'ra ikkiga bo'linadi; cho'ziq (-) va qisqa (V) hijo. Cho'ziq hijo unli bilan tugasa, qisqasiga nisbatan cho'ziqroq talaffuz qilinadi yoki undosh bilan tugaydi (chunonchi, yuqoridagi: **Vas-l** bo-g'i kabi).

**HIKOYA** Badiiy adabiyotda kichik epik janr, hayot hodisalari ixcham ifoda etiladigan nasriy asar. Hikoya inson hayotida yuz bergan ixcham voqeani lo'nda ifodalashga mo'ljallangan. Unda shu voqeaga qadar personaj hayotida nima bo'lgan, qanday ro'y bergan, kim bilan – bular to'g'risida ma'lumot berish shart emas. Juda zarur bo'lsa, Ba'zi detallar orqali ishora qilinishi mumkin. Mas, A. Qahhorning "O'g'ri" hikoyasida Qobil boboning kechagi kuni haqida lom-mim deyilmaydi. Egamberdi paxta-furusdan kichkina shart evaziga ikkita ho'kiz olgan.

**HIKOYAT** Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyo xalqlaridagi adabiy termin. Har qanday she'riy va nasriy asarni, ko'pincha voqeaband asarni anglatadi. Tor ma'noda muallifi yo'q yozma nasriy epos.

**IMPROVIZATSIYA** (lot. improvises – kutilmagan, birdan) Badiiy ijodning alohida ko'rinishi bo'lib, bunda asar bevosita ijro jarayonida yaratiladi. Improvizatsiya ko'proq ijro bilan bog'liq san'at turlar (musiqa, raqs, teatr san'ati)da, shuningdek she'riyatda kuzatiladi. Improvizatsiyaning ildizlari folklordan suv ichadi. Xalq baxshilari folklore namunalarini ijro etish jarayonida improvizatsiya yo'li bilan ularga yangiliklar qo'shib borishgan, shu yo'l bilan yangi asarlar yaratishgan. Jumladan termalarni ijro qilish, aytishuvlarda improvizatsiyaning roli va ulushi sezilarli bo'lgan.



**INTERPRETATSIYA** (lot. tushuntirmoq) Talqin; adabiy asar mazmunini anglash, uning mazmuni, badiiy konsepsiyasini anglash, tushunish.

**KOMPOZITSIYA** (lot. compositio – tuzilish, qurilish, tarkib) Badiiy asardagi qismlar, obrazlar va vositalarning muayyan g'oyaviy maqsadga xizmat qiladigan tartibda joylashishi, ularning tasvirdagi mezonini va muvofiqligi. Asar kompozitsiyasiga makon va zamonning cheksizligini sig'dirishda avtor xarakteristikasi, ichki va tashqi monolog, dialog, xotira, lirik chekinish, ruhiy chekinish, ruhiy iztirob, tush ko'rish, o'z-o'zini baholash kabi usullardan foydalaniladi. Masalan, A. Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" asari xotiralar tarzidagi kompozitsiyaga ega.

**KONTEKST** (lot. con – birga, textus – mato, to'qilgan) 1. Alohida so'z (matn birligi)ni qurshab turgan va uning ma'nosi tushunilishiga asos bo'luvchi matn, uni tashkil etayotgan so'zlarning bevosita lug'aviy ma'nosidan keng bo'lgan ma'no tizimi. Masalan, shirin so'zi qo'llangan ikkita gapni olib ko'ramiz: 1. Muharram shirin tabasum bilan kuldi. (Shuhrat) 2. Siz pishirgan taom shu darajada shirin, lazzatli bo'ladiki...(Mirmuhsin) Birinchi gapda shirin so'zi "xush yoqadigan, yoqimli", ikkinchi gapda esa "ta'mi yoqimli, mazali, lazzatli" degan ma'noni bildiriyapti. Bu ikkala gap shirin so'zi uchun turli kontekst bo'lib, mazkur ma'nolar aynan shu kontekstlar yordamida ro'yobga chiqyapti.

2. Adabiy asar – so'zlardan tarkib topgan matn. Badiiy matnning tashkil etayotgan unsurlar

**KULMINATSIYA** (lot. culmen – cho'qqi) Badiiy asarda voqealar rivojining eng yuksak nuqtasi, sujetning ziddiyatlar keskinlashib, konflikt yaqqol namoyon bo'ladigan o'rni. Ijodkor uslubi, maqsadi va xohishiga ko'ra kulminatsiya asarning boshlanishi, o'rtasi yoki oxirrog'ida kelishi mumkin. Masalan, Abdulla Qahhorning "Sinchalak" qissasida kulminatsiya asar o'rtasida kelsa, Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanida kulminatsiya asar oxirida,



yechim sifatida uchraydi, ya'ni Kumushning Zaynab bergan zahardan o'lishi asarning kulminatsiya nuqtasidir.

Kulminatsiyaning eng muhim belgisi shuki, u badiiy asardagi voqealar oqimini, xarakterlarning o'z sifatidagi va boshqalar bilan munosabatidagi xislatlarni albatta o'zgartiradi.

**LEYTMOTIV** (nem. leitmotiv – yetakchi motiv) Musiqadan o'zlashtirilgan termin bo'lib, keng ma'noda muallif tomonidan ilgari surilayotgan asosiy g'oyaning butun asar davomida ta'kidlab o'tkazilishi bo'lib, shu ma'noda g'oyaviy leytmotiv atamasi ham ishlatiladi. Masalan, A. Oripovning “Men nechun sevaman O'zbekistonni” she'rida Vatanga beg'araz muhabbat, “Vatanga muhabbat aslida xalqqa muhabbat” degan asosiy g'oya leytmotiv sifatida butun she'r matnidan sizib o'tadi.

**LIRIK CHEKINISH** (rus. kalka: лирическое отступление) Badiiy asardagi muallif nutqining bir turi bo'lib, ijodkor biror munosabat bilan asosiy voqeani to'xtatib, ya'ni asosiy voqeadan chekinib, tasvirlanayotgan voqeaga o'z munosabatini yoki shu voqea ta'sirida vujudga kelgan kechinma, his-tuyg'ularini bayon etadi.

**LIRIK QAHRAMON** Lirik asar asosida yotgan “men” dan iborat adabiyotshunoslikdagi shartli tushunchalardan biri bo'lib, lirik qahramon sifatida ko'pincha shoirning o'zi gavdalanadi.

**LITOTA** (yun. litotes – soddalik) 1. Narsa-hodisaga xos xususiyatni uning aksini inkor qilish orqali ifodalshga asoslangan uslubiy figura, mohiyatan kinoyaga yaqin turadi. Litota kundalik muloqotda ham ancha faol qo'llanadi. Msalan, “bu kishim ham ahmoq emas” – aqli-hushi joyida; “uyam shahar ko'rmaganmas” – soddagina emas, pishiq va h. k. 2. Tasvirlanayotgan narsa-hodisa, unga xos belgilarni o'ta kichraytirishga asoslanuvchi badiiy usul, stilistik figura; giperbolaning ziddi, mumtoz adabiyotshunosligimizda tafrif deb yuritiladi. Jahon xalqlari og'zaki ijodida litota usulida qator obrazlar yaratilgan: No'xatpolvon, Yortiquloq, Barmoqcha bola (mal'chik-spal'chik), Duymovochka va b.



**MONOLOG** (mono. + yun. logos – so‘z, nutq) Sahna yoki boshqa adabiy asar ishtirokchilarining o‘z-o‘ziga yoki o‘zgalarga qaratilgan, javob talab qilmaydigan nutqi. “Navoiy” pyesasidagi Navoiy monologi.

**MONOTON** Bir xil ohangda. Mas. Monoton ohang o‘zbek allalari uchun mushtarak xususiyatdir. Biroq monoton ohang onaning ijro paytidagi holati va kayfiyati bilan chuqur bog‘liq. Ona kayfiyati chog‘ kezlarda allaning monoton ohangida xush yoquvchi mayin yumshoqlik mayli sezilib tursa, xafaligida, iztirob chekayotganida ma’vus tortuvchi hazinlikka moyil bo‘ladi.

**MOTIV** (lot. moveo – harakatlantiraman) Musiqashunoslikdan o‘zlashtirilgan termin. Motiv musiqada asarning eng kichik shakl birligi sanalib, asar uning aynan takrorlanishi (shuningdek o‘zgartirilishi yoki zid motivlar kiritish) asosida rivojlanadi. Adabiyotshunoslikda motiv termini turlicha ma’nolarda qo‘llanadi. Jumladan, voqeaband asarlarda motiv sujet sxemasi (masalan, qahramon bandi etiladi, unga biron-bir qiz yordam beradi; o‘gay ona va mushtipar soliha qiz) qahramon kimsasiz yetimlikdan yuksak martabaga yetadi; Ya’ni motivlar yarim tayyor holda olinadi: Masalan, “Alpomish”dagi Qorajon, Farhod va Shirindagi Shopur, “Otgan kunlar”dagi usta Olim – bari do‘st motivining turli variantlari bo‘lib, ular asar sujetidagi funksiyalari, badiiy konsepsiyani ifodalashdagi o‘rni jihatidan farqlanadi. Lirikada ham motivlar keng o‘rin tutadi. Xususan, an’anaviy tarzda ishlatiluvchi “oshiq – yor – ag‘yor”, “kutayotgan oshiq – kelmagan yor”, “ishq o‘tida yonayotgan oshiq – beparvo yor” singari qator sujet motivlari turli variantda qo‘llanib, lirik qahramonning turfa o‘y-hislarini lo‘nda va ta’sirli ifodalashga xizmat qiladi. Yoki, bolalar adabiyotidagi asarlarda mas. G.G‘ulomning “Shum bola”, “Yodgor”, “Netay” qissalaridagi yetimlik motivi, xalq ertaklaridagi o‘gay ona motivi, yetim qiz motivi va h.k.

**MUALLIF NUTQI** Adabiy asardagi bevosita mualliv tilidan berilgan bayon, tavsif, izoh, va sh. k. o‘rinlar. Garchi biz “badiiy asar



tili” desak-da, aslida gap “badiiy nutq ustida boradi”, chunki adabiy asar til unsurlari vositasida yaratilgan tekst, ya’ni nutq hodisasidir. Badiiy nutq uslubiy jihatdan farqlanuvchi komponentlarning birikuvidan hosil bo’ladi: unda muallif nutqi bilan personajlar nutqi ajratiladi. Mazkur farqlanish asasan epic va liro-epik xarakterdagi asarlarga xos bo’lib, ularda voqea, voqea kechayotgan joy yoki sharoit tasviri, personajlarga berilayotgan ta’rif, muallif fikrmulohazalari va sh. k.lar bevosita muallif tilidan beriladi.

**MUALLIF OBRAZI** Badiiy asar matnida anglashilib turuvchi muallif shaxsi. Muallif shaxsi asar badiiy voqeligiga singib ketadi, chunki badiiy voqelik ijodkor tomonidan ko’rilgan va ideal asosida qayta yaratilgan voqelikdir. M.G’G’ulomning “Shum bola” qissasidagi Qoravoy obrazi talqinida muallif obrazi yorqin anglashilib turadi. Yoki, X.To’xtaboyevning “Besh bolalali yigitcha” romani.

**MUHARRIR** (ar. ozod etuvchi; tahrir qiluvchi; yozuvchi)

1. Nashriyot yoki boshqa mas’ul nashrlarda muayyan matnni turli jihatdan tahrir qilib, bosmaga tayyorlovchi xodim. Adabiy muharrir.

Texnik muharrir. Bosh muharrir. Mas’ul muharrir.

2. Ba’zi matbuot organlariga rahbarlik qiluvchi shaxs. Keksa ishchi gazetaning muharririga qarab: – Nega bunga chittak deb laqab qo’yдилaring? – dedi.(A. Qahhor)

**MUNAQQID** (ar. tanqid qiluvchi; tanqidchi) Adabiy tanqid bilan shug’ullanuvchi shaxs; tanqidchi so’ziga sinonim sifatida qo’llanadi. **MUQALLID** (ar. taqlidchi) 1.O’zbek an’anaviy teatrining janri; shu janr ijrochisi (Muqallid shaklidagi tomoshalarda qush va hayvonlarga taqlid qilingan, hayotdagi ba’zi kishilar xulq-atvori, qiziq voqealar kulgili tarzda aks ettirilgan).

2. Bolalar o’yin folklorida bolalarning o’z ota-onalari turishturmushiga muqallidlari zamirida yuzaga kelgan «Olmacha do’mdo’m», «Osmondagi oy» o’yinlari uchun dehqonning o’zi yetishtirgan olmani sotishiga bolalar taqlidi asosga aylangan



bo'lsa, «Bog'lam-bog'lam», «Chillik toy», «Qo'rg'on olish», «Cho'pon va shog'ol», «Boylandi» o'yinlari uchun chorvachilik bilan shug'ullanuvchilar faoliyatiga muqallid qilish zamin vazifasini o'tagan.

**NASR** (ar. sochib, to'kib tashlash; proza) Vazn va qofiyaga ega bo'lmagan yozma nutq mahsuli. Muomala amaliyotda umuman badiiy proza, nasrda bitilgan asarlar jami ma'nosida proza terminiga sinonim sifatida ham qo'llanadi. Bolalar nasrida roman, qissa, hikoya yetakchi.

**NAZM** (ar. tuzuk, tartib, tartibga keltirish, terish, tizish) Badiiy nutq shakllaridan biri, tizma, she'riy nutq. Nisbatan kam hollarda nazm keng ma'noda qo'llanib, umuman she'riyatni bildiradi, bu keng ma'noda nasr bilan qarama-qarshi qo'yilgan holda yuzaga keladi. **NOSHIR** (ar. tarqatuvchi, nashr etuvchi) Nashr etuvchi, chop qiluvchi, chiqa-ruvchi. Noshir kitob shakl-shamoyilini, harflari, hoshiyalari, sarlavhalari, taglavhalari, yonlavhalari, qismlari va boblarini ajratib ko'rsatuvchi belgilarni matn mazmuni va kitob bichimiga muvofiqlashtirsa

**NOSIR** Nasrda ijod qiluvchi shaxs; yozuvchi, adib.

**NOVATORLIK** (lot. novator – yangilovchi, yangilanuvchi) Bolalar adabiyotida istiqloq davri she'riyati, jumladan, A.Obidjon, D.Rajab singari ko'plab shoirlar ijodida shakl va mazmun jihatidan yangilanishi ilgari uchramagan obraz va mavzular yaratilishi novatorlik belgisidir.

**OBRAZLAR SISTEMASI** Badiiy asardagi bir-biri bilan uzviy bog'langan obrazlar tizimi. Amaliyotda obrazlar sistemasi deyilganda kopincha asrdagi personajlar tizimi nazarda tutiladi, biroq bu terminning tor ma'nosidir. Zero obrazlar sistemasi faqat personajlardan emas, balki badiiy voqelikni tashkil qilayotgan jami (narsa, hodisa, joy va h. k.) obrazlardan tashkil topadi.

**OQ SHE'R** (ruschadan kalka: «beliy stix») Muayyan o'lchovga ega bo'lgani holda misralari o'zaro qofiyalanmagan she'r. Oq she'r shoirga o'z fikri va hissiyotini to'laroq ifodalash imkonini beradi,



undagi ritmik izchillik esa she'r g'oyasiga kuchli ta'sirchanlik bag'ishlaydi

**PAFOS** (yun. pathos) Ijodkorning o'zi tasvirlayotgan voqelikka g'oyaviy-hissiy munosabati. Masalan, E. Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostonining pafosi mustamlakachilik istibdodiga qarshi norozilik, isyondir.

**PAREMIOGRAFIYA** Paremalarni yozib olish, to'plash faoliyati. Maqoll metal, topishmoqlarni yozib olinishi va to'planib kitobat qilinishi paremiografiyaga daxldor.

**PAREMIOLOGIYA** (yun. paroimia – hikmatli so'z, zarbulmasal va ... logiya) 1. Ma'lum bir tildagi avloddan avlodga og'zaki shaklda ko'chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo'lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralarni – paremalarni o'rganadigan fan sohasi.

2. Muayyan tilda mavjud bo'lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralar – paremalar tizimi. ,

**PERSONAJ** (lot. persona – shaxs, teatr maskasi) Badiiy adabiyotdagi inson obrazi, adabiy asardagi voqea ishtirokchisi, hiskechinma va nutq subyekti. Personaj termini qahramon, ishtirok etuvchi (dramatik asarda), xarakter terminlari bilan bitta sinonimik qatorni tashkil qilib, ma'no jihatdan neytral bo'lgani bois bu qatorda dominanta vazifasini o'taydi.

**PEYZAJ** (fr. paysage – joy, yurt) Adabiy asarda yaratiluvchi badiiy voqelikning muhim komponenti, voqealar kechuvchi ochiq makon tasviri. An'anaga ko'ra peyzaj deyilganda tabiat tasviri tushuniladi, lekin bu xil tushunish birmuncha torroq. Chunki peyzaj nafaqat tabiatni, balki u bilan birga inson tomonidan yaratilgan narsalar tasvirini ham ko'zda tutadi. Shu ma'noda, masalan, biron-bir xiyobon yoki shahar ko'chasining tasviri ham peyzaj, holbuki ular tabiat tasviri emas, joy tasviridir.

**POETIKA** (yun. poietike – poetik san'at) Adabiyot nazariyasining so'z san'ati asarlari tuzilishini uning izchil va tarixiy



qonuniyatlari asosida o'rganadigan bo'limi; badiiy asarlarda qo'llanuvchi ifoda vositalari tizimi.

**POEZIYA** (yun. poezio, poiesis – ijod qilmoq) 1. Badiiy ijodning she'riy shakli, she'riyat, nazm. 2. Biror shoirning, xalqning yoki davrning she'riy asarlari majmui; she'rlar. Furqat poeziyasi. O'zbyok poeziyasi.

**PROLOG** (yun. pro – oldidagi, logos – so'z) Adabiy asarning kirish qismi, muqaddima. Har qanday muqaddima emas, faqat badiiy muqaddimagina prolog sanalishi mumkin. Ya'ni prolog sanalishi uchun muqaddima badiiy matnning uzviy qismi bo'lishi zarur.

**PROZA** [nem. Prosa < lot. prosa (oratio) – oddiy, jo'n (nutq)] 1. Badiiy ijodning asosiy turlaridan biri, adabiy tur; nasr.

2. O'lchamli mutanosib bo'laklar – she'rlarga bo'linmagan og'zaki yoki yozma nutq; nasr bilan yozilgan badiiy asar. Proza bilan yozilgan asar.

**PUBLITSISTIKA** (lot. publicus – jamiyatga, jamoatchilikka oid, ijtimoiy) 1. Davr (zamona)ning dolzarb ijtimoiy-siyosiy masalalari hamda jamiyatning kundalik hayotiga bag'ishlangan adabiyot turi.

Publitsistika siyosiy kurashning o'tkir qurolidir.

2. Shu janrga xos asar yoki asarlar (maqola, ocherk, pamflet, felyeton va sh.k.) majmui. A. Qahhor publitsistikasi.

**QISSA** (ar. hikoyat, sarguzasht) Epik turning hikoya va roman qatoridagi uchta asosiy janridan biri. O'zining janr xususiyatlari bilan qissa hikoya va roman oralig'idagi hodisadir: hikoyada qahramon hayotidagi birgina voqea, romanda qahramon hayotining murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimidagi katta bir davri, qissada qahramon hayotining bir bosqichi bqalamga olinadi. Hikoyaning diqqat markazida voqea, romanning diqqat markazida qahramon vositasida idrok etilayotgan olam (jamiyatning joriy holati) tursa, qissaning markazida hamisha qahramon turadi. Ya'ni roman uchun qahramon vosita, qissa uchun esa maqsaddir.



Shunga ko'ra qissadagi barcha voqealar qahrmon atrofida uyushtiriladi, uning sujeti romanniki kabi ko'p tarmoqli bo'lmaydi. G'. G'ulomning "Shum bola", S. Ayniyning "Odina", Oybekning "Bolalik", A. Qahhorning "O'tmishdan ertaklar", "Sinchalak", shuningdek O. Yoqubov, O'. Hoshimov, S. Anorboyev, O'. Umarbekov va boshqalarning qissalari mazkur janrning yetuk namunalariidir.

**RAMZ** (ar. imo, ishora, imlash) Simvol; ko'chim turlaridan biri, faqat shartli ravishda va shu matn doirsida ko'chma ma'no kasb etuvchi so'z yoki so'z birikmasi; obrazlilik turi. Ramz mohiyatan allegoriyaga yaqin, undan farqi shuki ramz kon–tekst doirasida ham o'z ma'nosida, ham ko'chma ma'noda qo'llanadi.

**REALIYA** (lot. realis – ashyoviy) Muayyan xalqning turmish tarzi, madaniyati, tarixi bilan bog'liq betakror, o'zga xalqlarda uchramaydigan narsa-hodisa, tushuncha; shunday narsa va tushunchalarni anglatuvchi so'z. Muayyan xalq turmushida ishlatiluvchi narsa-buyumlar (mas., kanoe, tamogavk, mokasin va sh. k. – hindularda; isiriq, obrez, tandir, beshik, taxmon va sh. k. – o'zbeklarda, diniy unvon va darajalar (abbat, pop, yepiskop, shayxulislom, muftiy, qozi), mansab nomlari (graf, baron, dyak; bek, amir, tunqotar, hudaychi, hokim), shuningdek geografik yoki madaniy-etnografik tushunchalarni anglatuvchi so'zlar ham realiyalar sirasiga kiradi.

**REMARKA** (fr.remarque-belgi, izoh) ad.Dramatik asarlarda qahramonlar tashqi qiyofasi, yoshi, xulqi, xatti-harakati, sahna manzarasi va b. haqida muallif tomonidan sahna voqeasining boshlanishi oldidan beriluvchi yoki uning kechishi davomida qavs ichida berib boriluvchi izohlar.

**RETRO** (lot – ilgarigi, o'tmishga murojaat). Ancha ilgari mashhur bo'lgan qo'shiq, she'r, musiqa va shu kabilarga qayta muroaat qilish orqali yana ommalashishi. Mas. Bolalar qo'shiqlaridan "Boychechak", "Chittigul", "Odob yaxshimi, o'tob yaxshimi?", "Kel baxt kuyin kuylaylik", "Ko'ylagim", "Oppoq qandim" va h.k.



**ROMAN** (fr. roman – “lotin tilida emas, roman tillaridan birida yozilgan” ma’nosida) Zamonaviy adabiyotda epic turning yirik hajmli janri. Roman janr sifatida hajman kattaligi, hayotni keng ko’lamda tasvirlashi, qahramon hayotidagi katta davrni olib, turli ijtimoiy munosabatlar bilan bog’lab talqin qilishi, ko’plab va turfa kishilar taqdirleri orqali jamiyatning joriy holatini aks ettira olishi; murakkab ko’p chiziqli sujetga ega bo’lishi bilan ajralib turadi.

**SAJIYA** (a. tug’ma sifat, xususiyat; xulq, tabiat) Xarakter, fe’latvor.

**SARGUZASHT ADABIYOTI** Haqiqatda yuz bergan yoki to’qib chiqarilgan voqeaalarni qiziqarli tarzda hikoya qiluvchi voqeeband asarlarning umumiy nomi. Aslida sarguzasht deb boshdan kechirilgan, voqealarga aytiladi, biroq adabiy asardagi har qanday voqeani ham sarguzasht deyish mumkin emas. Sarguzasht asarda favqulodda qiziq va g’aroyib voqealar, o’quvchini hayajonga soladigan tasvirlar, kechinmalar ko’p bo’ladi. Jonatan Sviftning «Gulliverning sayohatlari», Daniel Defoning «Robinzon Kruzo», Jyul Vernning «O’n besh yoshli kapitan» kabi kitoblari ana shunday asarlardandir. Xudoyberdi To’xtaboevning “Sariq devni minib” romani ham sarguzasht usulida bitilgan asar hisoblanadi.

**SAYOHATNOMA** Adabiy janr, yo’lchining safar davomida ko’rgan-kechirganlari, o’zga yurtlarning tabiati, ijtimoiy-maishiy turmushi, xalqi, urf-odatleri va boshqa shu kabi muallif mansub millat o’quvchilari uchun qiziqarli va foydali bo’lishi mumkin bo’lgan ma’lumotlar beruvchi asar. Bunga misol qilib Muqimiyning “Sayohatnoma”, Cho’lponning “Vayronalar orasidn”, J. Sviftning “Gulliverning sayohatlari”, Fitratning “Sayyohi hindi” asarlarini ko’rsatish mumkin.

**SAYYOR SUJET** Bir asardan ikkinchi asarga ko’chib yuruvchi sujet. bir xalq ertagiga xos syujet motivleri boshqa bir xalq ertagiga ko’chib o’tishi va buning oqibatida bir necha o’xshash syujetli ertak paydo bo’lishi mumkin. Folklorshunoslikda bunday ertaklar- sayyor syujetli ertaklar deb yuritiladi. Sayyor syujetli



ertaklar ko'pincha mazmunan o'zaro o'xshashsalar-da, biroq milliy ruh, milliy urf odat, milliy dunyoqarash, milliy tilga xos ifodaviy vositalar va geografik muhit tasviriga ko'ra farqlanuvchi mustaqil adabiy -og'zaki hodisa sifatida yashash huquqiga ega.

**YUMOR** (ingl. humour – kayfiyat, moyillik) Badiiy adabiyotga mansub yumoristik asarda yozuvchi ijtimoiy hayotdagi, shaxsiy turmushdagi, xususan, Ba'zi kishilardagi ba'zi kamchilik, nuqsonlardan kulib, uni tanqid qiladi. Bunda yozuvchi tanqid qilinayotgan obyektning yo'qotilishiga tarafdor emas, unga achinadi, undagi mavjud kamchilikning tuzalishini istaydi. Yengil tanqid, hazil ruhi bilan yumor satiradylan farq qiladi. o'zbek adabiyotida G'. G'ulom, A. Qahhor, S. Ahmad va boshqalar.

**G'OYA, badiiy g'oya** Badiiy mazmunning muhim komponenti, asardan kelib chiqadigan obrazli, umumlashma fikr. Asarda tasvirlanayotgan voqea-hodisalarga muallifning g'oyaviy-hissiy munosabati, obrazlar sistemasi vositasida qo'yilgan problematikaning badiiy idrok etilishi va baholanishi natijasida namoyon bo'luvchi badiiy hukm. Masalan, X. To'xtaboyevning "Sehrli qalpoqcha" qissasining g'oyasi "inson o'qimay, bilim olmay turib hech qanday kasbni egallay olmaydi, jamiyatda o'z o'rnini topa olmaydi" degan fikrdir.

**CHISTON** (fors. u nima?) She'riy topishmoq, narsa tushunchaning nomini aytmagan holda o'xshashlik yoki aloqadorlik asosidagi belgilarni tavsiflashga asoslangan janr. O'zbek adabiyotshunosligida lug'z termini ham ishlatiladi.

Bu na gumbazdur, eshigi, tuynugidin yo'q nishon,

Necha gulgun pok qizlar manzil aylabdur makon?

Tuynugin ochib, alarning holidan olsam xabar,

Yuzlarida parda tortug'liq tururlar, bag'ri qon. (Uvaysiy) Bu chistonda anor haqida so'z boryapti.



### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. –Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.
2. Jamilova B. O‘zbek bolalar adabiyoti. Toshkent: Noshir, 2019.
3. Jamilova B. O‘zbek bolalar adabiyoti. Toshkent: Noshir, 2019.
4. Barakayev R. Istiqlol davri o‘zbek bolalar she‘riyatining ba‘zi o‘ziga xosliklari. Uluslararası Başarı Bilimler ve sanat dergisi. 2021.
5. Jamilova B. O‘zbek bolalar adabiyoti. Toshkent: Noshir, 2019.
6. Ochilov N. Boshlang‘ich ta‘limda bolalar adabiyoti. Toshkent: “LESSON PRESS” nashriyoti. 2021 b 12.
7. Shoyimova Sh.S.,Xoshimova M.K.,Mirzayeva M.K.,Qo‘ziboyeva M.M.Ta‘lim texnologiyalari.Toshkent:Print, 2020.-8b
8. Z.K.Ismailova,R.S.Musayev, A.A.Shoyusupova.O‘qitishning zamonaviy texnologiyalari.Toshkent:TIMI, 2008.- 22b
9. Bashorat Jamilova. Bolalar adabiyotida zamonaviylik. O‘quv qo‘llanma. Buxoro 2023 “Bukhara hamd print” nashriyoti uo‘k 813.415.21
10. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. – Bolalar adabiyoti. Darslik / T.: “Sharofat-fayz”, 2022. - 320 b.
11. Jamilova B. O‘zbek bolalar adabiyoti. O‘quv qo‘llanma. T.: Innovatsiya-Ziyo. 2021. - 222 b.
12. Jamilova B. Bolalar adabiyotida poetik tafakkurning yangilanishi. T, 2022.
13. To‘xtayeva N. Istiqlol davri o‘zbek bolalar she‘riyatining yetakchi xususiyatlari. Dis.avtoref. T, 2019.



14. Sh.Karimova. Bolalar adabiyoti. Toshkent, "Pagesprint" nashriyoti, 2024.
15. Қахрамонов Қ. Адабий танқид янгилиниш жараёнлари. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009. – 184 б.;
16. Қахрамонов Қ. Адабий жараён ва эстетик талқин. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2014. – 162 б.; шу муаллиф. Болаликка ошуфта кўнгил. – Тошкент: Турон замин зиё, 2014. – 40 б.;
17. Баракаев Р. Жонажоним, шеърият. – Тошкент: Чўлпон, 1997. – 88 б.; шу муаллиф. Абдулла Авлоний ва ўзбек болалар адабиёти. – Тошкент: Фан, 2004. – 158 б.;
18. Иброҳимова З. Кичкинтойлар адабиётининг хусусиятлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 120 б.; шу муаллиф. Қувноқликка яширинган изтироблар. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2005. – 36 б.;
19. Жумабоева Ж. XX аср ўзбек шеъриятида психологик тасвир маҳорати. – Тошкент: Фан, 2004. – 256 б.;
20. Расулов А. Ўзлик сари йўл. – Тошкент: Адиб, 2012. – 40 б.;
21. Баракаев Р, Ашуров Б. Турсунбой Адашбоев феноменига бир назар. – Тошкент: Академнашр, 2017. – 160 б.;
22. Баракаев Р. Янгилиниш // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент. – 2000, 19 май; Баракаев Р. Истиқлол даври ўзбек болалар адабиёти: анъана, ворисийлик ва изланиш // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2003. – №3. – Б. 3. Сафаров О. Болаликнинг ойдin осмони. – Тошкент, 2009. – 362 б.;
23. Сафаров О. Шеърим – очил дастурхон. – Тошкент: Муסיқа, 2010. – 100 б.;
24. Сафаров О. Фольклор – бебаҳо хазина. – Тошкент: Муҳаррир, 2010. – 360 б.;
25. Сафаров О., Жамилова Б. Болалик – боқийлик тимсоли. – Тошкент: Шарқ НМАКБТ, 2011. – 76 б.



26. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. – Bolalar adabiyoti. Darslik / T.: “Sharofat-fayz”, 2022. - 320 b.
27. Jamilova B. O‘zbek bolalar adabiyoti. O‘quv qo‘llanma. T.: Innovatsiya-Ziyo. 2021. - 222 b.
28. Jamilova B. Bolalar adabiyotida poetik tafakkurning yangilanishi. T., 2022.
29. To‘xtayeva N. Istiqlol davri o‘zbek bolalar she‘riyatining yetakchi xususiyatlari. Diss.avtoref. T., 2019.
30. Abrorov A. O‘zbek prozasida avtobiografik qissalar. Kitobda: Hozirgi o‘zbek adabiyotining milliy o‘ziga xosligi. — Toshkent: Fan, 1984. 110-b.
31. A. Qahhor. O‘tmishdan ertaklar. — T.: O‘qituvchi, 1979.



## MUNDARIJA

Kirish .....	3
1-mavzu: Bolalar adabiyotida zamonaviy tendensiyalar .....	6
2-mavzu: Kitobxonlik madaniyati va kitobxon .....	13
3-mavzu: Badiiy asarda mazmun va shakl .....	22
4-mavzu: O'zbek bolalar adabiyotida avtobiografik va biografik asarlarning kompozitsiyasi va tili .....	28
5-mavzu: Adabiy jarayon va badiiy tafakkurdagi evrilishlar .....	36
6-mavzu: Bolalar she'riyatining ma'rifiy, ijtimoiy-estetik xususiyatlari .....	43
7-mavzu: Bolalar she'riyatida ijodiy-uslubiy izlanishlar .....	51
8-mavzu: Badiiy asarda yosh qahramonning ma'naviy olami .....	67
9-mavzu: Bolalar ruhiyatining yangicha idrok etish xususiyatlari .....	70
10-mavzu: Bolalar adabiyotida folklorizmdan foydalanish mahorati .....	77
11-mavzu: Bolalar adabiyotida yumorning o'rni .....	82
12-mavzu: Istiqloq davri o'zbek bolalar adabiyotida nasriy taraqqiyot. ....	91



13-mavzu: Bolalar adabiyoti daramaturgiyasi va publisistikasi .....	106
14-mavzu: O'zbek va chet el bolalar adabiyotida adabiy ta'sir.....	112
15-mavzu: Rus yozuvchilarining bolalarga atab yozilgan asarlari didaktik tamoyillar.....	117
Xulosa.....	122
Fan yuzasidan nazorat testlar .....	124
Glossariy .....	136
Foydalanilgan adabiyotlar:.....	154



SHAXLOXON KARIMOVA

# BOLALAR ADABIYOTI NAZARIYASI

DARSLIK

“Pages print” nashriyoti  
Toshkent – 2025

Nashr uchun mas’ul: **B. Mavlonov**  
Muharrir: **E. Sultonov**  
Badiiy muharrir: **F. Sobirov**  
Dizayner-sahifalovchi: **L. Abdullayev**



Nashriyot ro'yxat raqami № 263082. 25.04.2024-y.

Bosishga ruxsat etildi: 08.10.2025.

“Cambria” garniturası. Qog'oz bichimi: 60x84 1/16

Nashriyot bosma tabog'i 10,1. Adadi 100 nusxa.

Toshkent shahri, Olmazor tumani,

Chimboy ko'chasi, 8-uy.

«Pages Print» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Olmazor tuman, Chimboy ko'chasi, 8-uy.